

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi

Andijon Muhandislik - Iqtisodiyot Instituti

“Muhandislik” fakulteti
“Transport vositalaridan foydalanish”
kafedrasi



“Texnik tizimlarni boshqarish”
fanidan

MA'RUZALAR KURSI

**5 521200 - «Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash»
yo'nalishi talabalari uchun**

Andijon - 2009

“TASDIQLAYMAN”

Andijon muhandislik-iqtisodiyot instituti
O'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan
Kengash raisi _____ A.Xakimov
“ _____ ” _____ 200__y

“MA'QULLANGAN”

„Muhandislik“ fakulteti
Kengashida muhokama qilingan va ma'qullangan
Kengash raisi _____ N.To'ychiev
“ _____ ” _____ 200__y.

“TAVSIYA ETILGAN”

„Transport vositalaridan foydalanish“ kafedrasida
Majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan
Kafedra mudiri _____ T.Almatayev
(kafedra majlisining _____-sonli bayonnomasi)
“ _____ ” _____ 200__y.

Taqrizchilar:

«TVF» kafedrasida dotsenti T.Almatayev
«TVF» kafedrasida dotsenti P.Radjibayev

Muallif:

kat.o'qituvchi A.Bobotoev

Ushbu **“Texnik tizimlarni boshqarish”** fanidan tayyorlangan ma'ruzalar kursi 5521200 “Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash” yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash namunaviy va ishchi dasturlar asosida tuzilgan.

MUNDARIJA

- 1-Mavzu:** Texnik tizimlarni boshqarish.....
- 2-Mavzu:** Boshqarish jarayonlarini tashkil etish. Transport va texnika xizmati ko'rsatish korxonalarida menejmentning predmeti va tahlil usuli.....
- 3-mavzu.** Respublikada texnik tizimlar boshqarish taraqqiyotiga bog'lik xukumat qaror va qonunlari, uning mazmun va vazifalari, tashkil qilish usullari va talablari.....
- 4- Mavzu.** Boshqarishni ta'riflash.....
- 5-Mavzu:** Boshqarish jarayonlarini tashkil etish hususiyatlari, oliy bosqichda boshqarish jarayonlarini tashkil etish.....
- 6-Mavzu:** Korxonada faoliyatini rejalashtirish.....
- 7-Mavzu:** Rejalashtirishning tamoyillari va rahbarlik qilishning samarali usullarini tanlash.....
- 8-Mavzu:** Kelajakdagi ehtiyojlarni tasavvur qila bilish.....
- 9-Mavzu:** Texnik tizimlarni boshqarishda insonparvarlik omilining tutgan o'rni. Mehnat jamolarini boshqaruv. Korxonada jamoasining ijtimoiy rivojlanishini rejalashtirish.....
- 10-Mavzu:** Korxonada hodimlarining ijtimoiy rivojlanish rejasini ishlab chiqish.....
- 11-Mavzu:** Ijtimoiy rivojlanishni rejalashtirish shakllari.....
- 12-Mavzu:** Transport komplekslarini boshqarish asoslari va tamoyillari. Hudud miqyosida texnik tizimlar boshqaruvini shakllantirishning asosiy tamoyillari. Korxonada xo'jalik yuritish usullari va ularning tamoyillari.....
- 13-Mavzu:** Hududiy yordamchi xizmatlarni tashkil qilish. Tezkor boshqarish tizimining tashkiliy tarkibi va vazifasi. Korxonada ishlab chiqarish jarayonini tezkor boshqarish.....

1-Mavzu: Texnik tizimlarni boshqarish.

REJA:

1.Fanni o'kitishdan maqsad.

2.Fanning vazifalari.

1.Fanni o'kitishdan maqsad.

Fanning maqsadi tayyorlanadigan keng qamrovli mo'tahasisga texnik tizimlarni boshqarish bo'yicha ilmiy va amaliy bilimlar berish, texnik tizimlarni boshqarishni ilg'or zamonaviy uslublarni o'rgatish, fanga va o'z kasbiga qiziqishini orttirish.

Jamiyat xayotida o'tgan XX asr fan va texnika asri sifatida tarix sahifalariga zarhal harflar bilan bitilganini yaxshi bilamiz.

O'tgan yuz yillikning eng muhim mo'jizalaridan biri avtomobilning paydo bo'lishi, tarakkiy topishi, kundalik xayotimizning ajralmas bir qismiga, har jihatdan afzal zaruriy vositasiga aylangani bo'ldi. Bugun inson xayotini avtomobilsiz tasavvur etish mumkinmi?!

Yo'limizni yaqin qiladigan, bir zumda istagan malzilimizga eltib qo'yadigan avtotransport hisoblanadi.

Qulayligi yana shundaki, u sizni istagan kuchangizga, qishloqqa, tog'u toshli manzillarga kirib boraveradi, yana tez harakatlanuvchi transport vositasi bo'lib, mo'ljalidagi joyingizga yetkazib qo'yadi, vaqtingizni tejsaysiz, xiyotingizni mazmunli o'tishiga erishasiz.

Avtotransport o'z mohiyati bilan yurtga farovonlik bag'ishlaydi, taraqqiyotimiz rivojini tezlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi 1991 yil 31-avgust kuni Mustaqil deb e'lon qilingandan so'ng, respublikada avtomobily ishlab chiqarish sanoatini barpo etishga, mavjud avtotransport vositalaridan samarali va unumli foydalanishga, xorijiy Davlatlardan yuqori darajali ishonchli hossalarga ega avtomobillarni sotib olishga hamda shu soha bo'yicha milliy mutaxassislar tayyorlashga qayta e'tibor berila boshlandi.

Bugungi kunda jaxondagi avtomobillar soni 500 millionga yetdi, 2004 yilga borib bu ko'rsatkich 580 millionni tashkil etishi ko'tilmokda. Buning 189

millioni AQSH ga yana shunchasi Ovrupo mamlakatlariga to'g'ri keladi. Jaxonda ishlab chiqarilayotgan avtomobillarning uchdan birini Ovrupodagi avtomobil zavodlari ishlab chiqarmokda va bu har yili 13-14 mln avtomobil demakdir.

Avtotransport vositalarining holati quyidagicha:

-engil avtomobillar AQSHda –130 mln, Germaniyada-35mln, Yaponiyada-24,4 mln, Frantsiyada-20 mln. Angliyada-18 mln, Kanadada-11 mln. va O'zbekistonda-1 mln. dan ziyod.

-yuk avtomobillari AQSHda-37 mln. Yaponiyada 8,5 mingta, Germaniyada-1,3 mingta, Kanadada- 3,5 mingta, Frantsiyada- 2,9 mingta, O'zbekistonda esa 0,3 mln.

-avtobuslar AQSHda-600mingta, Yaponiyada 230 mingta, Germaniyada-100 mingta, Kanadada 55 mingta, Frantsiyada- 50 mingta, O'zbekistonda esa 200 ming. Angliyada 73 mingta.

O'zbekiston Respublikasi ham o'zining ishlab chiqarayotgan avtomobillari bilan jahon bozoriga xissa qo'shmokda (O'zDEUavto, Samkochavto) yiliga bir necha yuz minglab yengil avtomobillar va avtobuslar ishlab chiqarmokda.

Ushbu rakamlar qatoriga har yili tashiladigan 1 milliard tonnadan ziyod yuklar, 3 miliarddan ziyodrok yo'lovchilarni etiborga olinadigan bo'lsa faqat respublika avtomobilchilari emas, balki barcha ijrochilarimiz mutaxislarimiz oldida ulkan iqtisodiy va boshqaruv muammolari o'z yechimini ko'tib turganini anglash kiyin emas.(Andijontrans ATK larini misol qilish kerak).

CHunki bu ko'rsatkichlarning ikkinchi, uchinchi va keyingi bosqichlarda hal qilinuvchi boshqarish mexanizmlari (maqsadlar, qonunlar, nazariyalar., vazifalar, tamoyillar, andozalar, usullar), boshqaruvchi tizimlar (statikada: boshqarishning tashkiliy tuzilishi-boshqarish organlari, kadrlar boshqaruvi, texnika; harakatda boshqaruv jarayonlari va boshqarish tizimini takomillashtirish), boshqaruvchi obektlarni tabiati, axborot almashish va xokazolar borki, ulardan kelib chiqib, zamonaviy bozor iqtisodiyotidagi ishlab chiqarish munosabatini yaratish, tashkilot va korxonalar iqtisodiyotini o'sishini ta'minlovchi ko'rsatma va tavsiyalar berish tadbirkorlik faoliyatida baho siyosatini o'rnatish oson muammo emas.

Fanimizda avtotransport va texnika xizmati ko'rsatish korxonalari bo'g'inlari jamoasi ishiga bog'lik bo'lgan va bog'lik bo'lmagan texnik, texnologik, tashkiliy, iqtisodiy ko'rsatkichlarni darajasini aniqlash korxonada ichidagi va tashqarisidagi holatlar, korxonada bo'g'inlari orasidagi o'zaro bog'liqliklar, korxonada rahbari va menejerlarining boshqarish yechimini qabul qilishi kabi hodisalar, munosabatlar jarayonlari, tizimlar ob'ekt bo'lib xizmat etsa ularning xususiyatlari bilan bog'lik xolda yechilishi usul nuqtai nazaridan o'rganiladi.

Avtotransport korxonalari menejmenti darsligining usuliga bozor munosabati taraqqiyotidan, jamiyat hodisalaridan, menejment fanidan kelib chiqadigan talablar asos qilib olinadi. Ularga binoan avtotransport korxonalari menejmentining uslublari yaratiladi.

O'rganayotgan fanimiz ikki bo'limdan iborat bo'lib, birinchisida boshqarish jarayonini tashkil etishni umumiy muammosini tahlil qilishga asosiy etibor qaratilgan.

Bo'limda avtotransport va aholi avtomobillariga texnik xizmat ko'rsatish korxonalarida: boshqarishning yuqori bosqichida har xil mulkchilik sharoitida, transport tarmog'ida, texnik xizmat ko'rsatish sohasida boshqarish jarayonini tashkil etishning nazariy asoslari ko'riladi.

Boshqarish jarayonining alohida funksiyalari ko'rib chiqiladi. Bazi holatda bajariladigan ish tartibi tahlil qilinsa u boshqa holatda – sub'ektlar, uchinchi holatda-jarayonlarning mazmuni tahlil qilinadi. Uni boshqarish jarayonining yo'nalishi tavsifi ko'pligini ongli ravishda inobatga olish maqsadida shunday qilinadi.

Ikkinchi bo'lim avtomobil transporti va aholi avtomobillariga texnika xizmati ko'rsatish korxonalari iqtisodiyotni boshqarishga bag'ishlangan. Bunda har qanday korxonada ko'pgina iqtisodiy fanlar ta'sirida bo'lib ularning istiqbolli iqtisodiy qonunlari, nazariyalari, tamoyillari va andozalar asosida rivojlanishi innovatsiya (g'oya)larini amalda joriy qilish lozimligi yoritiladi. CHeklangan resurslardan samarali foydalanish, jarayonlari oqilona tashkil etish boshqarish va muntazam takomillashtirish manbalaridan biri bo'lib qolishi aytiladi. SHu bilan birga, o'rganilayotgan darsligimizda iqtisodiyotni boshqarish, zamonaviy ishlab chiqarish munosabatlari faoliyatini rivojlantirish, korxonada bo'g'inlarida, resurslardan, asosiy

sarmoyalardan tejamli foydalanishga, korxonada iqtisodiyotida texnologik jarayonlarni loyihalash va ularni iqtisodiy baholash, korxonada iqtisodiyotini boshqarishda menejrlarning roli, ijtimoiy guruhlarning faolligi, iqtisodiyotni boshqarish infrostrukturasi ko'rsatilgan.

Korxonada faoliyati elementlarini hisobga olish, iqtisodiy tahlil qilishning ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonini tezkor va strategik boshqarish kabilarni yoritishga e'tibor berilgan.

Fanimizning korxonada menejmentidagi o'zaro aloqalar va umumiy boshqarishdagi muammolarni atroflicha yoritishdan iborat. Har bir korxonada o'ziga xos, o'z maqsad va ahamiyati bor, o'zining masala va muammolarini o'zi yechadi.

2. Faning vazifalari.

Avtomobillarga firma usulida xizmat ko'rsatishni tashkil etish yo'llari, Bularni tashkil etishdagi iqtisodiy muammolari hal qilish bilan bog'lik bo'lgan muhandislik masalalariga muqobilona yondashish asosida tajriba, hisoblash va kompyuter texnologiyasidan foydalanib o'qitish va yetkazishdir.

Tarmokda ish sharoiti bilan bog'lik bo'lgan davlat qonunlari, texnik – texnologik va loyihalash meъyoriy xujjatlar hamda firmalar ish usullari bilan tanishtirish, sistemali tahlilning dasturiy maqsad va oldindan baholash usullarini o'zlashtirish, ishlab chiqarishdagi qarama-qarshiliklar, kamchiliklarni ko'ra bilish, odamlar bilan hamkorlikda ishlashni o'rgatish.

Jamiyatimizning barcha sohasida, tashkilotlarda, korxonalarida insonlar ishlaydi, o'kiydi, maъlum vazifalar bajaradi, ular faoliyatini boshqaradi.

O'zbekiston respublikasida davlat tasarrufida yarim millionga yaqin turli quvvatga ega 2000 dan ziyod korxonalarda faoliyat ko'rsatmokda. (Andijontrans, Agentlik, Viloyatdagi ATK larni misol qilib aytish kerak). Aholi avtomobillari esa bir milliondan ortiq. Bularga texnik xizmat ko'rsatish uchun qator korxonalar mavjud. Transport vositasi xayotimiz va xo'jaligimizning «qon tomiri»ga o'xshatilishi bejiz emas. U yo'l va haydovchilarsiz, ularni taъminlovchi korxonalarsiz samarali,

maqsadga muvofiq ravishda aholiga va xalq xo'jaligiga transport xizmati ko'rsata olmaydi.

Bu tizim muntazam rivojlanishda takomillashishdadir. Demak transport korxonalarining hodim yoki kadrlariga samarali ta'sir etib, oldilariga qo'yilgan maqsadlariga erishtirish korxonalar rahbari (egasi)dan bo'lim va bo'linmalar menejerlaridan har bir bo'g'in ijrochilaridan atroflicha yetuklik har davrning, faslning muhitning haroratini idrok qilgan xolda hozir javobgarlik talab qilinadi. Har xudud, jamoa, jamiyat, tabiat, xattoki har bir individning o'ziga xos qoidalari, tamoyillari, qonunlari, nazariya va bilimlari tinimsiz o'rganib, o'zgarib turadi. SHuning uchun bu yo'nalishda korxonalar maqsadiga erishishi uchun kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish usullari, bajariladigan ish tartiblari fanning predmeti bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Har qanday fan boshqa fanlardan o'z predmeti xususiyatlari bilan farq qilganidek, avtotransport korxonalarida menejment fanining predmetini ikkiga bo'lib qaraymiz:

1. kadr (hodim)lar ruxiyatining predmeti.
2. korxonalar iqtisodiyotining predmeti.

Korxonada ishlayotgan hodimlar ruxiyatining predmeti deyilganda, avvalo, ruxiy xayotning muayyan dalillari nazarda to'tiladi, ruxiy xayotga doir har bir dalil esa ham miqdor ham sifat jihatdan tavsifli xususiyatlarga ega. Insonning idrok qilishi, xotira, tafakkur, iroda, xissiyoti ichki dunyosini, uning ruxiy xayotini tashkil etsa, insonning tevarak atrofdagi narsalar o'zgarib tursa ham idrok qilingan predmetning inson ongidagi obrazi nisbatan o'zgarmay kolaveradi. SHuning uchun ham ruxiy dalillar bilan birgalikda ruxiy qonunlar psixologiyada o'rganiladigan predmet bo'lib yuzaga chiqkan.

Avtotransport va TXK korxonalar iqtisodiyotining predmetiga kelganda shuni aniq ajrata bilish lozimki, har qanday korxonalar – bu umumiy maqsad yo'lida ongli birlashgan insonlar faoliyat ko'rsatadigan guruh. Korxonalar maqsadiga erishsa, demak korxonalar hodimlari yutuqqa erishgan hisoblanadi. Korxonalar maqsadini ishlab chiqarish munosabati orqali amalga oshiradi.

Avtotransport va TXK korxonalari ham fuqarolarning, ham davlatning mulkiga asoslangan. Qo'shma korxonasi uning huquqiy shaxs huquqidan va Mehnat resurslaridan foydalanadigan mutaxassislarining mol-mulkini birlashtirish asosida barpo etiladi. Bajariladigan maqsadlarga ko'ra avtotransport korxonasi avtomobilga xizmat ko'rsatuvchi va avtomobilni ta'mirlovchi korxonalar turiga bo'linadi:

1. Bajariladigan ish turiga karab – yuk, yo'lovchi tashiydigan, aralash, maxsus, shahardagi, shahardan tashkaridagi, shahar atrofi, mahalliy, shaharlararo, xalqaro avtomobil transporti korxonasi.
2. Tavsiya maqsadi va ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatiga karab – umumiy foydalanish ATK va idoralar, vazirliklar, dehqonchilik sanoati birlashmasining korxonasi.

Avtomobillashtirish jarayoni avtomobillar saroyining ko'payishi bilangina chegaralanmay, balki kuchalarning avtomobillarni o'tkaza olishi qobiliyatini oshirish zarurligini, yo'l ko'rilishi va ularning kulayligi, to'xtab turish va saqlash joylarini tashkil etish, avtomobil extiyot kisimlar sotish bo'yicha savdo korxonalari, harakat xavsizligi va atrof muhitni muxofaza qilishni ta'minlash, aholi avtomobillariga TXK korxonalari, omborxonalar, avtomobillarga yonilgi quyish shaxobchalari va boshqa korxonalarni qurish kabilarni qamrab oladi.

Barcha korxonalarining faoliyati maxsulot pul muomilasi asosida ko'rib xizmat ko'rsatish jarayonida va transport maxsulotini harid etishda vositalarning muntazam aylanish qonuniyatiga asoslangan. Lekin har bir turdagi avtomobil transport korxonasi har xil moliyaviy tarkibda bo'lishi mumkin.

Masalan: yuk tashiydigan ATK uchun yuk tashish ishidan, transport-ekspeditsiya jarayonlaridan, yuklash – tushirish va boshqa ish bajarishda davomat olinsa, yengil avtomobil- taksi korxonasining daromadi to'lovli masofaning miqdori, yo'lovchining avtomobilga o'tirish soni, o'rtacha avtomobil-taksini mijoz ixtiyorida turishidan iborat. Korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish obektning ishlab chiqarish va boshqarish tarkibini tanlash va shakillantirishda, tizimning tarkibiy unsurlari orasidagi nisbat va ularning o'zaro tavsifini aniqlashda,

korxonaning ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) jarayonlarini optimallashtirishga hamda zamonaviy texnologik jarayonlar yaratishda o'z ifodasini topadi.

Xulosa qilib aytganda, korxonadagi aqliy va jismoniy kuchlardan, korxonaning asosiy mablag'laridan oqilona foydalanishga qarab korxonaning iqtisodiy faoliyati baholanadi. Iqtisodiy va ishlab chiqarish faoliyatlarining darajasi foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari bilan baholanadi. Bu ko'rsatkichlar esa asosiy predmet hisoblanadi, ularning korxonada faoliyatida joriy etishda ilmiy fikrlash maxsuli bilan jamoa a'zolarining xayotiy muammolaridagi tushunchalaridan farq qila bilish lozim.

Masalan: Bozor deganda, ko'pchilik yig'ilib savdo qilinadigan joy tushuniladi. Ilmiy fikrlash maxsuli sifatida qaralsa bozor-bu pul yordamida ayirboshlash, ya'ni odamlar o'rtasida oldi-sotdi munosabatlarini anglatadi, bu ham ko'p o'rganiladi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Fanni o'rganishdan maqsad nima?
2. Avtotransportni mohiyatini ayting.
3. O'zbekiston Respublikasida avtotransportni rivojlanishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Respublikani jaxon avtomobilsozligida tutgan o'rni.
5. Avtokorxonalarini, texnik xizmat ko'rsatish korxonalarini texnik sohasi qanday boshqariladi?
6. Avtokorxonalar va texnik xizmat ko'rsatish korxonalarini iqtisodiy sohasini boshqarishda nimalarni bilasiz?
7. Boshqarish infrostrukturasini ayting?
8. Tarmokda ish yuritishga bog'lik qaysi davlat qonunlarini bilasiz?
9. Avtotransport tizimidagi hodimlardan, menejerlardan talablar.
10. Avtokorxonalarda menejment fanining predmetlarini aytib bering.
11. Avtotransport korxonalarining turlarini bilasizmi?

Tayanch iboralari.

1. Strategik boshqarish.
2. Qonun, me'yoriy xujjat.

1. Foydalanilgan adabiyotlar.

2. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Ўзбекистон 1997-326 бет.
3. Каримов И. А. Ўзбекистон сиёсий ижтимоий ва иқтисодий истиқболнинг асосий тамойиллари. Т. 1995й.
4. Косимов Г.М. Транспорт корхоналарида менежмент Т.Ўзбекистон, 2001 йил 448 бет.
5. Косимов Г. М. И др. Экономика Ўзбекистана на современном этапе. Ученное пособие Т. Мехнат 1992 г. 125 с.
6. Йўлдошев К., Муфтайдинов К. Иқтисодий билим асослари. Ўқитувчилар учун қўлланма (масъул муҳаррир: А. Сотволдиев) Т. Ўқитувчи 1997 й. 228 б.
7. Глухов В. В. Основы менеджмента. Учебно – справочное пособие. Санкт-Петербург: Специальная литература 1995-327с.
8. Косимов Г. М., Саматов Г. А. Организация и управление в автотранспортных предприятиях учебник Т. 1991-80с.
9. Румянцева З. П. Менеджмент организации. Учебное пособие м. Инфра-м. 1996-432с.
10. Косимов Г. М. Автотранспорт корхоналарида иқтисодий механизмни такомиллаштириш. Т. Ўзбекистон 1989 й.
11. Громов Н. Н., Персианов В. А., Управление на транспорте учебник для вўзов. М. Транспорт 1990-336с.
12. Вихий О. С., Наумов А. И. Менеджмент, человек, стратегия, организация, процесс. Учебник М. Изд-во МГУ 1995-416с.
13. Ўзбекистон Республикасининг автомобиль йўллар комплексини бозор иқтисодиёти шароитида ривожланиши. Республика, илмий-техникавий мақолалар тўплами 16-18 сентябрь.
14. Улмасов А., Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси. Ноиқтисодий ўқув юртларига дарслик Т. Мехнат 1995-432 б.

2-Мавзу: Boshqarish jarayonlarini tashkil etish. Transport va texnika xizmati ko'rsatish korxonalarida menejmentning predmeti va tahlil usuli.

REJA:

1. Transport va texnika xizmati ko'rsatish korxonalarida menejmentning predmeti va tahlil usuli.
2. Korxonona iqtisodiyotini tahlil qilish usullari.

1. Transport va texnika xizmati ko'rsatish korxonalarida menejmentning predmeti va tahlil usuli.

Korxonalar bo'g'inlari va bo'linmalarining ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati natijalari umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarida ifodalanadi.

Bu ko'rsatkichlar darajasi tsex, kism, bo'lim, bo'linmalar jamoasi ishiga bog'lik bo'lgan va bog'lik bo'lmagan bir qancha texnik, texnologik, ijtimoiy, tashkiliy, iqtisodiy omillarning ta'siri bilan belgilanadi; ana shu omillar birinchi navbatda iqtisodiy tahlil predmeti hisoblanadi.

Menejmentning (boshqarishning) hozirgi usullari, ayniqsa bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, iqtisodiy tahlil oldiga ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)dagi sifat o'zgarishlarini o'rganishga va ularning miqdor baholarini aniqlashga qaratilgan vazifalarini qo'yadi va ishlab chiqarishdagi foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash, belgilangan ko'rsatkichlar, topshiriq va me'yorlardan chetga chiqish sabablarini ochish, qoniqarsiz ish olib borayotgan bo'lim va bo'linmalarni sabablarini aniqlash muhim va kerakli hisoblanadi. Iqtisodiy tahlil oldida turgan har qanday vazifa, tsex, qismning ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati o'zaro bir-biri bilan bog'langan texnik iqtisodiy va ishlab chiqarish – texnik ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlari aniqlanadi, dalillar umumlashtirilib, qonun qoidalar darajasiga keltiriladi ya'ni tamoyili aniqlanadi. Iqtisodiy dalillar birinchidan, umumlashtirish uchun axborot xizmatini o'taydi; ikkinchidan, ular nazariyani tekshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Korxonalar iqtisodiyotiga ta'sir etuvchi omillar, manbalar, imkoniyatlar, sharoitlar, voqealar, hodisalar ko'p bo'lgani uchun ulardan asosiylarini ajratishda iqtisodiyotning tahlil usullaridan foydalaniladi.

- Ular:
- abstraktsiyalash usuli
 - deduktiv usul
 - induktiv usul

Dalillarni tartibga keltirish bilan ma'lum tizimga solib xulosaga kelish abstraktsiyalash usulidir. Abstraktsiyalash – bu iqtisodiyotning ilmiy andozasini yaratishdir.

Deduktiv usulida nazariyadan iqtisodiy dalillar tahliliga o'tiladi. Bunda olgan surilgan g'oyalar, xulosalar qaytadan dalillar asosida tekshirilib ko'riladi, umumiy

holatlar, qonunlar va tushunchalardan xususiy va yakka xollarga o'tish bilan aniqlanadi.

Induktiv usulida empirik bilimdan abstraktsiyaga o'tiladi, nazariy xulosalar chiqariladi, sungra ulardan iqtisodiy siyosatga o'tishda foydalaniladi. Bu usulda xususiy xollar umumiy holatlarga o'tish bilan aniqlanadi, ya'ni dastlabki kuzatuvlar va tajribalar umumlashtirilib va ularning natijalari tahlil qilinib umumiy holatlar belgilanadi. Induktiv usul iqtisodiy tahlilga ko'prok mos keladi: Imkoniyatlarni aniqlashda; me'yorlarning chetga chiqish sabablarini yechishda; ayrim bo'lim va bo'linmalarda ishning konikarsiz bajarilishini aniqlashda.

ATK va AATXKKlari bo'lim va bo'linmalarining faoliyatini tahlil etishda, asosan induktiv usul, ya'ni quyi ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish pogonasini tahlil qilishdan boshlanib, yuqori pogonasigacha o'rganiladi.

Ba'zi bir holatlarda farmonlar, qonunlar, bo'yruklarni bajarish uchun korxonalar tizimida ham deduktiv usul qo'llanilishi mumkin, ya'ni yuqoridagi axvollar aniqlanadi, oldinda turgan maqsad va muammoga asosan quyi pogonalar tahlil etiladi va boshqaruv yechimlari qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlilda esa ko'prok korxonada ishlab chiqarish-xo'jalik ko'rsatkichlari atroflicha aniqlanadi.

Masalan; Mehnat unumdorligining o'sishi ishlab chiqarish xajmini ko'paytirishning hal kiluvchi omili hisoblanadi. Uskunalar va jarayonlarning texnik va texnologik parametrlari yaxshilanishi tufayli ishlab chiqarish xajmining ko'payishi o'z navbatida Mehnat unumdorligi darajasiga va ishlab chiqarish xajmiga bog'lik.

Iqtisodiy tahlil qilishda asosiy manba bo'lib tsex va uchastkalar faoliyatining tezkor hisobga olish va hisobot ma'lumotlari xizmat qiladi. Tezkor hisobga olish va hisobot asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini bajarganlik darajasi xaqida kunlik va smenalik bildirgichlardan, ishbay ishchilarning ish me'yori bajarganligi xaqidagi hisobotlaridan va boshqa tezkor xujjatlardan iborat bo'ladi. Yozuvlarning mazmuni va tartibi ishlab chiqarish jarayonining borishiga tezkor aralashish va zarur axborotlarni tsexdan tashqarisiga o'zlashtirish imkoniyatini berishi kerak. Bir qancha xollarda iqtisodiy tahlilning qo'shimcha manbai sifatida korxonaning statistika va buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari jalb qilinadi. Bu ma'lumotlar oylik, chorak,

yarim yillik va yillik bo'lishi mumkin. Bu ko'rsatkichlar tsexlar, uchastkalarining tezkor va yillik rejalarida, xo'jalik hisobi, tijorat hisobi, naryad - byurtmalarida, tsex va uchastkalarining tijorat hisobida, korxonaning yillik rejalarida mavjud.

SHunday qilib, tsexda va uchastkalarda tezkor tahlil qilish jarayoni quyidagi manbalarni tavsiya etish mumkin (1-jadval).

1-jadval.

Korxonalar faoliyatining tezkor tahlil qilish jarayonlari.

ATK va AATXKK-ning tsex va uchastkalarida tezkor tahlil qilish jarayoni.			Kundalik texnik-iktiso-diy me'yorlari
1-bosqich	2-bosqich	3-bosqich	
-Ishlab chiqarish dasturining bajarilishini tahlil qilish	-Rejali xujjatlar	-Dastlabki ma'lumotlar va tezkor hisobga olish ma'lumotlari	-Ishlab chiqarishning bajarilishi va uni tahlil qilish
-Tezkor hisobga olish	-TSex va uchastkalarining kiska vaqt uchun tezkor rejalarini	-Tegishli maxsulotlarga haqiqiy sarflangan resurslar	-Tezkor rejalashtirish ma'lumotlari
-Maxsulot ishlab chiqarish xaqida bildirgi	-Xo'jalik va tijorat xisobotlari byurtmalar	-Byurtmalarga ishlab chiqarish grafiklariga va boshqa xujjatlarga yozilgan Mehnat sarfi	-Resurslar sarflashning rejali solish-tirma me'yorlari
-Tayyor maxsulot topshirish xaqida hisobga olish	-Ishlab chiqarish uskunalardan foydalanishning rejali me'yorlari va me'yornomalari	-TSex va uchastkalarining ichki va tijorat hisobidagi natijalari xaqida tezkor hisobga olish ma'lumotlari	-Maxsulot tannarxining rejali harajat kislari, uskunalarini saqlash va ishlatish bo'yicha harajatlarning smetali va boshqa rejali xujjatlari
-Uskunalarining bekor turib qolishi xaqida ma'lumotlar			-Resurslarni mo'tlok sarflashning maxsulot birligi yoki operatsiya uchun Mehnat sarflashning eng ko'p darajada mumkin bo'lgan aks ettiruvchi kundalik me'yorlari
-Ish topshiriklari			

-Maxsulot sifati xaqida maълumotlar va tezkor hisobga olishning boshqa maълumotlari			
---	--	--	--

Kontsernda ham, avtokorxonada ham ushbu tsex, uchastkada amal qilayotgan moddiy va Mehnat me'yorlarini iqtisodiy tahlil qilish uchun boshlangich baza bo'ladi deb hisoblash mumkin. Unga material, yoqilg'i va energiya sarflash me'yornomalari va me'yorlari, sozlash (ta'mirlash) me'yornomalari, ishlab chiqarish uskunalaridan foydalanish me'yornomalari va xokazolar kiradi.

SHuningdek Mehnat va dam olishning ilmiy jihatdan asoslangan rejaları: smenalikning tungi smenalarda ish vaqtini qisqartiradigan ratsional grafiklarini; dam olishning qancha davom etishi va kay vaqtga belgilashni tulik aniqlashga asoslangan ichki smena rejimlarini; ishchanlik kobiliyatini yuksak darajada saqlash imkoniyatini beradigan ishlab chiqarish gimnastikasi yoki tanaffus, musika singari vositalarni joriy qilish katta iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Takrorlash uchun savollar.

1. Korxonа menejmenti fanining predmeti nimalardan iborat?
2. Korxonа menejmentini nima sababdan chuqur o'rganish zarur?
3. Korxonа iqtisodiyotini tahlil qilish usullarini sanab o'ting.
4. Induktiv usul bilan tezkor tahlil qilishning farqi bormi?
5. Abstraktsiyalash usuli xaqida tushuncha bering?
6. Nazariyadan iqtisodiy dalillar tahliliga o'tish qaday usul?
7. Tijorat hisobi (kommercheskiy raschyot) nima?
8. Moddiy va mexna me'yornomalarini iqtisodiy tahili.
9. Mehnat va dam olishning ilmiy jihatdan asoslangan rejalarini ayting.

Tanch iboralar

1. Iqtisodiy tahlil.
2. Abstraktsiya.
3. Induktiv.

4. Deduktiv.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Ўзбекистон 1997-326 бет.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон сиёсий ижтимоий ва иқтисодий истиқболнинг асосий тамойиллари. Т. 1995й.
3. Косимов Г.М. Транспорт корхоналарида менежмент Т.Ўзбекистон, 2001 йил 448 бет.
4. Косимов Г. М. И др. Экономика Ўзбекистана на современном этапе. Учебное пособие Т. Мехнат 1992 г. 125 с.
5. Йўлдошев К., Муфтайдинов К. Иқтисодий билим асослари. Ўқитувчилар учун қўлланма (масъул муҳаррир: А. Сотволдиев) Т. Ўқитувчи 1997 й. 228 б.
6. Глухов В. В. Основы менеджмента. Учебно – справочное пособие. Санкт-Петербург: Специальная литература 1995-327с.
7. Косимов Г. М., Саматов Г. А. Организация и управление в автотранспортных предприятиях учебник Т. 1991-80с.
8. Румянцева З. П. Менеджмент организации. Учебное пособие м. Инфра-м. 1996-432с.
9. Косимов Г. М. Автотранспорт корхоналарида иқтисодий механизмни такомиллаштириш. Т. Ўзбекистон 1989 й.
10. Громов Н. Н., Персианов В. А., Управление на транспорте учебник для вўзов. М. Транспорт 1990-336с.
11. Вихий О. С., Наумов А. И. Менеджмент, человек, стратегия, организация, процесс. Учебник М. Изд-во МГУ 1995-416с.
12. Ўзбекистон Республикасининг автомобиль йўллар комплексини бозор иқтисодиёти шароитида ривожланиши. Республика, илмий-техникавий маколалар тўплами 16-18 сентябрь.
13. Улмасов А., Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси. Ноиқтисодий укув юртларига дарслик Т. Мехнат 1995-432 б.

3-mavzu. Respublikada texnik tizimlar boshqarish taraqqiyotiga bog'lik xukumat qaror va qonunlari, uning mazmun va vazifalari, tashkil qilish usullari va talablari.

REJA:

1. O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil transporti to'g'risida»gi qonuni. (1998yil 29-avgust)
2. O'zbekiston Respublikasining «SHahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi qonuni. (1997 yil 25-aprel).
3. O'zbekiston avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari Prezidentning 2001 yil 4-iyundagi PF-2871 sonli farmoni va Vazirlar Maxkamasining 2001 yil 5-iyundagi 245-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 11-iyundagi 296-sonli «O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligini tashkil etish to'g'risida»gi qarori.

1. «Avtomobil transporti to'g'risida»gi qonun.

Mazkur qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasida avtomobil transporti faoliyatining huquqiy asoslarini shakillantirishdan iboratdir. Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

-avtomobil transporti tarkibiga yuridik va jismoniy shaxslar kiruvchi, iqtisodiyot va aholining yo'lovchilari, bagaj va yuklarini, shu jumladan pochtani (yo'lovchi, bagaj, yuk) avtomobilda tashishga bo'lgan extiyojlarni ta'minlovchi ishlab chiqarish-texnologiya majmui;

-avtotransport vositalari-yo'lovchilar, bagaj, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan avtomobillar, shatakchi avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar;

-tashuvchi-mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida avtotransport vositasiga ega bo'lgan, tijorat asosida yo'lovchilar, bagaj yuklar tashish xizmatini

ko'rsatadigan hamda bunga maxsus ruxsatnomasi (litsenziyasi) bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

-mijoz (yo'lovchi, yuk oluvchi, yuk junatuvchi)-tuzilgan tashish shartnomasiga muvofik tashuvchining xizmatlaridan foydalanuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

Avtomobil transporti to'g'risidagi qonun xujjatlari ushbu qonundan va boshqa qonun xujjatlaridan iboratdir.

SHahar yo'lovchilarini tashish sohasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining «SHahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi qonun bilan ham tartibga solinadi. Yo'lovchilar, bagaj va yuklar tashish harakat xavfsizligini ta'minlash qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tamonidan tasdiqlanadi. Agar O'zbekiston Respublikasining avtomobil transporti to'g'risidagi qonun xujjatlarida nazarda to'tilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanadi. Qonun 31 ta moddadan iborat bo'lib unda avtomobilda tashish turlari, litsenziyalash, standartlash, davlat qonuniyati mahalliy organlarining asosiy vakolatlari, favkulotda holatlarda avtomobil transportining ishi va xaqazolardan tashkil topgan va Oliy Majlis qarori bilan 1998 yil 29-avgustda tasdiqlangan.

2. «SHahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»-gi qonun.

Ushbu qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasining shaharlarida «SHahar yo'lovchilar transporti to'g'risida» gi qonun asosida ish tashkil qilish va huquqiy asoslarini shakillantirishdan iboratdir.

Qonun Toshkent shaxrida, viloyat va tuman bo'ysunuvidagi shaharlarda shuningdek shaharchalarda shahar yo'lovchilar transporti sub'ektlariga nisbatan tadbiiq etiladi.

- SHahar yo'lovchilar transporti deganda O'zbekiston Respublikasi xududida ruyxatga olingan, shahar doirasida yo'lovchilar hamda bagaj tashishga mo'ljallangan avtomobil va elektr transporti tushuniladi. SHahar yo'lovchilar transporti ommaviy yoki xususiy mulk asosida ishlashi mumkin.

- SHahar yo'lovchilar transporti jumlasiga avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten, yo'nalishli va yo'nalishsiz taksilar kiradi. Avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten va yo'nalishli taksilar belgilangan yo'nalish bo'yicha, harakat jadvaliga muvofik belgilangan tarifdagi xaq evaziga yo'lovchilar tashiydi. Yo'nalishsiz taksilar-yo'lovchilarning talablari asosida taksometr (hisoblagich) ko'rsatishi bo'yicha xaq evaziga tashish xizmatlari ko'rsatadi.
- Qonun 27 ta moddadan iborat bo'lib, idoralarga qarashli yo'lovchilar transporti, yo'lovchi tashish shartnomasi, tashuvchining asosiy vazifalari, shahar yo'lovchilar transportini davlat tamonidan boshqarish, shahar yo'lovchilar tashish transporti faoliyatini litsenziyalash, yo'lovchilarning huquqlari, yo'lovchilarning majburiyatlari va boshqa moddalar. Qonun 1997 yil 25-aprelda Oliy Majlisning qarori bilan tasdiqlangan, 1997 yil 25-apreldagi Prezident farmoni bilan kuchga kirgan.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4-iyundagi PF-2871 sonli farmoni «Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqish va boshqaruvni takomillashtirish to'g'risida».

Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqish jarayonlarini chuqurlashtirish, bozor munosabatlarini shakillantirish va transport xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaratish, avtomobil va daryo transporti boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida ushbu farmon qabul qilindi.

Avtomobil va daryo transporti sohasida boshqaruvni takomillashtirish va monopoliyadan chiqishni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi;

- avtotransportda yo'lovchilar va yuk tashish sohasida bozor munosabatlari va raqobat muhitini yanada rivojlantirish, avtomobil transporti tashkilotlari va korxonalarini keng xususiylashtirish, xususiy avtomobil tashuvchilar uchun teng shart- sharoitlar yaratish;
- avtomobil va daryo transportida yuk va yo'lovchilar tashishni boshqarishning ortiqcha bo'g'inlarini tugatish boshqaruvning bir va ikki bo'g'inli tizimiga o'tish;

- avtomobil transportida boshqarishni markazlashtirishdan chiqarish va avtomobilda yo'lovchilar tashuvchi, yuklarni viloyat ichida tashuvchi, transport-foydalanish va axborot xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini muvofiklashtirish, avtomobilda yo'lovchilar va yuk tashish sohasida kadrlarni kayta tayyorlash funksiyalarini bevosita viloyatlarda va shahar xokimliklari ixtiyoriga berish;
- yo'lovchilar tashish xavfsizligi chora tadbirlarini mustaxkamlash, avtomobilda yo'lovchilar va yuk tashish sohasida iste'molchilarning huquqlari ximoya qilinishining kuchli tizimini yaratish, transport xizmatlari tizimida sugo'rtaning mustakil bozorini rivojlantirish ko'rsatib o'tilgan.

SHu farmon bilan O'zbekiston avtomobil transporti davlat-aksionerlik kontsernlari va birlashmalarni avtomobilda tashuvchilarning xududiy davlat – aksionerlik korporatsiyasini tugatish va tugatilayotgan «O'zavtotrans» tarkibiga kirgan xududiy davlat-aksionerlik kontsernlari va birlashmalarini avtomobilda tashuvchilarning xududiy uyushmalarga aylantirgan xolda ularni viloyatlar va shahar xokimliklari ixtiyoriga berish to'g'risidagi taklifi qabul qilingan. Avtotransport xizmatlariga tarif siyosatini shakillantirish masalalari O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi hamda O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligiga yuklatilgan.

Mazkur farmonni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 2001 yil 5-iyunda 245-sonli qarorini qabul qilgan.

4.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 11-iyundagi 296-sonli qarori.

«O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligini tashkil etish to'g'risida».

1. Umumiy qoidalar.

O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi (keyingi o'rinlarda agentlik deb ataladi) avtomobil va daryo transport sohasidagi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi, avtomobil va daryo transportidan foydalanishda transport qonunchiligiga, xavfsizlik qoidalariga va ekologik talablarga rioya qilinishini tartibga soladi va nazorat qiladi.

- Agentlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda viloyatlardagi bo'limlari joylarda qarorlarga amal qiladi.
- Agentlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasiga hisobot beradi.
- Agentlik o'ziga yuklangan vazifalarni Korakalpogiston Respublikasi vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar xokimliklari, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Davlat solik komitasi bilan o'zaro hamkorlikda hal qiladi.
- Agentlik yuridik shaxs hisoblanadi, tugallangan balansga, bank muassasida hisob-kitob va valyuta schyotlariga ega bo'ladi.
- Agentlik O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan, o'z nomi O'zbekiston Respublikasi davlat tilida yozilgan muxrga ega bo'ladi.

2. Agentlikning asosiy vazifalari.

- avtomobil va daryolarda tashishlarni tashkil etish va ularni takomillashtirish yuzasidan normativ-huquqiy xujjatlarni ishlab chiqish;
- avtomobil transportida litsenziya faoliyatini tashkil etish va uni takomillashtirish;
- harakat xavfsizligini va avtomobil transportida avariylarni qisqartirishni ta'minlash ishlarida katnashish;
- avtomobil va daryo transporti obektlaridan foydalanishda ekologiya normalari va talablariga rioya qilinishini ta'minlash;
- kemalar va so'zib yuruvchi kurilmalarni hisobga olish, tasniflash, ruyxatdan o'tkazish va sertifikatni qilish;
- O'zbekiston Respublikasi avtomobil va daryo transporti manfaatlarini belgilangan tartibda xalqaro tashkilotlarda ifodalash;
- Agentlik vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqa davlatlarning ma'muriyatlari va tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlik qilish;

3. Agentlikni boshqarish.

- Agenlikka O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan tayinlanadigan boshlik boshchilik qiladi.
- Agentlik boshligi Vazirlar Maxkamasi tomonidan tayinlanadigan ikki nafar o'rinbosariga ega bo'ladi.
- Agentlikda tarkibiga Agentlik boshligi (xayat raisi) lavozimlari bo'yicha boshlik o'rinbosarlari, shuningdek, agentlik tizimining boshqa rahbar hodimlari kiruvchi 7 kishidan iborat xay'at tuziladi. Xay'atning shaxsiy tarkibi Vazirlar Maxkamasi tomonidan tasdiqlanadi. (chizma-1)

Takrorlash uchun savollar.

1. O'zbekiston Respublikasining «Avtomobilъ transporti to'g'risida»gi qonuni qachon qabul qilingan?
2. «Avtomobilъ transporti to'g'risida»gi qonuni mohiyatini aytib bering.
3. «Avtomobilъ transporti to'g'risida»gi qonun nechta moddadan iborat?
4. O'zbekiston Respublikasining «SHahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi qonun haqida tushunchangiz.
5. «SHahar yo'lovchilar transporti to'g'risida»gi qonunni, «Avtomobilъ transporti to'g'risida»gi qonundan farqi.
6. O'zbekiston avtomobilъ transporti sohasini monopoliyadan chiqarishning maqsadi.
7. Nega avtomobilъ transporti boshqaruvini takomillashtirish kerak bo'lib koldi?
8. «O'zavtodaryotrans» Respublika agentligini vazifalari.
9. Litsenziya nima?
10. Avtolitsenziya kimlarga beriladi?

Tayanch iboralari.

1. Monopoliya.
2. Litsenziya.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Каримов И. А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка тақдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Ўзбекистон 1997-326 бет.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон сиёсий ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Т. 1995й.
3. Косимов Г.М. Транспорт корхоналарида менежмент Т.Ўзбекистон, 2001 йил 448 бет.
4. Косимов Г. М. И др. Экономика Ўзбекистана на современном этапе. Ученое пособие Т. Мехнат 1992 г. 125 с.
5. Йўлдошев К., Муфтайдинов К. Иқтисодий билим асослари. Ўқитувчилар учун қўлланма (масъул муҳаррир: А. Сотволдиев) Т. Ўқитувчи 1997 й. 228 б.
6. Глухов В. В. Основы менеджмента. Учебно – справочное пособие. Санкт-Петербург: Специальная литература 1995-327с.

7. Косимов Г. М., Саматов Г. А. Организация и управление в автотранспортных предприятиях учебник Т. 1991-80с.
8. Румянцева З. П. Менеджмент организации. Учебное пособие м. Инфра-м. 1996-432с.
9. Косимов Г. М. Автотранспорт корхоналарида иқтисодий механизмни такомиллаштириш. Т. Ўзбекистон 1989 й.
10. Громов Н. Н., Персианов В. А., Управление на транспорте учебник для вўзов. М. Транспорт 1990-336с.
11. Вихий О. С., Наумов А. И. Менеджмент, человек, стратегия, организация, процесс. Учебник М. Изд-во МГУ 1995-416с.
12. Ўзбекистон Республикасининг автомобиль йўллар комплексини бозор иқтисодиёти шароитида ривожланиши. Республика, илмий-техникавий маколалар тўплами 16-18 сентябрь.
13. Улмасов А., Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси. Ноиқтисодий укув юртлирига дарслик Т. Мехнат 1995-432 б.

4- Mavzu. Boshqarishni ta'riflash.

REJA.

1. Boshqarish tarkibi xaqida tushuncha, ishlab chiqarishning markazlashtirilgan sharoitdagi tizimi.
2. Boshqarish jarayonlarining asosiy tizimi.
3. Avtomobil transporti va texnika xizmati ko'rsatish korxonalarida boshqarish jarayonlarining tizimi va majmui tavsifi.

1. Boshqarish tarkibi xaqida tushuncha, ishlab chiqarishning markazlashtirilgan sharoitdagi tizimi.


Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida shakillanayotgan yangi xo'jalik yuritish tizimi zamonaviy menejment sohasida keng va chuqur bilimli mutaxasislarga muxtoj. Ayniksa bunday mutaxasislarga o'ta muxtojlik korxonalar va tashkilotlarda snzilmokda, chunki kiska muddatda ular boshqarish tizimini yaratishlari lozim. Yaratiladigan boshqarish tizimi bozor munosabatida yuqori samaradorlikni, raqobatbardoshlikni va barqaror holatni ta'minlay olsin.

Korxonalar atamasini o'ziga kelganda shuni hisobga olish lozimki, ba'zi bir mamlakatlarda u fakat davlat yoki munitsipal mulkchilikda saklangan. Kolgan yuridik shaxslar tashkilot nomini oldgalar. Ular o'z navbatida tijorat (ularning asosiy maqsadlari katnashuvchilar orasida foydani chiqarib olish va taksimlash bilan bog'lik emas) turlariga bo'lingan.

Bunda, avvalgi boshqarish tizimiga nisbatan, xozirgacha faoliyat kusatayotgan ko'pgina tashkilotlarda, yangi sharoitda zarur bo'lgan, avvallari zarur bo'lmagan, funktsiyalar kelib chiqadi. Bozor iqtisodiyotida tashkilot yoki korxonaning o'zi yechim qabul qiladi. U o'z maqsadlari va masalalarini mustakil shakillantiradi, o'z taraqqiyotining strategiyasi va siyosatini ishlab chiqadi ularni amalda joriy etish uchun zarur izlanishlar olib boradi, hodimlar tanlaydi, uskuna va materiallar sotib oladi, ko'pgina tashkiliy va tarkibiy masalalarni yechadi, shu jumladan barpo qilish, yo'q qilish, kushish yoki ajratish va boshqalar. Kiskasi, tashkilot yoki korxonalar, bozor sharoitida ishlashi

uchun mustakillik belgilariga ega bulmokda. Bu esa boshqarish sohasini va o'zini o'zi boshqarishni sezilarli kengaytirishni talab qiladi, menedjerlarning bajaradigan ishlarining tavsifi murakkablashadi va xajmi ortadi. Yechim qabul qilishning o'z vaqtida bajarilishi va sifati uchun javobgarlik sezilarli darajada usadi. Ishlab chiqarish menejmenti muhit o'zgarishi sharoitida ishlab chiqarishni boshqarish barqarorligini ta'minlashi lozim, shu bilan birga yangi tashkil etish tamoyiliga o'tadi. Korxonalar yoki tashkilot menejmenti-bu atama tashkilotni boshqarishni ifodalaydi. Yuqorida aytib o'tilgan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) uni tashkil etish, texnik xizmat ko'rsatish hamda ishlab chiqarishning strategiyasi, dasturini, ishlab chiqarishni moddiy ta'minlash va tezkor rejimda tashkilot iqtisodiyotini, narx navoning tashkil topishi, ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) da harajatlarni boshqarishdir.

Oliy ukuv yurtlarida menejment yo'nalishida mutaxassis tayyorlashda o'qitib kelingan darsliklardagi korxonaning iqtisodiyoti, uni tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish fanlaridagidan ko'ra korxonani boshqarish tarkibida o'rganiladi. Chunki iqtisodiyot, tashkil etish, ishlab chiqarishni moddiy ta'minlash, maxsulotlarni sotish va shunga o'xshashlar bo'yicha savollar mustakil bo'lim yoki darsliklar qilib shugullaniladi. Menejment bu ishlab chiqarishni boshqarish, ishlab chiqarishning samaradorligi va uning foydaliligini oshirish maqsadida korxonani boshqarish tamoyillari, usullari, vositalari va shakllaridir.



Вазифа
(фаолият тури)



1-chizma «Menejment» tushunchasini aniqlashga yondoshishlar.

Menejment-bu integratsiya jarayoni, jarayonlarning bir jamuljami, sub'ektlari va ob'ektlar o'rtasida tartib va majorasiz munosabatlarning borligi, yaxlitlik, birlik va shu birlikning tashkiliy jihatdan rasmiylashuvi natijasida yangi sifatga erishish, munosabatlar va hamkorlikning yangi shakillari qaror topishi. Soha bo'yicha tayyorlangan mutaxasis menejmen yordamida korxonalarni tashkil toptiradi va ular oldiga maqsadlarni kuya bilish va ularga erishish usullarini ishlab chiqish bilan boshqaradi.

Menejmentning jarayoni rejalashtirish, tashkil etish, muvofiklash, moyillik, nazorat kabi funktsiyalarning bajarilishini nazarda to'tadi. Ulardan foydalana bilga menejer korxonaning tegishli maqsadlariga mos, korxonadagi hodimlargaunumli va samarali Mehnat qilishlariga sharoit yaratadi. SHuning uchun menejmentlik-yana bu korxonada ishlayotgan hodimlarni quyilgan maqsadlariga, Mehnat, akl-idrok, odamlarning moyillik xulkinini yunaltira bilishdir.

Korxonada menejmenti-bu maqsadlarni kuya bilish va joriy etish-degan edi ilmiy menejment asoschisi F. U. Teylor- uni san'at kabi aniq bilish kerak, nima qilish va eng yaxshi va kam harajat bilan bajarish usulidir. Bunday san'atga ma'lum odamlar toifasi-menejerlar ega (soxib) bo'lishlari kerak.

CHunki korxonada maqsadiga erishishi uchun barcha ishlayotgan hodimlar faoliyatini tashkil etish va kuchini yunaltirish menejerning ishidir. Menejment-zamonaviy tashkilotlar (tijoratli yoki notijoratli) o'ziga xos organ. Usiz tashkilot faoliyat ko'rsatishi va samarali ishlashi mumkin emas. SHuning uchun boshqarish apparati har qanday tashkilotning tarkibiy kismidir va korxonada menejmenti tushunchasi bilan birga kushiladi. Apparatda ishlaydigan kishilarning asosiy vazifasi korxonada barcha resurslar (sarmoya, bino, uskunalar, materiallar, Mehnat, axborot, yer, uddaburonlik kobilyatlari)ni uning maqsadlariga erishish uchun samarali foydalanish va muvofiklashdan iborat. XX asrdan boshlab menejment mustakil bilimlar, fan sohasi deb ajratildi ularni yechish uchun u o'z predmetiga, o'ziga xos muammolariga va yondashishlariga ega. Bu darslikning ilmiy asosini boshqarish xaqidagi bilimlar yigindisi, o'zok yillardan buyon tuplangan amaliy tajriba va boshqarishning g'oyalari, nazariyalari, tamoyillari, usullari va shakillari ko'rinishi tashkil etadi.

Menejment fan sifatida o'z ta'sirini Mehnatni boshqarish tabiatini tushuntirishga, sabab va Oqibat orasidagi bog'liklikni aniqlashga, dalillar va sharoitlarni belgilashlarga yunaltiradi, qaysiki Oqibatda odamlarning birgalikdagi Mehnati o'ta foydali va o'ta samarali bulsin.

2. Boshqarish jarayonlarining asosiy tizimi:

Boshqarish tizimining jarayonlari quyidagilardan iborat.

1. Boshqarish mexanizmi-maqsadlar, vazifalar, (funktsiya) nazariyalar, tamoyillar, andozalar, usullar
2. Boshqarishning tuzilishi (statik holatda boshqarish tizimi)-boshqarish organi yoki apparati, hodimlarni boshqarish, texnika.
3. Boshqarish jarayonlari (harakatdagi, ishlab turgandagi boshqarish tizimi).
4. Boshqarish tizimini takomillashtirish (ishlab turgan tizimning davomi va harakatdagisining alohida bosqichi).

Agar mexanizm boshqarish tizimining asosi deb tavsiflansa, tuzilishi-bu tizimning unsurlar tarkibi va ular o'rtasidagi munosabatdir, boshqarish jarayoning o'zi bu tizimning muayyan xayotini tavsiflaydi. Har qanday muayyan ishlab turgan, boshqarish jarayoni tula va keng boshqarish tizimini ifodalaydi. SHu bilan bir vaqtda bu tahlil qilish uchun boshqarish tizimining o'ta murakkab kismidir.

Boshqarish jarayonlarida andozalash o'ta keng qo'llaniladi. SHular qatori eksperiment usuli ham qo'llaniladi.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohatlar jaxon iqtisodiyoti bilan integratsiya qilishga imkon beradi va u o'zining munosib o'rnini egallash uchun ikkita muhim sharoitga rioya qilishi;

-birinchidan, islohatlar asosiga, jaxon iqtisodiy uyushmasida xukumronlik qilayotgan, tamoyillar va mexanizmlar holati kiritilishi;

-ikkinchidan, islohatlarni o'tkazayotganda avvalgi taraqqiyotning xususiyatlari va mamlakatdagi xozirgi iqtisodiyot holati, aholining xulkiy tavsifi, milliy iqtisodiyoti, tub o'zgarish davrining davom etishi va boshqa omil va sharoitlar, mamlakatning tarakkiy topishi hisobga olinishi lozim.

Ko'rinib turibdiki, boshqarish jarayoni, boshqarish tizimining boshqa katnashchilariga karaganda usha ijodiy tavsifga ega. Bunday san'at elementlari ko'p.

Boshqarish jarayonini tahlil qilish uchun kibernetikada kashf etilgan qonuniyatlarni aniqlash alohida ahamiyatga ega.


3.Avtomobil transporti va texnika xizmati ko'rsatish korxonalarida boshqarish jarayonlarining tizimli va majmui tavsifi.

Korxonada menejmentning asosiy belgilari boshqarish jarayonida o'ta tulik amalga oshiriladi, yani korxonada menejment funktsiyalarining boshqarilishidagi muammolarini tizimli va majmui yondashish yo'li bilan yechishda tavsiflanadi. Menejment yangi-yangi bilimlar bilan tuldirilishda davom etmokda.

-Menejmentcha qarashlarning zamonaviy tizimlarini qo'llash:

Korxonaning ichki muhitiga boshqarishning ta'sirini o'tkazish va doimiy o'zgarib turuvchi tashki muhitga moslashuv muammosi. Tashkilotning asosiy o'zgaruvchan ichki muhitiga tashkiliy tuzilishi, odamlar, resurslar, texnologiya, maqsadlar, sotsiotexnik yo'llar va boshqalar kiradi. Tashkilot faoliyati bilan bog'lik bo'lgan Mehnat resurslarining maqsadlari va masalalari tashki muhitga bog'lik.

Masalan: materiallar, Mehnat resurslari, mablaglarni ta'minlovchilar (etkazib beruvchilar), iste'molchilar (harid kiluvchi, sotib oluvchi, haridor), xissadorlar, karz beruvchilar, raqobatchilar, kasaba uyushmalari, savdo tashkilotlari, iste'molchilar jamiyati, davlat (qonun) organi mahalliy organlar va boshqa korxonalarining ichki faoliyatiga to'g'ri ta'sir o'tkazadilar. Iqtisodiyot, siyosat, huquq, ijtimoiy-madaniy omillar, texnologiya, fizik-geografik sharoitlar va boshqalar korxonaning ichki muhitiga tashkaridan bilvosita ta'sir o'tkazadi (2-chizma).



2-chizma Tashkilotning ichki va tashki muhitiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va o'zgarishlar.

Menejment muhitini tashkil etuvchi jamiyat munosabatining barcha tizimidagi murakkablashuv tufayli tashki muhit omillarining ta'sir ko'rsatish kuchi keskin oshadi. Aynan tashki kamrov tashkilotning strategiya va taktikasiga hal kiluvchi kuchdir.

Boshqarish jarayonida tizim nazariyasini qo'llash korxonada yoki tashkilotni o'z kisimlaridan tashkil topgan ko'rinishda (birgalikda) o'rganish masalasini yengillashtiradi. Qaysiki u tashki muhit bilan ajralmasdir.

Korxonada yoki tashkilotning ichki muhiti ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishga ta'sir ko'rsatuvchi o'zgarishlardan tashkil topadi. Bu korxonada tuzilishi, uning madaniyati va ne'mati, odamlari va ularning bilimlari, kobilyatlari va o'zaro ta'sir etish san'ati. SHunga karamasdan, Bular har doim ham menejmentning to'g'ri nazorati ostida bo'lavermaydi, chunki tashkilot o'z faoliyatida tashkaridan keladigan energiya, axborot va boshqa resurslarga bog'lik.

Menejmentda holatbay yondashishni qo'llash bu korxonada ishiga aynan faoliyat ko'rsatib turgan vaqtida hal kiluvchi muayyan holatlarni tanlashdir. SHundan kelib chiqib, usullarning o'ziga xos muhimligi kelib chiqadi, ular yordamida maqsadga samarali erishishi mumkinligi tanlab olinadi.

Menejment ijtimoiy mas'uliyatining tan olinishi korxonada ishlayotgan har bir hodim oldiga, butun bir jamiyat oldiga muhim vazifa kuydi. SHu bois mamlakatimizda milliy madaniyat va iqtisodiyotga, tarixiy kadriyatlarga yetarli e'tibor berilmokda, milliy davlatchilik asoslari rivojlanmokda. Jaxondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasiga e'tibor berilsa (Buyuk Britaniyada monarxiya boshqaruv tizimi saklanib kolinganini eslash kifoya), milliy davlatchilik an'analaridan meros tarzida saklanib kolinganligi misol bo'lishi mumkin. Biz ham milliy davlatchilik an'analarini xayotga (boshqarishga) joriy etish bilan ijtimoiy mas'uliyatni oshirishimiz mumkin.

Bizda kadimdan jamiyatning turli bosqichlarida o'z-o'zini boshqarish instito'tlari (an'analari) davom etib kelgan, jamoa rahbarlari, xokimlar, amirlar va oksakollarni, keyinchalik kozilarni saylash tartibi joriy qilingan. SHark mo'tafakkirlari davlat va jamiyat, podsho va raiyat xaqida yozganlarida insonning ma'naviy yetukligi, pokligiga asosiy e'tiborni qaratib, adolat, rostlik, mexr-shafkat, saxovat va kanoat kabi sifatlarni ximoya qilganlar. Soxibkiron Amir Temur o'z-o'ziga «rostlik-saodatdir», deb bejiz yozib kuymagan edi. Ayniksa Amir Temur davrida va undan keyingi yillarda SHarkda demokratik boshqarish xususiyatlarimavjud bo'lib kelgani, o'z-o'zini boshqarishning shakllari amal qilgani tarixiy manbalardan ma'lum.

Gap korxonani boshqarish jarayonlarining tizimi xaqida borar ekan, ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ning umumtexnologik va iqtisodiy asoslarida turli ijtimoiy – iqtisodiy tizimlar paydo bo'ladi, ular o'rin almashib turadi. Har bir tizim ma'lum davrda amal qilib, o'z imkoniyatlarini tugallagach, uning o'rniga yangi tizim paydo bo'ladi, u ham eskirib o'z o'rnini boshqasiga bushatib beradi. Tizim-bu jamiyatning sotsial iqtisodiy tuzilishi, uni tashkil etuvchi, bir-birini takazo etuvchi, o'zaro ta'sir o'tkazuvchi unsurlarning (elementlarning) majmui bo'lib, bunda unsurlar birgalikda amal qiladi, natijada ayrim unsurlarga xos bo'lmagan umumiy xususiyatlar paydo bo'ladi. Tizim - bu har xil unsurlar ta'sirida paydo bo'ladigan umumiylikdir. Ukuv jarayonida o'rganiladigan boshqarish xaqidagi bilimlar muayyan vokea va xodisalarni ifodalasa, shundagina menejerlar amalda qo'llashlari mumkin. Korxonalarda ko'prok tizim iqtisodiy kategoriyaga yakin. Korxonalarda ko'prok tizim iqtisodiy kategoriyaga yakin. Korxonalarda ishlab chiqaruvchi Mehnat resurslari va ishlab chiqarish munosabatlari va tavsifini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik va tabiy omillar ta'sirida tashkil topadigan, serunum ixtisos bo'yicha texnika va texnolgiyani ishlab chiqarish kabilar tizim deb anglanadi.

Korxonada menejmenti, uning hamma unsur (element) lari optimal nisbatda bo'lsagina, majmui ravishda o'rganilsa va boshqarilsa samarali bo'ladi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Korxonani boshqarish bilan korxonaning menejmenti tafovoti nima?
2. Nima uchun menejment menejer bilan, yana boshqarish organi bilan tenglashtiriladi?
3. Boshqarish jarayonlarini nima sababdan integratsiya qilish lozim?
4. Korxonaning muhitga ta'sir ko'rsatuvchi omillarini nima uchun o'rganish kerak?
5. Boshqarish tizimi deganda nimalar tushuniladi?
6. Menejment tushunchasini aniqlash (1-chizma).
7. Boshqarish tizimining mexanizmi nimalardan iborat?
8. Menejmentga qarashli zamonaviy tizimlar qanday qo'llaniladi?
9. Boshqarish jarayonida tizim nazariyasini qo'llashni tushuntiring.
10. Menejmentda ijtimoiy mas'uliyat qanday bo'ladi?

Tayanch iboralari.

1. Integratsiya.
2. Andoza.
3. Yuridik shaxs.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тақдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Ўзбекистон 1997-326 бет.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон сиёсий ижтимоий ва иқтисодий истиқболнинг асосий тамойиллари. Т. 1995й.
3. Косимов Г.М. Транспорт корхоналарида менежмент Т.Ўзбекистон, 2001 йил 448 бет.
4. Косимов Г. М. И др. Экономика Ўзбекистана на современном этапе. Учебное пособие Т. Мехнат 1992 г. 125 с.
5. Йўлдошев К., Муфтайдинов К. Иқтисодий билим асослари. Ўқитувчилар учун қўлланма (масъул муҳаррир: А. Сотволдиев) Т. Ўқитувчи 1997 й. 228 б.
6. Глухов В. В. Основы менеджмента. Учебно – справочное пособие. Санкт-Петербург: Специальная литература 1995-327с.
7. Косимов Г. М., Саматов Г. А. Организация и управление в автотранспортных предприятиях учебник Т. 1991-80с.
8. Румянцева З. П. Менеджмент организации. Учебное пособие м. Инфра-м. 1996-432с.
9. Косимов Г. М. Автотранспорт корхоналарида иқтисодий механизмни такомиллаштириш. Т. Ўзбекистон 1989 й.
10. Громов Н. Н., Персианов В. А., Управление на транспорте учебник для вузов. М. Транспорт 1990-336с.
11. Вихий О. С., Наумов А. И. Менеджмент, человек, стратегия, организация, процесс. Учебник М. Изд-во МГУ 1995-416с.
12. Ўзбекистон Республикасининг автомобиль йўллар комплексини бозор иқтисодиёти шароитида ривожланиши. Республика, илмий-техникавий маколалар тўплами 16-18 сентябрь.
13. Улмасов А., Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси. Ноиқтисодий укув юртлирига дарслик Т. Мехнат 1995-432 б.

**5-Mavzu: Boshqarish jarayonlarini tashkil etish xususiyatlari,
oliy bosqichda boshqarish jarayonlarini tashkil etish.**

REJA.

1. Turli mulkchilik sharoitida boshqarish jarayonlarining o'zaro ti'siri.
2. Transport sohasida boshqarish jarayonlarini tashkil etish.
3. Avtomobil transportida boshqarish jarayonini tashkil etish.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi ilmiy xulosalarga asoslangan. «Respublikaning bozor munosabatlariga o'tishda o'z yo'lidan izchillik bilan borishi demokratik o'zgarishlar, respublikani rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqish, uni xalqaro ob'ektiv zaruriy mustaxkamlash uchun puxta moddiy negiz yaratadi». (I.A.Karimov.O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. «O'zbekiston» 1998 y 8-bet).

O'zbekiston o'z yo'lidan bora turib, bir qator muammolarni hal etmoqda. Masalan, ishbiarmonlik va tadbirkorlik, turli mulkchilik va iqtisodiy erkinlik ta'minlanmokda, ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ning zamonaviy milliy manfaatga xos bo'lgan tashkiliy tuzilishlar yaratilmokda, xalqaro iqtisodiy munosabatlar kengaymokda. Xozirgi yuksak rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti bu tabiatan aralash iqtisodiyot tizimidadir. U mukammal texnika va yuksak texnologiyaga asoslanadi, kul Mehnatiga o'rin kolmaydi, g'oyat unumli mashinalar ishlatiladi, natijada, yuksak darajadagi Mehnat unumi va shunga ko'ra moddiy tukinlik ta'minlanadi. Aralash iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiy ravnak uchun xalq xo'jaligi (oliy) bo'g'ini (bosqichi)da ish kuchini bir sohadan ikkinchisiga, uchinchisiga va boshqa sohalarga kuchib borishi zaruratga aylanadi, eng muhimi ish kuchi, albatta, ish xaqi yuqori soha tomon harakat qiladi. Aralash iqtisodiyotda asosan uch xil mulk mavjud: davlat, xususiy va jamoa mulki. Korxonalar asosan xususiy va jamoa mulkidan tashkil topadi. Aralash bozor iqtisodiyoti bizning mamlakatimiz uchun ob'ektiv zaruriy jarayondir. O'zbekiston Respublikasi adolatli demokratik

huquqiy davlat kurishni o'zining eng birlamchi va muhim vazifalaridan biri sifatida belgiladi. Davlat qabul qilayotgan qonun loyihalar umumxalq muxokamasidan o'tkazilmokda. Respublika Prezidenti ham bevosita saylovchilar tomonidan saylanadi. Mamlakatimizdagi boshqa davlat boshqaruv organlari, jumladan, xukumat, sud organlari, vazirlar va boshqalar respublika Prezidenti yoki Oliy Majlis tomonidan tayinlanishi yoki saylanishi tartibini inobatga olsak O'zbekiston xalqi barcha davlat organlari va mansabdor shaxslarni saylash va tayinlashda bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi.

Respublika iqtisodiyotini oliy bosqichida boshqarish jarayoni yetakchi, hal qiluvchi bo'g'in, O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Maxkamasi-mamlakatimizning oliy boshqaruv organidir. Uning koshidagi tarmok idoralari, kumitalar, bosh boshqarmalar, vazirliklardan o'z faoliyatining miqiyosi bilan farq qiladi va bu xol ularning huquqiy nizomlarida aks etgan bo'ladi. Boshqarish amaliyotida tarmoklararo tavsifdagi zarurat, ya'ni turli tarmoklar uchun umumiy bo'lgan bir qancha maxsus vazifalarni amalga oshirish zaruryati kelib chiqadi. Tarmoklararo tavsifga ega bo'lgan maxsus masalalar bo'yicha bunday muvofiklashtirish rahbarlikni maxsus kompetentsiyaga ega bo'lgan organlar amalga oshiradi. Masalan, bu organlarga davlat makroiqtisodiyot kumitasi va boshqa Vazirlar Maxkamasi koshidagi kumitalar kiradi. Davlat komitalari-vazirlik va idoralarning faoliyatini tartibga solish, nazorat qilish va muvofiklashtirish yo'li bilan xo'jalik va ijtimoiy-madaniy kurilishga rahbarlik qilishga mo'ljallangan oliy boshqaruv organlaridir. Kumitalar o'zlariga bo'ysunuvchi tashkilotlarni tezkor suratda boshqarib turadi. Mikroiqtisodiyot davlat kumitasi, Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish bo'yicha kumita va tarmok kompetentsiyasiga ega bo'lgan bir qancha tarmok vazirliklari bunyod etildi, moliya-kredit tizimi boshqarish uchun Davlat banki ixtisoslashgan banklar (sanoat iqtisod bank, jamgarma bank va xokazolar) faoliyatini muvofiklashtiradi, resurslarni tashkil toptirish manbalari va foydalanish yo'nalishlari bo'yicha aniq ajratib turadi.

Respublika moliya tizimini mustaxkamlash muammosi asosan har bir korxonalar, tashkilot, firmalar, tarmoklar, sohalarning ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) iga

bog'lik. Ishlab chiqarish samaradorligining oshishi, Mehnat unumdorligining o'sishi, maxsulot tannarxining pasayishi moliya tizimining rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Moliya o'z funksiyalarini aniq moliyaviy vositalar orkali bajaradi, harajatlar, amortizatsiya, foyda, aktsiya kursi, dividend, soliklar, tulovlar, boj xaqi, sugo'rta xaqi, subsidiya, dotatsiya, kompensatsiya kabilar menejment (moliya menejmenti)ga xizmat qiladi. Mazkur fondlar orkali moliya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir etadi. Makroresurslar (moliyaviy) umumdavlat miqyosida tashkil topadi va umumiy iqtisodiy, umumdavlat ehtiyojlarga xizmat kilsa, mikroresurslar korxonalar, firma, kompaniya, kontsern, tashkilot, jamoa uyushmalari doirasida xizmat qiladi. Qaysi bir sub'ekt moliyaviy baxuvvat bo'lsa, u raqobatga chidamli bo'ladi.

Davlat tomonidan respublika iqtisodiyotini boshqarish jarayonlarini tashkil etish uning muhim funksiyasidir. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish deganda davlatning o'z chora tadbirlari, o'zining iqtisodiy siyosati orkali takror ishlab chiqarishga ta'sir etishi tushuniladi. Davlat tomonidan iqtisodiyotning tartibga solinishida qonun chiqarish, solik solish, kreditga ta'sir etish moliya vosita (subsidiya)lari berishdan foydalanadi. Sobik sotsialistik mamlakatlardagi monoiqtisodiyot (ya'ni, yakka mulkka tayangan iqtisodiyot) bir markazdan turib davlat orkali urnatilgan rejali aloqalarga asoslangan xolda boshqarilgan. O'zbekiston poliiqtisodiyotga o'tish jarayonini boshlagan. Turli tuman mulk shakillariga tayangan, ayrim shaklining ustuvorligini inkor etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy tizim poliiqtisodiyot deyiladi. Poliiqtisodiyot mazmunan aralash iqtisodiyotdir.

1. Jamiyat ehtiyojining kondirilishi yuqori bo'lsa, tularok kondirilsa iqtisodiy saloxiyat samarali foydalanilgan bo'ladi. Buning uchun uning elementlari (Mehnat, ilm-ma'rifat, texnika-texnologiya, tabiiy resurslar) jadal foydalanilgandagina saloxiyat ehtiyojga tula xizmat qiladi. Iqtisodiy saloxiyatning elementlari birgalikda harakat qilishsa, bir-biridagi yetishmovchilikni tuldira olsa, jamiyatning ishlab chiqara bilish (xizmat ko'rsata olish) kobilyati yuqori hisoblanadi. Xozirgi insoniyat tajribasi ko'rsatganidek, iqtisodiy saloxiyatning o'sishini va samarali ishlashini ta'minlovchi kuch-bu erkin bozor mexanizmidir. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida boshqarish jarayoni, respublikamizning oliy bosqichda tarmoklararo boshqarish

organlari bir-biriga munosabati erkin bozor mexanizmiga asoslanmokka. Bunday sharoitda boshqarish organlarining muammolari paydo bo'lsa, ularni yechish O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Maxkamasi, makroiqtisodiyot komitasi, Davlat fan va texnika kumitasi va boshqa vazirliklar, korporatsiyalar, kontsernlar, assotsiatsiyalar va shu kabilarning bir-biriga ta'siri orkali ijobiy hal etilmokka. Jarayonning navbatdagi tashkiliy tavsifining muammosi –uni vertikal va gorizontal bo'ylab amalga oshirishidir. Korxonalar, ilmiy-tadkikot, konstruktorlik, loyihalash-konstruktorlik, texnologik tashkilotlar va boshqa muassasa, firmalardan tashkil topuvchi yagona ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) majmui gorizantaliga bir biri bilan o'zaro aloqada bo'ladilar. Har bir ayrim korxonalar (tashkilot, firma) yuqori boshqaruv organlari tomonidan (vertikal) gina emas, balki yana korxonaning o'zidagi boshqaruvchi kichiq tizim tomonidan ham boshqariladi. Menejment-bu boshqarish san'ati va maxoratidir. U o'ta murakkab va mas'uliyatli ish bo'lganidan, uni boshqarish uchun maxsus bilim, maxorat va tajribani talab kiluvchi kasbga aylanadi. Bir tizimdan ikkinchisiga o'tish sekin-asta yuz berishi qonuniy bo'lganidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish ham ma'lum davrni talab qiladi. O'tish davrida bozor infrostrukturasi yaratiladi, bozor iqtisodini ta'minlovchi qonun xujjatlari qabul qilinadi, turli savdo uylari, vositachi firmalar, xususiy korxonalar, aksioner jamiyatlar, konsortsiumlar, kushma korxonalar, mayda ishlab chiqaruvchilar uyushmalari yaratiladi. Bu davrda davlat mulkini xususiylashtirish, uni aksionerlash boshlanadi va boshlandi, narx-navo va soliklar isloxoti tayyorlanadi, xususiy soxibkorlik, chet el investitsiyasining tartib-qoidalari ishlab chiqiladi va chiqilmokka. O'tish davrida iqtisodiyotga oid qonunlar majmuasi qabul qilinadi, aholini ijtimoiy ximoyalash aniq yo'llari topiladi va iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga oid bitimlar tuziladi va tuzilmokka. O'tish davrida bank tizimini islox qilish choralari davlat harajatlarini tartibga solish dasturlari, shuningdek kompleks tarzda inflyatsiyaga karshi tadbirlar ishlab chiqildi.

O'zbekistonnig bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturi ishlab chiqilgan va unda quyidagilarga e'tibor berilgan:

- bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlovchi chora – tadbirlar majmuasi;

- bozor iqtisodiyotiga o'tish xalq hisobidan emas, balki davlat hisobidan bo'ladi;
- bozor iqtisodiyoti fukarolarning iqtisodiy jihatidan o'z takdirini o'zi belgilashiga asoslanadi, ularga iqtisodiy faoliyat uchun erkinlik berishga tayanadi;
- bozor iqtisodiyotiga xur jumxuriyat iqtisodiy mustakilligini tula ta'minlagan xolda o'tilishi kerak.


Dasturda mol-mulkni davlatdan olib xalqqa berish, shu maqsadda xususiylashtirish, har bir kishining mulkka bo'lgan huquqini amalga oshirish, ya'ni davlat korxonalari, davlatga tegishli uy-joylarni fukarolarga sotish, mayda va xususiy soxibkorlikka yo'l ochish, bu bilan iqtisodiy tashabbus, ishbilarmonlikni yuzaga chiqarish, raqobatga ruxsat berish nazarda to'tilgan. O'z ixtiyori bilan u soxibkor, yollanma ishchi, aksioner, yakka dexkon, dukonchi, yakka tartibda ishlovchi bo'lishi, chet elda ishlashi yoki ukishi mumkin. Unga ko'ra iqtisodiyotni unglash uchun eng avvalo pulni soglomlashtirish, uning harid kobiliyatini ta'minlash zarur. SHu maqsadda davlat mol-mulkini aholiga sotish, pullik xizmatlarni ko'paytirish, pul krediti-bank beradigan foyizlarni keskin oshirish, xususiy soxibkorlik va import hisobidan tovarlarni ko'paytirish, valyutani O'zbekiston milliy puliga sotishni joriy etish orkali mamlakatdagi pul miqdori bilan tovarlar miqdorini, tovarlarga talab va taklifni muvozanatlashtirish mo'ljallangan.


Davlat korxonasini aksionerlash korxonada mol-mulkini inventarizatsiyalash, kaytadan hisob-kitob qilib chiqishdan boshlanadi. Korxonaning asosiy fondlari va oborot mablaglari miqdori aniqlanib, shu miqdorga teng yigindida aktsiya chiqariladi. Aktsiya eng avval korxonada ishlovchi ishchi va xizmatchilar, sungra boshqa korxonada, tashkilotlar, xatto banklar va nixoyat, korxonaga aloqasi bo'lmagan fukarolar sotib oladilar. Davlat korxonasini aksionerlash orkali mol-mulk davlat ixtiyoridan olinib, jamoaga beriladi, u xalq kuliga tegadi, xalqning mulkdan begonalashuviga chek quyiladi. Aktsionerlashgan korxonada o'zini o'zi boshqaradi, erkin, mustakil tovar ishlab chiqaruvchiga aylanadi, uning davlat muomilasi solik tulashdan iborat bo'ladi. Bozorni holatini o'rganish va oldindan baholash bilan tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish hamda shu yusinda yaxshi tadbir






topishni uyushtirish uchun korxonalarda marketing bo'limlari tashkil etilmokda. Bozor iqtisodiyotining muhim unsuridan (elementidan) biri marketing. Marketing ishi maxsus marketing dasturlari orkali amalga oshiriladi, ularga haridorlarni va raqobatchilarni o'rganish asosida tovarlar sifatini yaxshilash, tovar narxini o'zgartirish, tovarga talab topish, tovarlarni o'z vaqtida yetkazib turish, haridorlarga mak'ul tushadigan xizmat ko'rsatish kabi chora-tadbirlar nazarda to'tiladi.

2. Yuk yoki yo'lovchining geografik holatini transport o'zgartiradi.

Uning turlari (avtomobillar, lokomativlar, vagonlar, samolyotlar, dengiz va daryo transporti) o'z sohasida o'ziga xos boshqarish tizimiga ega. Bu tizimda binolar, ko'priklar, tunellar, inshootlar, har xil turdagi transport vositalari, yuklash-tushirish mashina va mexanizmlarni, materiallar, yonilgi va elektr energiya, transport vositalari va boshqa uskunalarni ishlab chiqarish va ta'mirlash bo'yicha sanoat korxonalari, transportlarni texnik tayyor holatini ta'minlovchilar kiradi. Ammo bu moddiy elementlar «ishlab chiqaruvchilar» emas. Ularni harakatga keltirish uchun va o'ziga xos transport maxsulotini olish uchun odamning jismoniy kuchi va bilimi zarur. Transport, uning yirik sohalari va alohida korxonalari, boshqa ishlab chiqarish tarmoklari kabi ikki tizimdan (aniqrog'i kichiq tizimdan) tuzilishi mumkin: boshqaruvchi va boshqariluvchi (3-chizma). Birinchisi yiriklashtirilgan «boshqarish funktsiyasi»ni amalga oshiradi, ikkinchisi-«texnologik funktsiya»ni yoki transport ishlab chiqarish jarayonini. Ikkinchisida aniq ko'rinib turibdiki: tashish bilan bog'lik bo'lgan texnika va texnologiya keltirilgan. Mamlakatimizda davlat tasarrufidagi transport sohasi respublika Vazirlar Maxkamasi va uning organlari tomonidan boshqarilmokda. Transportni boshqarishda zarur-me'yoriy-ma'lumot axborotlari yo'q sharoitda transport to'rini yoki tashish usulini tanlash va undagi iqtisodiy dalillashni bajarish mushkul ish. Bunday xollarda boshqarish masalalarini yechish, muayyan har bir transport to'rining texnik-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofik.





-  --- Boshqaruvchi kichiq tizim
-  --- Boshqariluvchi kichiq tizim
-  --- Keng ma'noda tashki muhit muayyan ijtimoiy jamiyat bazis va ustkurma (siyosat, mafkura, huquq va shu)
-  --- tor ma'noda tashki muhit yuqori tashkilotlar buyurtmasi
-  --- transport xududni tarmoklararo majmuyiy tizim

3-chizma. Transport sohasida boshqarish jarayonlarining sxemasi.

Transport sohasida boshqarish jarayonini tashkil etish masalalari har bir transport va tashish tizimi kulamida alohida kurib chiqiladi, transportni boshqarish bir martali, ajratib olingan, biror ayrim harakat bo'lmay, balki murakkab birlashgan jarayondir. Transportda, boshqa moddiy ishlab chiqarish sohasidagi kabi, boshqarish jarayoni nisbatan bir qator mustakil, ammo bir-biriga bog'lik funktsiyalardir

(tashishni rejalashtirish, tashish jarayonini tezkor boshqarish va jarayonning borishini o'zgartirish, transport, jarayonini texnik va texnologik tayyorlash, harakat xavfsizligini ta'minlash, hodimlarni tanlash, o'rgatish, tarbiyalash va joy-joyiga quyish, ishlab chiqarishda moddiy-texnika ta'minotini tashkil etish, moliya faoliyatini tashkil etish, buxgalterli hisobni tashkil etish, auditni o'tkazish, iqtisodiy tahlil qilish, transport ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish). Bu funktsiyalar barcha transport turlari uchun taaluqli, ammo korxonalar, ularning bo'lim va bo'linmalarining xususiyatidan kelib chiqib, o'ziga mos bo'lishi mumkin.

3. Avtomobil transportida boshqarish jarayonini tashkil etish.

Yuqorida aytib o'tilganidek O'zbekiston Respublikasida har yili avtomobil transportida karyib 1 milliard tonna xalq xo'jalik yuklarini, 3 milliardga yaqin yo'lovchilarni tashib manzilga yetkazilmokda. Bulardan tashkari, 1 milliardga yaqin aholi avtomobillardan ma'lum darajada foydalanadi. Bu rakamlar ortida bir qator murakkab iqtisodiy, ijtimoiy, texnik, texnologik va boshqaruv muammolari yotibdi. Boshqaruv nuqtai nazardan karaganda, bu avtomobillarni 0,5 millionga yakini davlat tasarrufida, shundan kishlok xo'jaligida 120 mingta, suv xo'jaligida 70 mingta, «O'zavtotrans» korporatsiyasida 60 mingta, matlubot jamiyatida 20 mingta kurilishda 12 mingtadan ziyod har xil turdagi yuk avtomobillarini tashkil qiladi. O'zbekistonda avtomobil transportini ishlab chiqarish yildan yilga o'sib borishini hisobga olinsa, respublika transportlari oldidagi muammolarni anglash kiyin emas: atrof muhitni muxofaza qilish, energiya iste'molini tejash, avtomobil saroylari, yonilgi saqlash joyi, hodimlar, avtomobil yo'llarining transportni o'tkaza olish, harakat xavfsizligi va shu kabilar bilan ta'minlash. Yuk tashish (davlatlararo va shaharlararo yuk tashishni amalga oshiruvchi korxonalar va avtojamlanma bundan istisno) avtomobil transporti korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tarmok rejasiga kiritilgan.

Yo'lovchi tashish atotransport korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirilishi lozim bo'lgan inshoot va korxonalar toifasiga kiradi. Xozirgi kunda yo'lovchi tashish avtokorxonalarini zarar bilan ishlayotgani uchun moliya vazirligi byudjet tankisligi sababli fakat zararni koplash uchun mablag ajratadi

(Toshkentshaharyo'lovchitransga), lekin iqtisodiy ragbatlantirish jamgarmalarini shakllantirish uchun mablag ajratilmaydi.

O'zbekiston avtomobillari uchun mukobil variantlar:

Yuk avtomobillari.

-ishlab turgan korxonalarining, ustaxonalari, tibbiy xizmat bo'limi va boshqa xizmat ko'rsatuvchilarni shartnoma asosida tijoratlashtirish;

-korxonalarni xususiylashtirish, xususiy menejment bilan shartnomalashtirish; xissadorlik jamiyatiga yoki cheklangan javobgarlik bilan jamiyatga o'tkazish;

-ustaxonalarni xususiylashtirish;

-yonilgi quyish shaxobchalarini xususiylashtirish va ijaraga berish;

-aholi avtomobillariga TXK korxonalarini xususiylashtirish.

Yo'lovchi tashiydigan avtobuslar.

a). SHahar ichida: - metro, tramvay, trolleybus korxonalarini tijoratlashtirish

- taksi, yo'nalishdagi taksilarni xususiylashtirish; keyinchalik avtobuslarni ham yo'nalishga litsenziya berish yo'li bilan xususiylashtirish

-mikroavtobuslarga xususiy raqobatga ruxsat berish.

b).SHahar tashkarisida:

-shaharlararo tashishdagi taksi va avtobus bo'linmalirini xususiylashtirish
Avtomobil transportining o'ziga xos xususiyati shundaki, avtomobil saroyi kisman vazirlik ixtiyorida bo'lsa, kisman-texnologik idoralar ixtiyorida; kisman ma'lum aholi kismiga tegishli va bu transport vositalari shaxsiydir. Ularni boshqarishning tashkiliy tuzilishi ham har xil xududda har xil. Barcha xollarda boshqarishning tuzilishi uchta pogonadan iborat:

1).Respublika Vazirlar Maxkamasi koshidagi vazirliklar.

2).O'rta-viloyatlar, avtonom respublika va ba'zan yirik shaharlar xududidagi kontsern (boshqarma)lar.

3).Quyi-korxonalar va chizikli bo'linmalar.

Ishlab chiqarish savollarini yechishdagi birlikni ta'minlash uchun har qanday vazirlikda transport boshqarmalari mavjud.

Takrorlash uchun savollar.

1.Nima uchun O'zbekiston Respublikasi aralash iqtisodiyot tizimida?

2. O'zbekistonda oliy bosqichdagi boshqarish tartibi va usullari qanday bajariladi?
3. Moliyaviy menejmentning xizmatlari nimada?
4. Turli mulkchilikda boshqarishning o'zaro ta'sir kusatkichining mazmuni sanalsin.
5. Qiymat, talab, taklif qonunlarining pul muomilasi qonunidan farqi nimada?
6. Aksionerlik jamiyatining keng faoliyat ko'rsatishga sabab nima bo'la oladi?
7. Korxonalarda marketing bo'linmalari tashkil topishi shartmi?
8. Transport sohasidagi boshqarish jarayonlarini tashkil etish tarkibi va o'zaro ta'siri nimalardan iborat.
9. O'zbekiston avtomobil transportida boshqarishni tashkil etish muammolari nimada?
10. O'zbekiston avtomobil transportini xususiylashtirish qanday holatda?

Tayanch iboralari.

1. Poliiqtisod (aralash iqtisod)
2. Makroiqtisodiyot
3. Mikroiqtisodiyot
4. Marketing.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тақдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Ўзбекистон 1997-326 бет.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон сиёсий ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Т. 1995й.
3. Косимов Г.М. Транспорт корхоналарида менежмент Т.Ўзбекистон, 2001 йил 448 бет.
4. Косимов Г. М. И др. Экономика Ўзбекистана на современном этапе. Ученное пособие Т. Мехнат 1992 г. 125 с.
5. Йўлдошев К., Муфтайтинов К. Иқтисодий билим асослари. Ўқитувчилар учун қўлланма (масъул муҳаррир: А. Сотволдиев) Т. Ўқитувчи 1997 й. 228 б.
6. Глухов В. В. Основы менеджмента. Учебно – справочное пособие. Санкт-Петербург: Специальная литература 1995-327с.
7. Косимов Г. М., Саматов Г. А. Организация и управление в автотранспортных предприятиях учебник Т. 1991-80с.
8. Румянцева З. П. Менеджмент организации. Учебное пособие м. Инфра-м. 1996-432с.
9. Косимов Г. М. Автотранспорт корхоналарида иқтисодий механизмни такомиллаштириш. Т. Ўзбекистон 1989 й.
10. Громов Н. Н., Персианов В. А., Управление на транспорте учебник для вўзов. М. Транспорт 1990-336с.
11. Вихий О. С., Наумов А. И. Менеджмент, человек, стратегия, организация, процесс. Учебник М. Изд-во МГУ 1995-416с.
12. Ўзбекистон Республикасининг автомобиль йўллар комплексини бозор иқтисодиёти шароитида ривожланиши. Республика, илмий-техникавий маколалар тўплами 16-18 сентябрь.
13. Улмасов А., Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси. Ноиқтисодий укув юртларига дарслик Т. Мехнат 1995-432 б.

6-Mavzu: Korxonada faoliyatini rejalashtirish.

REJA:

- 1.Rejalashtirishning mohiyati va korxonada faoliyatini baholash usullari, rejalashtirish jarayoni hamda yechim qabul qilish.
- 2.Reja tuzishning variantlari.
- 3.Korxonada tuzilishi va rejalashtirish.
- 4.Tavakkallikni baholash.
- 5.Rejalashtirish boshqarishning muhim vazifalari.

1.Rejalashtirishning mohiyati va korxonada faoliyatini baholash usullari, rejalashtirish jarayoni hamda yechim qabul qilish.

Rejalashtirish jarayoni deganda rejali-iqtisodiy masalalarning turkimlarini va ruyxatini, ketma-ketligini, ularning yechish vositalari va usullarini tushunish lozim. Rejalashtirish bu korxonada uchun maqsadlarni tanlash jarayonini bildiradi, shu bilan birga ushbu maqsadlarni amalga oshirish yo'lida qanday yechimlar qabul qilish lozimligini ko'rsatadi. Ustuvor (strategik) rejalashtirish barcha boshqarish yechimlari uchun asosini ta'minlaydi. Uning faoliyatiga resurslar (sarmoyalar, yer, Mehnat, tadbirkorlik kobilyati) ni taksimlash, tashki muhitga moslashuv, ichki muvofiklashuv va tashkiliy bosh vazifani tanlash kabilar kiradi. Bosh maqsad oliy rahbar tomonidan shakillanadi va ishlab chiqiladi. SHaxsiy korxonalarda korxonaga asos solgan odam (mulkdor) o'zining maqsadlarini kushib olib borishi va uni korxonada rejasida amalga oshirishi mumkin. Bosh vazifa va maqsadlarni aniqlangandan keyin rahbariyat tashki muhitni quyidagi uchta ulcham bilan baholaydi:

1).Joriy rejalashtirishning har xil yo'nalishlarda paydo bo'ladigan o'zgarishlarni baholash:

2). Korxonaning joriy bosh yo'nalishi uchun qaysi omillar xavf solishini aniqlash.

3). Rejani to'g'rilash yo'li bilan korxonaning maqsadlariga erishish uchun qaysi omillar yuqori imkoniyatga egaligini aniqlash.

Omillar sifatida quyidagilarni tahlil etish lozim:

Iqtisodiy, siyosiy, bozor, texnologik, xalqaro, raqobatchilik va ijtimoiy xulq, tashki xavf va imkoniyatlar ruyxati.

Rejaning hamma ko'rsatkichlari bo'yicha boglangan umumiy yechim olish uchun ba'zi bir masalalarni o'zaro kichiq yechimlarini moslash usullarini ishlab chiqish, har bir masalani quyilishi va yechimi uchun javobgar bo'limlar tarkibi va shaxslarni aniqlash va nixoyat umumiy reja bo'yicha belgilangan davrada yechim qabul qilish katta ahamiyatga ega. Yechim qabul qilishda hisobga olishning mavjud usullari va tavakkal baholashlarni tahlil etishga asoslanib, olimlar(O. Lange, P. Fishberna, T. Bochkan, R Kinni, X Rayfi, A. Pervozvanskiy, L. Yevlanov, O. Lorichev va boshqalar) ikkita asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatgan edilar. Bu usullar foydalilik nazariyasi va «muvozanatli ifodalash» usulidir. Foydalilik nazariyasi ma'lumotlari noaniqligi darajasi tobeligidan kelib chiqqan ko'pgina mumkin bo'lgan yechimlarni qisqartirish usullrini beradi. Juda ko'p mumkin bo'lgan yechimlarda yagona yechim qabul qilishni insonga yuklatiladi.

Rejalashtirishning uslublari alohida ko'rsatkichlar va rejaning bo'limlarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan, ularni o'zaro muvofiklashtirish va boglash hamda rejaning bajarilishini tahlil etish uchun zarur bo'lgan texnikaviy-iqtisodiy va iqtisodiy-matematik hisoblashlarning muayyan usullarini ifodalaydi. Rejalashtirishning talimoti (ilmiy metodologiyasi) ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish rejalari ishlab chiqishning umumiy talablari va usullari yigindisidir. U uslublar va rejalashtirishni tashkil etish amalga oshiriladi.

Rejalashtirishning ilmiyligi ilmiy kerakli ilmiy bashorat qilish, jamiyat extiyojini aniqrog o'rganish, o'zok muddatli oldindan bilishni ishlab chiqish, hisoblashdagi variantlar o'tkazishlarni kuzatadi. Ilmiy-texnik taraqqiyotlar, matematika, iqtisodiy kibernetikaning barcha yo'nalishlari zamonaviy EXT lari, rejaning texnik-iqtisodiy asoslangan barcha ko'rsatkichlari va ilmiy asoslangan me'yor va me'yorlashlarning ilg'or tizimlarini qo'llashlarini hisobga olgandagina rejalashtirishning ilmiyligini oshirishga erishiladi.

Rejalashtirishning muhim vazifalaridan biri: istiqboldagi va joriy rejalarni ishlab chiqa olish bilimlarni shakillantirish va rejalarni ishlab chiqishdagi ilmiylik

darajasini oshira olish bo'yicha korxonalar jamoasi mo'ljallangan chora tadbirlarni ruyobga chiqarish.

2.Reja tuzishning variantlari.

Reja tuzishda uning har xil variantlarini olish mumkin. Buning uchun iqtisodiy-matematik usullar va EXMLardan foydalaniladi. Rejani tuzishga ajratilgan vaqtning chegaralanganligi va rejali hisobotlarni tulik rasmiylashtirishga holis imkoniyatlar yo'qligi sababli rejaning alohida bo'limlarini ketma-ket ishlab chiqish emas, balki parallel bajarish kerak. Ularni yechish davomida har xil masalalarning asosiy o'zaro boglangan ko'rsatkichlari moslashtiriladi. Rejaning barcha bo'limlarini tulik moslashtirish rejalashtirishning ba'zi kismilarini yoki xatto uning butun jarayonini bir necha bor takroran kaytarib ishlov berish bilan erishiladi.

3.Korxonalar tuzilishi va rejalashtirish.

Rejalashtirish bilan korxonaning tuzilishi orasida ma'lum bog'liklik bor. Korxonalar tuzilishini loyihalash uchun uning muhim rejalariga asoslanish lozim. Tashkiliy tuzilishni ishlanmasining ketma-ketligi rejalashtirish jarayoni unsurlarining ketmaketligiga o'xshash. SHunday tashkiliy tuzilishni tanlash mumkinki, korxonaning muhim rejalariga mos kelsin va atrof muhit bilan o'zaro ta'siri samaralikni ta'minlasin va mo'ljallangan maqsadga erishilsin. Tashkiliy tuzilishning ishlanma harakatining ketma-ketligi quyidagicha:

- korxonani gorizontalar bo'yicha keng bloklarga bo'lishni amalga oshirish;
- turli lovozimlarning vakolatlari nisbatini aniqlash;
- lavozim majburiyatlarini aniqlash.

4.Tavakkallikni baholash.

Bozor sharoitida korxonalarning faoliyat ko'rsatishlari xo'jalik holatlarining barqarorligi, raqobatning mavjudligi, extiyojning o'zgaruvchanligi va tuzilishining o'zgarib turishlari, ishlash sharoitlarining doimiy o'zgarishlari, ya'ni korxonalarning tavakkalli ishlashlari bilan bog'lik bo'ladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida

korxonalar o'z ishlarini uddalamok uchun yangi toifadagi rejalashtirishga o'tishlari lozim. Bozor sharoitida tavakkallikning mavjudligi mijozlar va tashish xajmlarini yo'qotish, extiyojini noto'g'ri baholash, shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik, extiyot materiallarni keragidan ortiqcha bunyod etish kabilar o'zlariga mos eng munosib (optimal) reja yechimlarini beradigan variantlarni aniqlash lozimligini belgilaydi. Tavakkallikni baholash usulidan «muvozanatli ifodalash»-xo'jalik muhitida amalda hisobga olinadigan tavakkallik omillarining juda aniq rasmiy chizmasini rejali yechimini tuzishda imkoniyat beradi. Avtomobil transporti va TXKda bunday tavakkallik omillari sifatida transport xizmatiga bo'lgan extiyojlarning tasodifiy o'zgarib turishlari (beqarorligi), raqobatlarining mavjudligi, tashish shart-sharoitlaridagi o'zgarishlar, mijozlar bilan bo'lgan munosabatlar va boshqalar o'rin to'tadi. Avtomobil transportida yetarli yuqori darajadagi tavakkallikni izoxlaydigan omil bo'lib uning ish texnologiyasi hisoblanadi. Xuddi shunday omborxonalar ishlari doimo ta'minlay olmaganligi uchun avtomobil transport korxonalarini o'zini extiyot rezervlari bilan qoplash mumkin bo'lgan beqaror extiyojini ta'minlashga qurbi yetmaydi, bundan tashkari 20-30 % yuk xajmi yakka xol talabnomalardan iborat bo'lib, qaysiki oldindan ko'rish mumkin emas. Bu ham tavakkalning oshishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, rejani tanlashda holis baholash bilan birga rahbar yana rasmiylashtirishga bo'ysinmaydigan, insonga bog'lik bo'lgan (bir tomonlama, shaxsiy) omillarni ham hisobga oladi. Bozordagi holatni, transport va texnik xizmatlarga bo'lish mumkin bo'lgan extiyoj darajasini rahbar yoki menejment (echim qabul qilayotgan shaxs) o'zining tajribasi, sezgisi (farqi, farosati), o'tgan davr vaziyatlarini tahili bo'yicha turlicha baholaydi. Bunday baholashlar, shaxsiy (sub'ektiv) baholash hisoblanadi va rejani tanlashga ta'sir ko'rsatadi. Avtomobil transporti va aholi transportlariga TXK korxonalarini faoliyatida tavakkallik omillarini tahlil qilish va baholash hamda rejali yechim qabul qilish uchun hozirgi vaqtda rejali yechim qabul qilish texnologiyasining uslubiy asoslari ishlab chiqilgan. Ushbu ishlanmaga rahbar yoki menejment mo'ljallashi mumkin bo'lgan holis tavakkallik omillari, rahbarning shaxsiy afzalligi va ma'lum maqsadlari majmuasining mavjudligi hisobga olingan. Tavakkallik o'lchash va

baholash masalalari ba'zi bir boshlangich ifodalarga e'tibor berishni talab qiladi. Masalan: tavakkallik vaziyati nima? Tavakkallikning o'zi nima? Bu savollarga qisqacha bunday javob o'rinli bo'lishi mumkin. Tavakkallik vaziyati deganda u yoki bu xodisa yechimining miqdor jihatdan bajarilishi extimol darajasini aniqlash imkoniyati tushiniladi. Miqdor ulchami, bu tavakkallik darajasini aniqlashda hisobga olinadigan extimollik qiymatidir. Tavakkallik deganda qabul qilingan rejali yechimlarni bajarmaslik extimoli tushuniladi, qachonki bu yechimlarning xaqiqiy bajarilishi tasodifiy kattalik bo'lib mavjud xo'jalik muhiti sharoitida noaniqlik omillari ta'siriga bog'lik bo'lsa. Bashorat qilish va tavakkallik xavfini oldini olish uchun biznes-reja foydalaniladi. Biznes-reja bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatini boshqarish vositasi (mexanizmi) bo'lib xizmat qiladi, shuning uchun sungi yoritiladigan izlanish materillari biznes-reja va bozorning muvofiklashtirish muammolarini yechishga qaratilgan. Bundan maqsad transport xizmati bozoridagi o'zgarishlarni keltiradigan tavakkalligi va avtomobil transportida amaldagi xo'jalik mexanizmi bilan bog'lik tavakkallik elementlarini hisobga oluvchi eng kulay yechimlar ishlab topishdan iborat bo'ladi. SHunday unsurlardan, xususan jarima sanksiyalarining turli tizimlari: shartnoma majburiyatlarini buzish, xom ashyo zaxiralarini me'yoridan oshirib saqlash, ishlab chiqarish jamgarmalarini xizmat muddatidan ziyod foydalanishlar hisoblanadi. Xozirgi kunda yuk tashuvchi avtomobil transporti korxonalarida xavfli yuklarni tashishda, yo'llar kurilishida tavakkalli baholash uslublari mavjud. Reja yechimlari qabul etishdagi tavakkallikni hisobga olish va baholash quyidagi chora-tadbirlar evaziga erishilishi mumkin.

1). Korxonalarining xo'jalik faoliyatlaridagi tavakkallikning chora -tadbirlari toifalarini ishlab chiqish bilan;

2). Korxonaning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatini rejalashtirish texnologiyasi (ma'lum uslublarni bilan rejalashtirishni amalga oshirish jarayonlarining majmui)da tavakkallik bilan chora-tadbirlarni hisobga olish yo'li bilan;

3). O'zgarib turgan xo'jalik sharoitida tavakkalli suxbat tarzida (dialog tizimida) olib boriladigan andoza tayyorlash tavakkallikning xususiyati va

istalayotgan darajasiga qabul etilgan yechimini shaxslarga beriladigan reja andozasini ishlab chiqish bilan;

4). Yuklarni tashish xajmi, asosiy mablaglarni yoshiga karab aniqlash kabilarda tavakkallik omillari hisobiga oluvchi rejalashtirish uslublarini ishlab chiqish bilan;

5). Reja yechimlarini qabul etishda eng optimal tavakkallik darajasini baholash uslublarini ishlab chiqish bilan.

Korxonada faoliyatining tavakkallik omillarini hisobga olgan rejalashtirish texnologiyasi (ayniqsa bozor munosabati sharoitida) dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi, uning amaliy ahamiyati transport barcha mutaxassislarining manfaatiga dahildordir.

5. Rejalashtirish boshqarishning muhim vazifalari.

Boshqarishning vazifalari orasida rejalashtirish va nazorat funksiyalari o'zaro o'ta kuchli bog'likdir. Rejalashtirish va nazoratlarning o'zaro bog'likligini quyidagilar bilan ifodalash mumkin:

-rasmiy ma'lumotlar tizimiga zarurat (ma'lumot – boshqarish tizimining eng muhim vazifasi zarur odamga o'z vaqtida kerakli ma'lumotni berish);

-kompyuter revolyutsiyasi va ma'lumot boshqarish tizimi;

-ma'lumot-boshqarish tizimini loyihalash;

-ma'lumot-boshqarish tizimining samaradorligini oshirish.

Biznes-reja boshqarishning ishchi mexanizmi yoki asbobi hisoblanadi, xuddi shuningdek faoliyat ko'rsatib turgan korxonada uchun tadbirkorlik doirasining barchasida ishlatiladi. Ko'pgina tadbirkorlar biznes-rejani yetarlicha kadirleyotganlari yo'q. Ular yaxshi ishlangan biznes-reja yangi biznesga sarmoya topishga, kelajakka rejani aniqlashga, ishni qanday o'sib borishini baholash imkoniyatini beruvchi analitik jadval tuzishga katta yordam berishini tasavvur qilishlari kerak.

Nazorat uchun savollar.

1).Rejalashtirish jarayoni deganda qanday talqin berilgan?

2).Umumiy reja bo'yicha yechim qabul qilish usullari qanday izoxlanadi?

- 3).Rejalashtirish ta'limotining mohiyati nimada?
- 4).Rejalashtirishning ilmiyligi nimalardan iborat?
- 5).Rejalashtirishning variantlari deganda nimani tushunasiz?
- 6).Korxonona tuzilishi birlamchimi yoki rejaning tuzilishimi?
- 7).Tavakkallik bilan tavakkallik vaziyatining farqi nimada?
- 8).Tavakkallikni baholash usullari nimalar bilan tavsiflanadi?
- 9).Boshqarish bilan rejalashtirish orasida qanday bog'liklik bor?
- 10).Tadbirkorlar uchun biznes-reja kerakmi?

Tayanch iboralari.

- 1.Reja, jarayon
- 2.Tavakkal
- 3.Biznes-reja.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тақдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Ўзбекистон 1997-326 бет.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон сиёсий ижтимоий ва иқтисодий истиқболнинг асосий тамойиллари. Т. 1995й.
3. Косимов Г.М. Транспорт корхоналарида менежмент Т.Ўзбекистон, 2001 йил 448 бет.
4. Косимов Г. М. И др. Экономика Ўзбекистана на современном этапе. Ученное пособие Т. Мехнат 1992 г. 125 с.
5. Йўлдошев К., Муфтайдинов К. Иқтисодий билим асослари. Ўқитувчилар учун қўлланма (масъул мухаррир: А. Сотволдиев) Т. Ўқитувчи 1997 й. 228 б.
6. Глухов В. В. Основы менеджмента. Учебно – справочное пособие. Санкт-Петербург: Специальная литература 1995-327с.
7. Косимов Г. М., Саматов Г. А. Оргонизация и управление в автотранспортных предприятиях учебник Т. 1991-80с.
8. Румянцева З. П. Менеджмент организации. Учебное пособие м. Инфра-м. 1996-432с.
9. Косимов Г. М. Автотранспорт корхоналарида иқтисодий механизмни такомиллаштириш. Т. Ўзбекистон 1989 й.
- 10.Громов Н. Н., Персианов В. А., Управление на транспорте учебник для вўзов. М. Транспорт 1990-336с.
- 11.Вихий О. С., Наумов А. И. Менеджмент, человек, страегия, организация, процесс. Учебник М. Изд-во МГУ 1995-416с.
- 12.Ўзбекистон Республикасининг автомобиль йўллар комплексини бозор иқтисодиёти шароитида ривожланиши. Республика, илмий-техникавий маколалар тўплами 16-18 сентябрь.
- 13.Улмасов А., Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси. Ноиқтисодий укув юртларига дарслик Т. Мехнат 1995-432 б.

7-Mavzu: Rejalashtirishning tamoyillari va rahbarlik qilishning samarali usullarini tanlash.

REJA:

1. Reja tuzishning tamoyillari.
2. Rahbarlik qilishning samarali usulini tanlash.
3. Kibernetika-transport va texnika xizmati ko'rsatish korxonalarida boshqarish jarayonlarining axborot tavsifi.

1.Reja tuzishning tamoyillari.

Yuk va yo'lovchi tashish, TXK rejasini tuzish korxonalar uchun eng yuqori foyda olish maqsadi bilan bog'lik. Bu esa korxonalar menejerlari, menejmenti, iqtisodchilari, marketinglaridan bozor munosabatlarining asosiy bilimlari bilan kurollanishlarini talab qiladi. Transport xizmati ko'rsatish (yuklash, tushirish, tashish, transport-ekspeditsiya xizmati)da barcha o'zgarishlar qilishda ham menejerga transport xizmatining iste'molchilar bilan ish yuritishiga to'g'ri keladi. Bunda lozim bo'lgan reklamalarni ko'rsatish, ya'ni iste'molchi bu yangilik yoki o'zgarishdan nima yutadi? SHu kabi chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish ham hozirgi vaqt marketingning tarkibiy qismi bo'lib koladi. Korxonalar menejmentining birinchi vazifasi-bozor munosabatlari sharoitida transport yoki texnika xizmatlari ko'rsatish, ta'mirlashlarni qanday xajmda bajarishlari lozimligini aniqlashlaridan iborat. Boshqacha qilib aytganda, korxonalar ixtiyorida mablaglar (avtomobil transporti, ko'targich uskunalar, yer, bino, muomila puli), uskuna jixozlari, texnologiyasi, materiallari, o'zining joylashuvi va ko'pgina boshqa xo'jalik faoliyatini tavsiflaydigan omillari asosida zarur bo'lgan tashish turlari (mahalliy, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro, yuk yoki yo'lovchi tashish, ixtisoslashtirilgan va shu kabilar), texnika xizmati ko'rsatish, joriy ta'mirlash va shunga o'xshashlardan istiqbollisi tanlab olinadi. SHundan keyingina korxonalar transport moliya rejasini va uning bo'limlarini ishlab chiqishga kirishish mumkin. Korxonalar faoliyatida marketingning ahamiyati o'ta yuqori, chunki bajariladigan jarayonlarga quyiladigan talablarni professional darajada marketing mutaxassisigina bilishi mumkin. SHunday kishigina

korxonaning ishlab chiqarish dasturi va boshqa faoliyatlarini rejalashtirish tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bozor munosabati sharoitida barcha rejalashtirish tizimining asosi-tijorat ishlarining bashorat qilishlarini tuzishdir. Bu yerda ustuvor (strategik) rejalashtirish ko'rsatkichi muayyan turdagi maxsulot (ish, xizmat ko'rsatish)ni harid qilish yoki bajarish xajmi. SHuning uchun korxonah rahbarining muhim vazifasi-bozor munosabatida qancha miqdorda transport yoki texnika xizmatlari bajara olishi mumkinligini aniqlashdan iborat. Marketingning asosiy vazifalaridan biri iste'molchilarning tarkibi, extiyoji, mo'ljali, xatto ijtimoiy xodisalar yoki siyosiy jarayonlardagi o'zgarishlarga e'tibor berishdir. Bularning barchasi u yoki bu darajada talablarga ta'sir ko'rsatishi mumkin, ba'zan Mutlaqo ko'tilmaganda hal kiluvchi omil bo'lishi mumkin. Ikkinchi tomondan, bashorat muddat (davr)i qancha kiska bo'lsa bashoratning natijasi shuncha aniq bo'ladi.

2. Rahbarlik qilishning samarali usulini tanlash.

Harakat va xodisalarni rejalashtirish bosqichlarida transport yoki texnika xizmatlari ko'rsatish korxonalariga mirishkorlik bilan xo'jalikka rahbarlik qilish usullarini tanlash katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy korxonaning menejmenti (rahbari) rejalashtirishning ma'lum bosqichida ishlab chiqarishning kerakli samaradorligiga erishish uchun boshqaruv apparatlari yordamida boshqarishni murakkab jarayonlarini amalga oshiradi. Boshqarish jarayonida menejment ulkan Mehnat, moddiy-xom ashyoviy va moliyaviy mablaglarga bosh bo'ladi. Bunda u kiyinchiliklardan biri-iqtisodiy xodisalarning ko'p omilligidir. Misol uchun, prof. V. M. Mandritsaning takidlashicha, ishlab chiqarishning rentabelligiga bir vaqtning o'zida 362 ta omil ta'sir qiladi, tashish tannarxiga esa-186 ta. SHu omillar orasidan 5-7ta asosiysini ajratib olish uchun, menejment iqtisodiy-statistik, iqtisodiy-matematik usullar, hisoblash texnikasi va EXM sohalarida ma'lum bilimga ega bo'lishi kerak. Har qanday yechimni ishlab chiqish va uni qo'llash uchun korxonah va uning bo'linma rahbarlari, ba'zi masalalarni, savollarni yechish uchun hamda Bularni xo'jalik-ishlab chiqarish faoliyatiga qo'llash uchun, o'z vaqtida va aniq ular faoliyatidagi natijalarning majmuini tahlil qilish maxoratiga ega bo'lishlari lozim. Buning uchun

menejment butun korxonaga rejasiga (davlat buyurtmasiga) asoslanib, har bir bo'linmalarga rejali topshiriqlar berish uchun rejaning nazorat va uslubiy ilmiy ishlanmasi va dalillanishi bilan ishlay bilmog'i kerak (19-chizma).

19-chizma Javob qaytishli boshqarish.

Har qanday iqtisodiy yoki xo'jalik masalalari bir necha usullar bilan yechilishi mumkin, lekin menejment o'z hodimlarining shu masalalarini yechish yo'llari to'g'risidagi fikirlarini bilish va umumiy manfaatga asoslanib yechim qabul qilishi kerak. Bunda u istalgan samaradorlikka erishishi uchun bir butunni bo'laklarga bo'lishi yoki bo'laklarni bir butungaga yiriklashtirishi kerak hamda o'zining istiqbolini ko'ra bilishi va masalaning yechilishi natijasini u o'zining hodimlariga yetkazishi lozim. Bekorga aytishmaydi, birinchi rahbar nimaga erishsa, hammasi yaxshilikka, hamma bo'lim va bo'linmalarning rahbarlari (menejerlar) teppa teng bo'lib olishadi, yomon Oqibat uchun esa fakat menejment yakka o'zi aybdor bo'ladi. Ma'lumki korxonaga ishini tahlil qilishda ko'rsatkichlarni solishtirish, zanjirli o'rin almashtirish usullari, indeks usuli va boshqalar keng qo'llaniladi. Bu usullar tahlil qilinayotgan ko'rsatkichga omillarning ta'sir qilishini aniqlash imkonini bermaydi, chunki ular stoxostik extimollik ega. Misol uchun avtomobillarni yirik avtokorxonalariga yigish avtomobillardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Ammo yuqorida keltirilgan usullar bilan miqdoriy ta'sirini aniqlash mumkin emas, chunki ta'sir etish o'zining xususiyati bo'yicha extimollik omiliga kiradi. (transport xizmatiga baho

belgilash-tarif). Xo'jalikni boshqarishda samarali usullardan biri bo'lib-ko'p omilli korrelyatsion-regression usulni qo'llash tavsiya etiladi. Chunki u eng muhim xodisalar (Y_i) funktsiyasiga ta'sir kilduvchi, ko'p sonli muhim omillar (X_i) orasidan, berilgan vaqt oraligida kurilayotgan funktsiyani oshishi yoki kamayishiga sabab bo'layotgan;

-foyda, rentabellik, daromadlar, tashish tannarxi va boshqalar asosiy omillarni ajratib olishga yordam beradi. Bu ko'rsatkichlarning har biri yordamida iqtisodiy funktsiya (Y_i) texnik iqtisodiy, foydalanishli, sifatli, ijtimoiy, tashkiliy omillar (X_i) orqali aniqlanishi mumkin. Har bir tahlilning turi va bosqichi o'zining mustakil usullarini ishlab chiqishi mumkin. Tashish xajmi, daromad, yuk aylanmasi va shunga o'xshashlarni aniqlovchi o'z formulalari bor. Ko'rsatkichlar qiymatini aniqlab, korxonada daromadiga ta'sir qilayotgan asosiy omillarni aniqlash mumkin. Hisoblar EXM da dasturiga binoan yechiladi. Koeffitsientlarning juft korrelyatsiyasining tahili hisoblashning mantiqiy bosqichi bo'lib hisoblanadi. SHular bo'yicha omillar, juft korrelyatsiyalarning koeffitsientlarining qiymati aniqlanadi. (rijk0,75-0,99). Bu izlanayotgan hodisa multikolleniarnostning ta'sirini yo'qotish uchun zarurdir. Matematik qonunlar 0,75-0,99 dan yuqori bo'lgan ikki omildan birini chiqarishni talab qiladi. Tahlil qilishdan tashkari, ushbu ko'p omilli andozani shu andozaga kirgan bosh omillarni bashorat qilish uchun ishlatish mumkin.

3.Kibernetika-transport va texnika xizmati ko'rsatish korxonalarida boshqarish jarayonlarining axborot tavsifi.

«Kibernetika»-qadimgi yunoncha so'z bo'lib, «boshqarish maxorati» degan ma'noni beradi, mazkur atamani kadimgi yunon filosofi Platon, so'ng esa frantso'z fizigi va matematigi Amper ishlatganlar. 1948 yilgacha sobiq SSSRda akademik A. I. Berg kibernetikaga asos solgan edi. «Iqtisodiy kibernetika» atamasi ilmiy boshqaruv nomi sifatida 60-yillardan boshlab V. S. Nemchinov, L. V. Kantorovich, V. V. Novojilov, O. Lang va boshqalarning asarlarida qo'llanilgan. Boshqarish muammolarini yechishda o'yinlar nazaryasi, navbatlar nazaryasi, zaxiralarni boshqarish andozalari keng ishlatilmoqda, shular qatori chizikli dasturlashtirish, imitatsiya andozalashtirish, iqtisodiy tahillashlar ham o'ta ko'p holatlarda qo'llanilmokda. Iqtisodiy kibernetika-matematik andozalashtirish va tizimli tahlil qilish usullarini qo'llanuvchi ilmiy sohadir. U iqtisodiy tizimlarni optimallashtirish va takomillashtirish, iqtisodiyotni boshqarish ishlarida qo'llaniladi.

Iqtisodiy kibernetikada uch asosiy yo'nalish bor:

- 1). Iqtisodiy tizimlar va andozalar nazariyasi;
- 2). Iqtisodiy axborot nazariyasi;
- 3). Iqtisodiyotda boshqaruvchi tizimlar nazariyasi.

Korxonada ishni avtomatik tarzda nazorat qilib turadigan va hisobga oladigan turli moslamalar va asboblari; «mashina vaqtini» va bekor turib qolish vaqtini sabablari bo'yicha alohida kayd qiladigan moslamalar: ma'muriy-ishlab chiqarish aloqasi va signalizatsiya vositalari; xujjatlarni saqlash, izlash va o'zlash vositalari; bo'lim va bo'linmalar, tsex va kismlar ichida kulyozma shakllarini distantsion tarzda yetkazib berish uchun teleavtograflar; hisob-perforatsion va elektron hisoblash mashina (EXM)lari ishlatilmokda. Axborot bilan ishlashning tavsifiga karab boshqarishning texnika vositalarini bir necha guruhga bo'lish mumkin: axborot olish vositalari; axborotni qayd qilish va saqlash vositalari; axborotdan nusxa ko'chirish va uni ko'paytirish vositalari; axborot berish vositalari; axborotni hisoblash yo'li bilan ishlash vositalari. Axborotlarni ishlab chiqishning iqtisodiy-matematik usullaridan va zamonaviy vositalaridan (EXM, jamgarish, ruyxatga olish, tasvirlash moslamalari va

xokazo) foydalanish negizida korxonada faoliyatini boshqarish funksiyalarini bajarishni ta'minlaydi, ya'ni avtomatlashtirilgan boshqarish sistemasini (ABS) paydo bo'ladi. ABSni joriy qilish tufayli katta xajmdagi axborotlarga tezkor ishlov beriladi: axborotlar okimini tartibga solish va axborotlardan unumli foydalanish darajasini oshirish, boshqarish hodimlarni serMehnat hisoblash operatsiyalaridan ijldiy Mehnat uchun bushatish; ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatiga rahbarlik bo'yicha qarorlarni optimallashtirish va boshqarish Mehnatning umumiy madaniyatini oshirish ta'minlanadi. Barcha pogonalardagi rahbarlar va ijrochilarning mustakilligi va ma'suliyatliligi usgan sharoitda menejment kerak. Korxonani menejmentning avtomatlashtirilgan sistemasini vujudga keltirishda dastlabki kadam uning iqtisodiy-tashkiliy andozasini ishlab chiqish hisoblanadi. Iqtisodiy-tashkiliy andoza deganda bo'lajak boshqarish sistemasining qoidalarida, talabalarda bajariladigan ish tartibida, mezonlar to'plamida va xokazolarda tashkiliy tuzilishi tushuniladi. Korxonani avtomatlashtirilgan boshqarish sistemasining iqtisodiy-tashkiliy andozasini ishlab chiqish ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etishning mavjud tizimini tartibga solish va takomillashtirish maqsadida uni tekshirish va tahlil qilishdan boshlanadi. Birinchi navbatda korxonaning mavjud ishlab chiqarish tuzilishi, Ya'ni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'linmalari hamda xizmatlarning tarkibi va o'zaro aloqasi chuqur tahlil qilinishi lozim. Tashkiliy tuzilmani tahlil etishda tuzilishli bo'linmalarda ayrim menejarlar bajaradigan boshqarish funksiyalarini puxta o'rganish lozim. Tahildan maqsad-ishning xajmi va mazmuni korxonaning extiyojlariga va extiyojlarni bajarish bilan band bo'lgan hodimlarning miqdoriga qanchalik mos kelishini aniqlashdir. SHu asosda ayrim boshqarish hodimlari vazifalarini kushish hisobiga mayda boshqaruv bo'linmalarini yiriklashtirish va ortiqcha tuzilmali boshqaruv bo'linmalarini tugatish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Korxonani avtomatlashtirilgan boshqarish sistemasini axborot bilan ta'minlashga: me'yorlash-ma'lumotnoma bazasi: kodlashtirish va tsif tizimi; axborot tashuvchi tizim; xujjat aylanma tizimi kiradi. Axborot okimlarini o'rganishning turli usullari: tarmok andozasi asosida, kolipli andozalashtirish, grafa analitik va boshqa usullar bilan o'rganish mavjud. Bularning eng soddasi har bir bo'limda tuziladigan

tuzilish-axborot sxemasi asosida bo'linmalar o'rtasidagi xujjat aylanmasi va o'zaro aloqani o'rganishdir. Korxonadagi xujjat okimlari umumiy axborot andozasida biron-bir kichiq tizim o'rnini aniqlash, boshqarish jarayonini matematik ta'minlash va uning texnika majmui uchun talablar bildirish imkoniyatini yaratadi. Matematik ta'minlash deganda ushbu korxonada avtomatlashtirilgan boshqarish sistemasi hal qiladigan barcha majmui vazifalar bo'yicha axborotlarni mashinada ishlashning algoritmlari va dasturlari tizimi tushuniladi. Xozirgi EXM ko'p dasturli rejimda ishlashi mumkin. Bunda bir qancha masala bir vaqtni o'zida hisoblash mashinasida bo'ladi va ikkinchi bir masalani bajarishga o'tish uchun masalalardan birinchi yechishni to'xtatish hamda keyinchalik to'xtatilgan dasturga kaytish mumkin. ABSni texnika jihatdan ta'minlash kurilmalar va mashinalarning uch asosiy guruhini o'z ichiga oladigan texnika vositalari majmuidan iborat: axborotni ishlash tizimiga ma'lumotlarni kiritadigan vositalar; axborotni tuppa-to'g'ri EXM ga beradigan aloqa kurilmalari va kanallari; axborot kiritish va berish maslamalari bilan jixozlangan EXM. Iqtisodiy axborot-bu moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, almashtirish, taksimlash, jamgarish va iste'mol qilishning ijtimoiy jarayonlari xaqidagi axborotlar. U iqtisodiy ma'lumotlardan olinadi. Mamlakatimizdagi axborot tizimi boshqaruv axborotini ham, xabar beruvchi tezkor ishlab chiqarishni hisobga olish, buxgalteriya hisobi, bank axboroti, statistikani ham o'z ichiga oladi. Bu barcha sohalarda ma'lumotlarni kayta ishlashning avtomatlashtirilgan tizimi va avtomatlashtirilgan boshqarish sistemasi rivojlanganligini ko'rsatadi. Har bir boshqaruv organining, har bir boshqaruv tizimining, shu jumladan, avtomatlashtirilgan boshqarish sistemasining vazifasi bu ko'rsatkichlardan mamlakatning oliy bosqichida boshqarishning barcha darajalarida yechim yoki qaror qabul qilish uchun eng ko'p foydali axborot olishdan iboratdir. Xulosa qilib aytish mumkinki, korxonada faoliyatini boshqarish jarayonida iqtisodiy kibernetika usullaridan foydalanish shart.

Nazorat uchun savollar.

1. Boshqarish bilan rejalashtirish orasida qanday bog'liklik bor?
2. Rejalashtirishda iste'molchining vazifalari.
3. Reja tuzishda avtokorxonada menejmenti ishni nimadan boshlaydi?

4. Avtokorxonada faoliyatida marketingni ahamiyati.
5. Marketingning asosiy vazifalari.
6. Nima sababdan reja tuzish tamoyillariga alohida e'tibor beriladi va ular nimalardan iborat?
7. Boshqarish jarayonida iqtisodiy hodisalarning ko'p omilliligi menejmentga qanday aloqasi bor?
8. Bo'linmalarning rejasi korxonaga rejasiga asoslanib tuziladimi yoki aksinchami?
9. Javob kaytishli boshqarish deganda nimani tushinish kerak?

Tayanch iboralari.

1. Avtokorxonada marketingi.
2. Iqtisodiy hodisa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тақдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Ўзбекистон 1997-326 бет.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон сиёсий ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Т. 1995й.
3. Косимов Г.М. Транспорт корхоналарида менежмент Т.Ўзбекистон, 2001 йил 448 бет.
4. Косимов Г. М. И др. Экономика Ўзбекистана на современном этапе. Ученое пособие Т. Мехнат 1992 г. 125 с.
5. Йўлдошев К., Муфтайдинов К. Иқтисодий билим асослари. Ўқитувчилар учун қўлланма (масбул муҳаррир: А. Сотволдиев) Т. Ўқитувчи 1997 й. 228 б.
6. Глухов В. В. Основы менеджмента. Учебно – справочное пособие. Санкт-Петербург: Специальная литература 1995-327с.
7. Косимов Г. М., Саматов Г. А. Оргонизация и управление в автотранспортных предприятиях учебник Т. 1991-80с.
8. Румянцева З. П. Менеджмент организации. Учебное пособие м. Инфра-м. 1996-432с.
9. Косимов Г. М. Автотранспорт корхоналарида иқтисодий механизми такомиллаштириш. Т. Ўзбекистон 1989 й.
10. Громов Н. Н., Персианов В. А., Управление на транспорте учебник для вўзов. М. Транспорт 1990-336с.
11. Вихий О. С., Наумов А. И. Менеджмент, человек, стратегия, организация, процесс. Учебник М. Изд-во МГУ 1995-416с.
12. Ўзбекистон Республикасининг автомобиль йўллар комплексини бозор иқтисодиёти шароитида ривожланиши. Республика, илмий-техникавий маколалар тўплами 16-18 сентябрь.
13. Улмасов А., Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси. Ноиқтисодий укув юртларида дарслик Т. Мехнат 1995-432 б.

8-Mavzu: Kelajakdagi extiyojlarni tasavvur qila bilish.

REJA:

1. Ilmiy asoslangan rejaning ishlanmasi.
2. Mutlaqo yangi xizmat ko'rsatishni bashorat qilish.

1. Ilmiy asoslangan rejaning ishlanmasi.

Korxonaning ilmiy asoslangan rejasining, me'yor va me'yornomalarining istiqbolga ishlanmalari menejmentdan butun bir korxonaga va uning bo'linmalari ishlarining asosiy ko'rsatkichlarini bashorat qilish nazariyalarini va amaliyotining bilimlarini talab qiladi. Bozor munosabatlari sharoitida shunday rejalashtirish ilmiy bo'lishi mumkinmi, agar u puxta ishlab chiqilgan iqtisodiy, texnikaviy, ijtimoiy, demografik va boshqa oldindan aytishga asoslangan bo'lsa. Bashorat qilish joriy va o'rta muddatli rejalarni ilmiy asoslash uchun, karalayotgan davrda topshirilgan rejaning bajarilishini ta'minlaydigan texnik iqtisodiy, texnik-foydalanishli, ijtimoiy ko'rsatkichlarni belgilashda menejmentning zarur bosqichi va kuroli bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy bashoratsiz nafakat o'zok muddatga, xatto bir oyga ham asoslangan reja ishlab chiqish mumkin emas. Bashorat qilishni rejalashtirish uchun tayorlov bosqichi deb hisoblash kerak, ya'ni bashorat rejaga kirmaydi, uning tarkibiy qismi ham emas, balki ilmiy asoslangan reja ishlanmasining vositasi bo'lib xizmat qiladi. Rejalashtirishda eng muhim-rejali yechim qabul qilishlarni asoslab berish, ya'ni rejalashtirishning usullari va andozalari-bu yechim qabul qilishlarning usullari va andozalari. Bashorat qilish doimiy staxaostik extimollik bo'lgani uchun kelajak bilan boglangan. SHuning uchun iqtisodiy bashorat extimollik xususiyatiga ega. Bashorat qilishning maqsadi iqtisodiyotning asosiy va umuman kelgusidagi taraqqiyot yo'nalishini aytib berish uchun hamda hozirgi holatini kelajak davr nuqtai nazaridan baholashdan iboratdir; rejalashtirishning vazifasi-qachonlardir belgilangan ma'lum maqsadlarga erishish bo'yicha eng muhim omillarning ishlanmasidan iboratdir. Iqtisodiy bashorat-bu ma'lum taxmin (mo'ljal, gipoteza), kelajakda iqtisodiy jarayonlarning borishiga ma'lum extimollik bahosi. Bashorat qilishdan rejalashtirishga o'tish, o'z navbatida iqtisodiy maqsadlarni aniqlashda bashorat

natijalarini baholashni, ko'rsatkichlarni optimal o'sish tezligini tanlab olish va zarur mablaglar topishni mo'ljallaydi. Bashorat qilish asosida istiqbolga rejalashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Avvalo bashorat qilish natijalaridan kelib chiqib, bo'lajak davrning sunggi yiliga biznes-reja ishlab chiqiladi. Sungra o'rta yillik o'sish sur'atlari hisoblab chiqiladi va kolgan yillar uchun biznes-rejalar tuziladi. Bashorat qilish va kelajakka rejalashtirish o'zaro chambarchas boglangan va umumiy xususiyatiga ega, umumiy qonuniyatlar shaklida fakat o'rtacha namoyon buluvchi iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga oladi, biznes-reja esa-quyilgan masalalarga erishish uchun zarur bo'lgan omillarni belgilaydi. Agar bashorat qilish Oqibatida salbiy moyillik (yo'nalish, intilish) aniqlansa, u xolda biznes-rejada ularni betaraflashtirish uchun choralar belgilanadi. Bashorat qilishning asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin;

- iqtisodiy taraqqiyotning shakllanib bo'lgan qonuniyatlari va moyillik (yo'nalish)larini aniqlash va tahlil qilish;

- iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishlarining bo'lajakdagi ta'sirlarini baholash va ularning ijobiy va salbiy Oqibatlarini hisobga olish;

- o'zining yechimini talab qilayotgan iqtisodiy vaziyatlarni, yangi muammolarni oldindan ko'ra bilish;

- istiqbolda taraqqiyotning mumkin bo'lgan mukobillarini aniqlash;

- iqtisodiyotning rivojlanishiga faol ta'sir etuvchi eng kulay rejali yechim qabul qilish ishlanmasida har tomonlama asoslangan yo'nalishlarni tanlash uchun ma'lumotlar tuplash.

Ushbu vazifalar turli usullar va andozalar bilan EXMda yechiladi. Xozirgi vaqtda bashorat qilishning 230 dan ziyod usullari, yo'llari, andozalari ma'lum. Ulardan keng tarkalganlari:

- o'tgan aylnmaga asoslanib bashorat qilish;

- bashorat qilishning ekstropolyatsiya usuli;

- eksponentsial tekislash usuli (milliy daromad, Mehnat unumdorligi va boshqalarni belgilashda qo'llasa bo'ladi);

-Harid qilish xajmiga o'zgarishlar kiritadigan omillar, davrlar qonuniyatlarining tahili;

-me'yoriy usul (bashorat qilinayotgan jarayonning ayrim ulchamlari qandaydir me'yor ko'rinishida beriladi);

-korrelyatsiya tahili, ya'ni korxonalar resurslarini harid qilishga ta'sir qiladigan statistik omillarni aniqlash;

-andozalash (mantikiy, axborotli, matematik va boshqalar);

-pirovard foydalanish tahili;

-ekspert baholash usuli («del'fiy», akliy xujum usuli morfologiya va boshqalar);

-sinaladigan marketing.

Ekstropoliyatiya bashorat qilishning ilmiy usuli bo'lib, uni qo'llanish holis mavjud bo'lgan katta tizimning inertsiyasini hisobga olishga asoslangan, buni barcha kurilish tajribalarida isbotlangan. Iqtisodiyot tizimi uchun bu qonun kiska muddat ichida mumkin bo'lmagan cheklagich vositalar bilan tizimni tubdan xulkinini o'zgartirish mumkin. Masalan, Toshkent yo'lovchilar tashiydigan avtokorxonalarining daromadini 2-3 marta oshirish mumkin emas (tarifni oshirish bundan istisno), chunki shahar aholisi va uning transportdan foydalanuvchi kismi bir yilda 2-3 marta ko'payib kolmaydi.

Korxonada Mehnat unumdorligini bashorat qilishda eksponentsial tekislovchi (silliklovchi) usul qo'llanilishi mumkin, bunda ijtimoiy omillar muhim o'rin to'tadi (malakasini oshirish, hodimlar kunimsizligi, kasbni kushib olib borish, o'z Mehnatidan konikish, ijodiy faollik, Mehnat faolligining darajasi, jamoada muhitning darajasi, jamiyat ishlaridagi faolligining darajasi, jamiyat manfaatlariga karshi harakatlarining darajasi, ishga borish va ishdan kaytishda transport xizmati bilan ta'minlanishi, turar joy bilan ta'minlanishining darajasi, ma'naviy ragbatlantirilishi, boshqarish demokratlashganlik darajasi hodimlarni Mehnat va dam olish sharoitlarini yaxshilash, texnika xavfsizligining darajasi va Mehnatni muxofaza qilish darajasi, yosh ishchilarning sharoitga moslashishini tezlashtirish, hodimlarning kasb darajalarini o'stirishga bo'lgan sharoit, hodimlarning madaniy va ijtimoiy

darajasi, madaniy-maishiy xizmat qilish darajasi, korxonaning o'zida xizmatchilarga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi, bolalar va sog'lomlashtirish oromgoxi bilan ta'minlanish darajasi, jamoa a'zolarining yoshi bo'yicha tarkibi va shunga o'xshashlar).

Pert usuliga asoslanadigan extimollikni standart taksimlash usuli, ya'ni rejalashtirish va boshqarish usullari va turli andozalardan foydalanib baholash va kayta kurib chiqish usuli. Bashorat qilish usulining mohiyati quyidagidek. Tajriba yo'li bilan harid qilishning uch ko'rinishdagi bashorati aniqlanadi:

O-optimistik belgilash, M-extimoli yuqori bo'lgan belgilash va

R-harid qilishning belgilanishini pessimistik baholash. Harid qilishning belgilanishini ko'tilayotgan qiymati (ER) quyidagi standart formula bilan hisoblanadi:

$$ER=(O+4M+R):6=(350+4 \cdot 340 +300):6=335 \text{ ming t.km}$$

Standart bo'yicha ogishi (SO) aniqlanadi:

$$SO=(J-P):6=(350-300):6=8,33 \text{ ming t.km.}$$

Bu degani statistikani umumiy nazariyasiga muvofik o'zgaruvchining eng yuqori extimollik qiymati-sotishni belgilash (95% extimollik bilan) 335 ming t.km $2 \cdot 8,33=16,66$ ming t.km oraliqda joylashgan bo'ladi, ya'ni 318,34 va 351,66 ming t.km oraligida ($335-16,66=318,34$ va $335+16,66=351,66$).

U yoki bu usulning samarali qo'llanilishi muayyan shart sharoitga va korxonaning xo'jalik faoliyatidagi xususiyatiga bog'lik hamda fakat marketing bo'yicha chora-tadbirlar tizimida aniqlangan bo'lishi mumkin.

Ekspert baholash (del'fi) usuli tarmokda keng tarkalgan bo'lib, u xodisalar yoki jarayonlar ayrim tomonlarning miqdor va sifat xususiyatining alohida ko'rinishi bo'lib, u ekspertlar (olimlar va mutaxassis-amaliyotchilar) tomonidan aytilgan fikrlar asosida aniqlanadi. Ekspert baholash rejali yechimlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. U individual (shaxsiy) va jamoa baholardan farqlanadi. SHaxsiy baholardan shakllangan jamoa ekspert baholash odatda juda aniq va puxta bo'ladi. CHunki unda sub'ektiv xatolar, asoslanmagan fikrlar bo'lishi extimolini kamaytiradi. SHaxsiy bahoni avvaldan savollar berilgan surov varakasi (anketa) tuldirilgan xolda

ekspertdan (bevosita yoki sirdan) olinadi. Ekspertning fikricha, turli ikkinchi darajali omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. SHuning uchun shaxsiy baho, kayta ishlash ekspertlar guruhini shakillantirish, savol va javoblar EXMda maxsus usullar bilan aniqlanadi.

Endi iqtisodiy xodisalarni bashorat qilish ishlanmalirining bosqichlari xaqida bir necha fikrlar:

-o'rganilayotgan jarayonning tahili va unga ko'prok ta'sir kiluvchi muhim omillarni aniqlash;

-o'rganilayotgan jarayon bilan tanlab olingan omillar o'rtasidagi sababli-Oqibatli boglanishlarni aniqlash;

-o'rganilayotgan jarayonning statistik andozasini tuzish;

-jarayonning o'zgarishini tahlil qilish va u (o'zgarish)ning asosiy intilishini topish;

-jarayonga ta'sir etadigan muhim omillar o'zgarishining tahili, ularning o'zgarishining moyilliklari va ta'sir davrlarini aniqlash;

-jarayonni bashorat qilish bilan uning omillarini aniqlovchi tizim o'rtasidagi boglanishlarning o'zgarish tarkibini aniqlash, bashorat qilinayotgan davrdagi boglanish tarkibini aniqlash;

-bashorat qilinayotgan jarayonning o'zgaruvchanlik andozasini tuzish (kurish);

-ko'p omillik bashorat qilishning ishlanmasi;

-bashorat qilishdagi xatolarni hisoblash va ishonchlik oraliqlarini kurish.

Bashorat qilish eng avvalo ilmiy asoslangan, o'z vaqtida bo'ladigan va ishonchli, kelajakka rejalarning ishlanmasi uchun yetarli xajmda axborot saqlashi kerak.

2. Mutlaqo yangi xizmat ko'rsatishni bashorat qilish.

Iste'molchining rasmiy talablari va afzalliklarini ko'ra bilish va kondirishdan tashkari, ular bilan muayyan tan olingan va xis qilingan yana bir soha bor bu esa marketingda iste'molchilarning talablari (extiyojlari, zarurlari)ni tahlil va bashorat

qilishdir. Bugun ko'pgina iste'molchilar hali bilmaydigan, odamlarning extiyohlari paydo bo'lishi mumkin. Kelajakda (istiqbolda) esa iste'molchilarda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan talablarni ishlab chiqarishning umumiy tarakiyotini borishiga, fan va texnika tarakiyotining ta'siriga, ijtimoiy siljishlarning sezilarli natijaliriga va boshqalarga karab boshorat qilinadi. Bunda gap yangi bozor tijoratini shakillantirish uchun iste'molchilarning xulklari (holatlari)ni o'rganish xaqida, Mutlaqo yangi turdagi xizmat ko'rsatishlar va buyum (maxsulot)larga bo'lgan takliflardan iste'molchilarning ta'sirlanishlarini tahlil qilish xaqida borayapti. Ilmiy-tadkikot va tajriba-konstruktorlik ishlarining natijalari yangilik bo'lib amaliyotga kirguncha, xizmat ko'rsatish turlari va maxsulot (buyum)lari tijoratga muvoffakiyatli o'rinlarini topgunicha o'ziga xos bosqichni bosib o'tadi. Vaxolanki, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreyadagi ilg'or kompaniyalar koinotni o'zlashtirish uchun ishlab chiqarilgan uskunalardan tijorat maqsadlarida muvaffakiyatli qo'llamokdalar. SHuning uchun xozirgi kunda marketingning vazifasi nafakat iste'molchilarning mavjud muayyan tushinib yetmagan talablari va uning tizimidagi o'zgarishlarini bashorat qilishdan iborat bo'lmay, balki maxsulotlarning ishlanmalari va ishlab chiqarishda shu o'zgarishlarni hisobga olish hamda odamlarni hali tushinib yetmagan bo'lajakdagi extiyohlari va ularni ilmiy-tadkikot va tajriba-konstruktorlik ishlarda o'tkazishga tegishli ravishda hisobga olishdan ham iboratdir. Bu, har qanday yangi buyumlar, yangi texnologiyalar yoki eng ilg'or fan yutuklarini tijoratda muvaffakiyatli maxsulotga aylantirishdagi imkoniyatlar bozorining istiqboldagi taraqqiyotini baholashda kalitli unsur bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy marketing ilmiy-tadkikot va tajriba-konstruktorlik ishlarini o'tkazishga, yangiliklarning ishlanmasi va qo'llanilishiga boshqacha yo'lni talab qiladi. Bunda izlanishlarning yo'nalishlarini olim yoki muhandislarning fikri bilan oldindan aniqlanmay, balki iste'molchilikning afzallik tizimlarini almashtirish va uni tarakkiy ettirish, yangi talablar va odamlarning extiyohlarini ko'ra bilishni talab qiladi. Raqobatchilik sharoitida savdo aylanmasi, sotilgan maxsulotning xajmining o'sishi, bajarilgan transport ishlari-eng muhim ko'rsatkich, xo'jalik faoliyatida bosh samaradorlik mezonini.

Takrorlash uchun savollar.

1. Ilmiy asoslangan rejaning ishlanmasida bashorat qilishga qanday o'rin beriladi?
2. Rejalashtirish jarayonidan keyin bashorat qilishga o'tiladimi yoki o'zgachami?
3. Bashorat qilishning vazifalariga nimalar kiradi?
4. Bashorat qilishning qanday usullarini bilasiz?
5. Iqtisodiy xodisalarni bashorat qilish ishlanmalarining bosqichlari nimalarni talab qiladi?
6. Mutlaqo yangi xizmat ko'rsatishni bashorat qilish nimaga kerak?
7. Fan va texnika yutuklari ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdan nega oldinda bo'ladi?
8. Zamonaviy marketingni tushuntiring?
9. Bashoratga ilmiy yondashish kerakmi?

Tayanch iboralari.

1. Ekstropoliyatiya (bashorat usuli).
2. Pert (extimollikni standart taksimlash usuli).
3. Ekspert baholash usuli (de'lyfiy).

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тақдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Ўзбекистон 1997-326 бет.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон сиёсий ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Т. 1995й.
3. Косимов Г.М. Транспорт корхоналарида менежмент Т.Ўзбекистон, 2001 йил 448 бет.
4. Косимов Г. М. И др. Экономика Ўзбекистана на современном этапе. Ученное пособие Т. Мехнат 1992 г. 125 с.
5. Йўлдошев К., Муфтайтинов К. Иқтисодий билим асослари. Ўқитувчилар учун қўлланма (масъул муҳаррир: А. Сотволдиев) Т. Ўқитувчи 1997 й. 228 б.
6. Глухов В. В. Основы менеджмента. Учебно – справочное пособие. Санкт-Петербург: Специальная литература 1995-327с.
7. Косимов Г. М., Саматов Г. А. Организация и управление в автотранспортных предприятиях учебник Т. 1991-80с.
8. Румянцева З. П. Менеджмент организации. Учебное пособие м. Инфра-м. 1996-432с.
9. Косимов Г. М. Автотранспорт корхоналарида иқтисодий механизмни такомиллаштириш. Т. Ўзбекистон 1989 й.
10. Громов Н. Н., Персианов В. А., Управление на транспорте учебник для вўзов. М. Транспорт 1990-336с.
11. Вихий О. С., Наумов А. И. Менеджмент, человек, стратегия, организация, процесс. Учебник М. Изд-во МГУ 1995-416с.
12. Ўзбекистон Республикасининг автомобиль йўллар комплексини бозор иқтисодиёти шариоитида ривожланиши. Республика, илмий-техникавий маколалар тўплами 16-18 сентябрь.
13. Улмасов А., Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси. Ноиқтисодий укув юртларига дарслик Т. Мехнат 1995-432 б.

**9-Mavzu: Texnik tizimlarni boshqarishda insonparvarlik omilining tutgan o'рни.
Mehnat jamolarini boshqaruv. Korxonada jamoasining ijtimoiy rivojlanishini
rejalashtirish.**

REJA:

1. Ijtimoiy rivojlanishda shaxs va guruhlarining ma'naviy kamol topishlaridagi chora-tadbirlarini rivojlantirish. Ma'naviy rivojlantirishning asoslari.
2. Ma'naviy rivojlanishda ongning roli.
3. Ijtimoiy muammolarni ishlab chiqarish usullari.
4. Ijtimoiy guruhlarining taraqqiyotini rejalashtirish.

**1. Ijtimoiy rivojlanishda shaxs va guruhlarining ma'naviy kamol topishlaridagi
chora-tadbirlarini rivojlantirish. Ma'naviy rivojlantirishning asoslari.**

Bozor munosabatining asosiy xususiyatlari Mehnat jamoalarining turmush darajalarida aniq ko'rinishga boshlaydi. Mehnat jamoasi-iqtisodiyotning muhim bo'lagi. Bu bo'lakda ijtimoiy mulkchilik munosabati ifodalanadi. Bir vaqtda biz bu yerda ijtimoiy kasb ijtimoiy-ruxiy, tashkiliy-boshqarish, ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy munosabatlarni ko'ramiz. Jamoa va jamoa orkali ishlovchi o'zining har tomonlama shaxsiy rivojlanishga ega bo'ladi. Bozor munosabati sharoitida iqtisodiy, texnik-jadal o'zgarishlar bilan birga Mehnat jamoalari ijtimoiy tashkilotlari kayta bunyod etiladi. Mehnat mazmunining o'sishi va hodimlarning extiyojining murakkablashishi zamonaviy jamoani yuqori harakatchan ijtimoiy tizimga aylantiradi. Bular o'z navbatida uning taraqqiyotining boshqarilishiga yangi talablar qo'yadi, xuddi shuningdek rejalashtirishga ham. Bunda rejalashtirish majmui bo'lishi kerak, ya'ni Mehnat jamoasining texnik-iqtisodiy bazisi bilan birga yana uning alohida ijtimoiy parametrlari hamdir. Bu holis extiyoj va xayotda Mehnat jamoalarining ijtimoiy (ijtimoiy mulkchilik munosabatlari; ijtimoiy kasb; ijtimoiy-ruxiy; tashkiliy-

boshqarish; ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy munosabatlar) taraqqiyot rejalari tuzilishini talab qiladi. Iqtisodiy va ijtimoiy rejalashtirish birligi jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi. Korxonaning rivojlanishini ijtimoiy rejalashtirish zaminida jamiyat va uning sinflari xiyoti, iqtisodiy va siyosiy tuzum va boshqa ijtimoiy xodisalar yotadi. Ijtimoiy borlik kishilarning iqtisodiy moddiy xayoti-moddiy ne'matlar ishlab chiqarishdan va ishlab chiqarish jarayonida o'zaro bog'laydigan munosabatlardan iborat.

2.Ma'naviy rivojlanishda ongning roli.

Ijtimoiy ong-bu jamiyat xayotining ma'naviy tomonlari (badiiy, huquqiy, siyosiy va boshqa qarashlar, mafkuralar, axlok, din va xokazo). Insonlarning ongi ularning turmushini belgilamay, balki ijtimoiy borlik ularning ijtimoiy ongini belgilaydi. Ijtimoiy borlik bilan ijtimoiy ong o'rtasidagi munosabat ham rivojlanib boradi, bu jarayonda ijtimoiy borlik belgilovchi ahamiyatga ega bo'lishiga karamay, ijtimoiy ong ham muhim o'rin to'tadi. Kundalik ong (unga kishilar o'zlarining kundalik ishlarida amal qiladilar) bilan ilmiy ong (ilmiy-tadkikot, nazariy bilimning turli tizimlarini yaratish) o'rtasida, shaxsiy ong (ayrim kishilarning ma'naviy dunyosi) bilan ijtimoiy ong (sinflar, guruhlar, umumjamiyatning manfaatlarini ifodalovchi ong) o'rtasida farq bor, ijtimoiy ongning fakat inson faoliyatida mavjud bo'lishi mumkin bo'lsada, lekin u nisbiy mustakillikka egadir. Ijtimoiy ong-shakllarini fan, san'at, axlok va xokazoni shaxsiy ongdan iborat deb bilmaydi. Ongning funktsiyalari fakat kishining tevarak-atrofdagi vokelikda to'g'ri yo'l to'tishidan iboratgina bo'lmay, balki shu bilan birga shu vokelikni bilish orkali muayyan dunyoni o'zgartirishga, uni kayt0adan kurishga kumaklashishdan ham iboratdir. Inson doimo ishlab chiqarish taraqqiyoti va takomillashtirishining bosh omili bo'lgan va bo'lib koladi.

Masalan; iqtisodiyotda inson bosh ishlab chiqaruvchi kuch va ishlab chiqarish munosabatining sub'ekti sifatida katnashadi; ijtimoiy jamiyatda-ijtimoiy munosabatlarning shakllanishidagi o'zgarishlarda ko'rinadi; siyosatda-insonlarning davlatni va jamoa ishlarini boshqarishga jalb etilishi bilan amalga oshiriladi; ruxiyatda esa odam o'z mafkurasini shakllantirishda, ilmiy va estetik zebi-ziynat

yaratishda, odamning ruxiy dunyosini boyitishda ko'rina boshlaydi. Mehnat sarfini baholash va munosib iqtisodiy va ma'naviy ragbatlantirish inson omiliga va jamoani faollashtirishga katta ta'sir qiladi, ayniksa bozor munosabati sharoitida shaxsning ma'naviy kamol topishi, Mehnat kobilyatining o'sishi Mehnatni to'g'ri, adolatli baholashga bog'lik. Mehnat hamisha insoniyatning yashashi va mavjud bo'lishining negizi, ijtimoiy boyliklarning asosiy manbai bo'lib keldi va shunday bo'lib koladi. Ijtimoiy boylikdan fakat Mehnatkash shaxsning har tamonlama kamol topishi uchun foydalaniladi. Bu yerda Mehnat birinchi bor, fakatgina ijtimoiy boylik manbai emas, balki kishi iste'molini kondirishning mezonini bo'lib koladi, shaxsning xaqiqiy shaxs sifatida tarkib topishi va shakllanishi uchun asosiy sohaga aylanadi.

3. Ijtimoiy muammolarni ishlab chiqarish usullari.

Korxonalar, shahar, xudud, mintaka butun bir jamiyatning barcha pogonalarida o'zaro bog'lik ijtimoiy rejalashtirish tizimini ta'minlashdek muhim masala mutaxassislar oldida turibdi. SHu bilan birga korxonalar jamoalarining ijtimoiy maqsadlarining o'zini va rivojlantirish vositalarini avvalo har xil tushinishlar bilan bog'lik bo'lgan kiyinchiliklar ham bor. Maxsus manbalardagi ushbu masalalar bo'yicha keltirilgan baholardan ma'lumki, bozor munosabati sharoitida korxonalar jamoalarining rivojlanish jarayonlari va tuzilishi, mohiyati va vazifalari bilan bog'lik bir qator muammolarni chuqur nazariy ishlab chiqish talab etiladi. Iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy ob'ektlar (korxonalar, korxonalar bo'linmalari va bo'limlari, hodimlari, jamoaning ijtimoiy rivojlanish rejasining ko'rsatkichlari, har xil chora-tadbirlar va boshqalar), ya'ni mavjudotlar, faoliyat mavzulari hamda jarayonlarni boshqarish muammolarining ishlanmalari, matematik, kibernetik usullarning tizimli tahili va andozalashlarda iqtisodchi, jamiyatshunos, ruxiyatshunos (psixolog) mutaxassislar bilan birga muhandislar va matematiklar ham faolroq katnashmokdalar. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar-deb yozadi akademik V. A. Tropeznikov, bu to'tash berk tizim javob kaytarishli (teskari aloqali) bo'lib, unda harakatchan jarayon oqib o'tadi va shuning uchun bunday tizimlar, texnik tizimlarda bo'lgani kabi, deyarli boshqarish qonuniga bo'ysunadi. Bunda ijtimoiy-iqtisodiy ob'ektlarni boshqarish

xususiyatlarining mazmuni tan olinadi va bu xususiyatni hisobga oluvchi matematik usullar va andozalashlar ishlab chiqiladi. Masalan, faol tizim hisoblangan tashkilotning xususiyatlari, maqsadga yunaltira oladigan harakatlarni tanlash kobilyatiga ega bo'lgan, ya'ni ularning Oqibatlarini hisobga oladigan harakatni tanlash kobilyatiga ega bo'lgan, ya'ni ularning Oqibatlarini hisobga oladigan harakatni tanlashga ma'lum asos solingan. Yechim qabul qilishning qator jarayonlari bunyod qilish va matematik andozalash usullari ishlab chiqilmokda va eksperimental sinovlvrndan o'tmokda.

Ijtimoiy-iqtisodiy tadkikotlarning asosiy masalalaridan biri chora tadbirlar (belgilar)ning muhimligini aniq hisoblab chiqishdir. Solishtiriladigan ob'ektlarning konikishlaridan, menat unumdorligidan, Mehnat ne'matlarining harakatidan va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga bog'lik bo'lgan muhim o'lchashlarni hisoblab chiqish benixoya katta ahamiyatga ega. Amaliy masalalarda axborotli belgilarning salmogini aniqlash quyidagi tartibda bo'lishi mumkin. Aytaylik, obektlarning yigindisi:

$$S_j = (X_{1j}, X_{2j}, \dots, X_{nj}) \quad j=1, 2, \dots, n.$$

Bunda S_j -aniqlash ob'ekti

j-ob'ektlar tartibi

X_{ij} -ob'ektning belgilari

i-belgilarning tartibi.

Bularning $P(X_1), P(X_2), \dots, P(X_n)$ axborotli belgilar miqdori (qiymat) olinadi. $R(X_n)$ qiymatidan foydalanib, yangi tushuncha kiritiladi va axborotli ogirlikning miqdorini yoki karalayotgan ob'ektlarning yigindisida alohida chora-tadbirlarning muhimligi bo'yicha topiladi:

$$I(S_j) = \sum_{i=1}^n P(X_j) X_{ij}$$

Bunda X_i - S_j - qatoridagi X_i ning i belgisini qiymati $J(S_j) \quad j=1, 2, \dots, m$ dan olingan qiymat asosida ob'ektlarning belgilarini qiymatiga karab saflash mumkin, Oqibatda ob'ektlarni guruhlarga ajratish imkoni paydo bo'ladi, ularni har xil ob'ektlarga ajratib, natijada karalayotgan ob'ektlarni tavsiflashga erishiladi.

Misolimizda ob'ekt sifatida hodimlar korxonaning bo'linmalari va bo'linmalari reja ko'rsatkichlari, chora-tadbirlari va shunga o'xshashlar qabul qilinadi. Xozirgi kunda korxonalar jamoalarining ijtimoiy muammolarini tadqiqot asoslari har tomonlama majmui va tizimli bo'lishiga ehtiyoj oshib bormokda. Ma'lumki, ushbu tadqiqotlarning-ularning chuqurligi, to'laqonliligi va miqyosi-korxonalaridagi ijtimoiy rejalashtirishning nazariyasi va amaliyoti kelajakdagi taraqqiyot darajasiga deyarli bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiy rejalashtirish nazariyasi muayyan rejalash davrida iqtisodiy rivojlanishning ko'rsatkichlarini o'z fanining ta'limoti uslublari, usullari ishlanmasida ko'rsatilganidek hisoblab chiqiladi, ijtimoiy rejalashtirish nazariyasi esa o'z predmetida avvalo barcha ta'limot, uslub va usullar ishlanmasida muayyan ob'ektlarning taraqqiyot ko'rsatkichlarining ishlanmasiga ega. Korxonaning rivojlanish davrida ijtimoiy rejalashtirishning bosh maqsadi majmui ko'rinishida ishtirok etadi.

Bu majmuidan maqsad har bir korxonada uning texnik kurollanganligiga va muayyan iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning mavjudligiga bog'lik.

4. Ijtimoiy guruhlarining taraqqiyotini rejalashtirish.

Ijtimoiy tashkilotlar-jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, uning muhim unsuri- ijtimoiy guruhlar, ularning o'zaro munosabatlari va har xil ijtimoiy guruhlar tizimi tor ma'noda korxonaning ijtimoiy tashkilotlarni tashkil qiladi. Bular-ijtimoiy siyosiy tashkilotlar (kasaba uyushmalari, xalq demokratik partiyasi, yoshlar uyushmasi, har xil markazlar va xokazo), Mehnatkashlarning har xil ijodiy uyushmalaridir. Doimiy ishlab turadigan ishlab chiqarish majlislari, ijtimoiy hodimlar bo'limi, jismoniy tarbiya va madaniy-ommaviy ishlar tashkiloti va boshqalar Mehnatkashlarni har tomonlama tarbiyalashga xizmat qiladi. Korxonadagi ijtimoiy guruhlar butun ijtimoiy tashkilotning bo'g'ini bo'lib individ (hodim) orkali boglanadi, u orkali kengroq ijtimoiy tuzilishlarga va munosabat sohaslariga chiqadi, tarmok xudud manfaatlari, kadri va meyorlari va korxonalar tashkilotlari individga aynan o'zatiladi, unga ta'sir etib shaxsi shakillantiriladi. Ijtimoiy rejalashtirish amalda shuni ko'rsatadiki, odam bilan

bog'lik bo'lgan rejalashtirishning yo'nalishlari o'ta murakkabdir. SHu bilan birga tashkilotni boshqarish odam, muayyan tirik individ bilan bog'lik ish kurishdir, uning ongiga, xulkiga, xis etishiga suyaniladi va hisoblaniladi, barcha ta'sir kiluvchi vositalar, tarbiyalar, rag'batlantirishlar, rejali boshqarishlar shularga qaratiladi. Odatda tashkilotlar odamga qator talablar qo'ysa, odam ham tashkilotlarga bir qancha talablar qo'yadi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Korxonalar jamoasining rivojlanishining ijtimoiy rejalashtirish zaminida nimalar yotadi?
2. Ijtimoiy borliq nima?
3. Ijtimoiy ong deganda nima nazarda to'tiladi?
4. SHaxsning kamol topishi nima va u nima beradi?
5. Nima uchun inson omiliga e'tibor beriladi?
6. Ijtimoiy rivojlantirish tizimi kanda izoxlanadi?
7. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning boshqarish qonuniga qanday munosabati bor?
8. Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarning masalalari nimalardan iborat?
9. Iqtisodiy rejalashtirish nazariyasi bilan ijtimoiy rejalashtirish nazariyasining umumiy va farqli tomonlari qanday?
10. Ijtimoiy guruhlarining taraqqiyotini rejalashtirish deganda nima tushiniladi?

Tayanch iboralari.

1. Ijtimoiy reja.
2. Iqtisodiy reja.
3. Ijtimoiy ong.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тақдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Ўзбекистон 1997-326 бет.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон сиёсий ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Т. 1995й.
3. Косимов Г.М. Транспорт корхоналарида менежмент Т.Ўзбекистон, 2001 йил 448 бет.
4. Косимов Г. М. И др. Экономика Ўзбекистана на современном этапе. Ученое пособие Т. Мехнат 1992 г. 125 с.
5. Йўлдошев К., Муфтайдинов К. Иқтисодий билим асослари. Ўқитувчилар учун қўлланма (масъул мухаррир: А. Сотволдиев) Т. Ўқитувчи 1997 й. 228 б.
6. Глухов В. В. Основы менеджмента. Учебно – справочное пособие. Санкт-Петербург: Специальная литература 1995-327с.
7. Косимов Г. М., Саматов Г. А. Организация и управление в автотранспортных предприятиях учебник Т. 1991-80с.
8. Румянцева З. П. Менеджмент организации. Учебное пособие м. Инфра-м. 1996-432с.
9. Косимов Г. М. Автотранспорт корхоналарида иқтисодий механизмни такомиллаштириш. Т. Ўзбекистон 1989 й.

10. Громов Н. Н., Персианов В. А., Управление на транспорте учебник для вўзов. М. Транспорт 1990-336с.
11. Вихий О. С., Наумов А. И. Менеджмент, человек, стратегия, организация, процесс. Учебник М. Изд-во МГУ 1995-416с.
12. Ўзбекистон Республикасининг автомобиль йўллар комплексини бозор иқтисодиёти шароитида ривожланиши. Республика, илмий-техникавий маколалар тўплами 16-18 сентябрь.
13. Улмасов А., Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси. Ноиқтисодий укув юртларига дарслик Т. Мехнат 1995-432 б.

10-Mavzu: Korxonа hodimlarining ijtimoiy rivojlanish rejasini ishlab chiqish.

REJA:

1. Ijtimoiy-demografik tuzilishdagi o'zgarishlarni rejalashtirish.
2. Jamoaning madaniy va maishiy rivojlanishini rejalashtirish.
3. Xizmat ko'rsatish samaradorligining ijtimoiy mezonlari.

1. Ijtimoiy-demografik tuzilishdagi o'zgarishlarni rejalashtirish.

1). Avtokorxonа jamoasining ijtimoiy-demografik tuzilishidagi o'zgarish bo'yicha chora tadbirlarni rejalashtirish ishchi va xizmatchilarning yoshi, jinsi, malakasining darajasi, ma'lumoti, ish staji, ijtimoiy holati kabilarni ifodalovchi tarkib va tuzilishga oid ko'rsatkichlar yigindisidir. Bu yerda hodimlar bo'limining hisobotini misol qilib ko'rsatish mumkin.

2). Mehnat sharoitini takomillashtirish.

Mehnat sharoitini takomillashtirishda umumiy, texnika, Sog'likni va tozalikni saqlash-gigienaga asoslangan, ruxiy fiziologik, Sog'likni va tozalikni saqlash-maishiy Mehnat sharoitlari majmui chora-tadbirlariga yondashish kerak.

-umumiy Mehnat sharoitiga ishlab chiqarish binosini hamda ukuv, ilmiy va ishlab chiqarish binolarini holati; ish joyini loyixaga asosan tashkil etish; ishchilar uchun tomorkalar, dam olish joylari, ishxonalarni bezatish, ishchilarga maxsus kiyimlar berish.

-Texnika Mehnat sharoiti-ogir va xatarli ishlarni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish, asbob-uskunalarni sozlash avtomatlashtirilgan va yarim avtomatlashtirilgan moslamalarni joriy qilish.

-Sog'likni va tozalikni saqlash-gigiena Mehnat sharoiti esa xaydovchi avtomobilni boshqaradigan xonasidagi mikroklimitni; issiklik, namlik, xavo muhitni changlanishi va ifloslanishi, zararli gazlar, shovkinlar, titrashlar, ultra tovushlar, nurlanishlar yoritish tizimlarini yaxshilashdan iboratdir. Sanoat estetikasi (binolarni va ishlab chiqarish asbob-uskunalariga rang berish, ish joyini yoritilishi, ish joylaridagi tartib va tozalik) Mehnat va dam olish tartibi, texnikaning ishchilarni ruxiy fiziologik tarkibiga optimal ravishda mosligi va boshqalar.

-Sog'likni va tozalikni saqlash-maishiy Mehnat sharoiti maishiy binolarning holati, maishiy xizmat ko'rsatish, umumiy tibbiy va davolanish-profilaktik xizmat ko'rsatish, ovkatlanishni tashkil qilish, xudud va binolarni obodonlashtirish, ko'kalamlashtirish shu kabilardan tashkil topadi.

-Mehnat xavfsizligi sharoitida yuklash va tushirish ishlari bilan bog'lik bo'lgan qo'l Mehnatini mexanizatsiyalashtirish, ogir jismoniy Mehnatni yengillashtiruvchi maxsus moslamalar, qo'shimcha ximoya vositalarini tayyorlash, ximoya vositalarini tayorlash kabilar kuzda to'tilgan.

2. Jamoaning madaniy va maishiy rivojlanishini rejalashtirish.

Korxonada jamoasining ijtimoiy-madaniy turar joy sharoitini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni rejalashtirish bo'limida yashash joylarini yaxshilash, ishlovchilarga kommunal xizmat ko'rsatishni rivojlantirish dam olish uylariga, sanatoriya, kurortlarga yo'llanmalar berish, ko'p bolali onalarga oilalarga yordam berish, Mehnat xaqini oshirish, moddiy va ma'naviy ragbatlantirish, tibbiy xizmat ko'rsatish ishlarini yo'lga quyish, madaniyat saroylarini, dam olish oromgoxlarining ishlari o'z aksini topadi.

2.1. Hodimlarning faolligini o'stirish chora-tadbirlarini rejalashtirish.

Hodimlarni tarbiyalash va jamoaga rahbarlik qilish quyidagi choralarni talab qiladi: jamoa faolligini rivojlantirish, ta'lim va tarbiya ishlarini mukammallashtirish, yoshlarni kasbga tayyorlash, yosh ishchilarni ishlab chiqarishga kuniktirish, jamoadagi ruxiy munosabatlarni yaxshilash, ishlash kobilyatlarini tartibga solish chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi. Korxonada jamoasining ijtimoiy rivojlanish rejasini

ishlab chiqish oldidan uning dolzarb savollarini surov o'tkazish orkali holatlarini aniqlash, jamoa a'zolarining fikrlarini bilish lozim.

3.Xizmat ko'rsatish samaradorligining ijtimoiy mezonlari.

Ijtimoiy rejalashtirish korxonaning rivojlanish boshqaruvchanligini oshirishda uning vazifalarini kulaylashtirish vositalaridan biridir. Ma'lumki har bir korxonaga o'ziga xos tashkiliy tuzilish tizimiga ega. Har bir bo'linma va bo'limlar ma'lum vazifalarni bajaradilar va jamiyatni faoliyat ko'rsatishiga xissa kushadilar. Ushbu darajani korxonaga samaradorligining o'zaro bog'liq bo'lgan mezonlari yordamida aniqlanadi. Avtokorxonada ishlab chiqarish samaradorligining ijtimoiy mezonlari quyidagilar:- korxonaning yuqori rentabelligi. Bunda ishlab chiqarish-iqtisodiy vazifa. Korxonaga ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishning maqsadli funksiyasiga boshlangich ma'lumotdir. Bu vazifaning mazmunini korxonaga jamoasining a'zolari amalga oshiradilar;

-korxonaga jamoasining uyushganligi. Bunda jamiyatning ayrim a'zolari, ijtimoiy guruhlar, umuman jamiyat ehtiyojlarini kondirish uchun zarur bo'lgan faoliyat yo'nalishidan biri iqtisodiy manfaat kurishdir. Har xil mulkchilik xukumronlik qilgan sharoitda ushaga jamiyat a'zolarining manfaatlari birligi qaror topadi. Oqibatda korxonaga umumiy, jamoaga, shaxsiy maqsadlarini amalga oshirish masalalarini muvaffakiyat bilan hal qiladi;

-korxonaga a'zolarining o'z Mehnatidan, uning sharoitidan konikishlari. Individ (odam)lar o'z ixtiyorlari bilan korxonaga ishlab chiqarishida katnashadilar, shu sababli jamoaga va shaxsiy manfaatni ustun to'tadilar. Agar jamoaga ularni koniktirmasa, Mehnat qonunlariga binoan boshqaga jamoaga o'tadilar. SHu sababli korxonaga rahbarlari hodimlarning ijodiy kuchlarini va kobiliyatlarining Mehnat jarayonida ma'lum darajada kondirilishini saqlashlari lozim.

-Korxonaga boshqaruvchanlik darajasi. Tarbiya vazifasi ishlab chiqarish jarayonlaridagi odamlarning faoliyatini tashkil etish va umumlashtirish uchun ularga maqsadli ta'sir ko'rsatishdan iborat. Boshqarish faoliyatining pirovard natijalari turli

tavsifga ega bo'lganligi sababli yaxlit va o'zaro aloqador bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy samaradorlik mezonlari to'g'risida gapirish mumkin.

Ijtimoiy mezonning jamiyatda uyg'un rivojlanishini ta'minlashdagi tutgan o'rni hisobga olinadigan bo'lsa, u iqtisodiy mezon sifatida maydoga chiqadi.

-Korxonalar a'zolarining ijtimoiy tashkilotlardagi faolliklari. Ijtimoiy siyosiy tashkilotlarda, ya'ni kasaba uyushmalarida, xalq demokratik partiyalarida, har xil ijodiy uyushmalarda ma'lum faollik ko'rsatishlari korxonalar samaradorligiga ijobiy ta'sir qiladi.

-korxonalar jamoasining harakatchanligi. Bu korxonaning umumiy vazifasini aynan ifodalaydi. Bunda ko'pgina odamlarning kichik harakatlarining tartibchanligini oshirishga qaratilgan. SHuning uchun ham bu mezon alohida o'rin egallaydi. Xulosa qilib aytish mumkinki, ijtimoiy rejalashtirishning xayotiyligi yuqoridagi mezonlarda o'z ifodasini topgan bo'lsa, ijodkor xalqning korxonalarining korxonalarini boshqarishda faol katnashishlari bitmas-tugalmas ijodiy energiyadir, yangi muvaffaqiyatlar garovidir.

Takrorlash uchun savollar.

1. Ijtimoiy-demografik tuzilishdagi o'zgarishlar rejasining mohiyati nimada?
2. Mehnat sharoitlarini takomillashtirishga nimalar kiradi?
3. Texnika Mehnat sharoiti-ogir va xatarli ishlarni bajarishda nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Sog'likni va tozalikni saqlash uchun nimalar qilinadi?
5. Mehnat xavfsizligi sharoitini tushuntiring.
6. Korxonalar jamoasining madaniy va maishiy rivojlanishi qanday rejalashtiriladi?
7. Xizmat ko'rsatish samaradorligini ijtimoiy mezonlari nima degani?
8. Korxonani boshqaruvchanlik darajasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
9. Korxonalar jamoasining harakatchanligi xaqida tushintirish bering?
10. Korxonalar a'zolarining ijtimoiy tashkilotlardagi faolliklariga nimalar kiradi?

Tayanch iboralari.

1. Demografiya.
2. Mehnat xavfsizligi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тақдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Ўзбекистон 1997-326 бет.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон сиёсий ижтимоий ва иқтисодий истикболининг асосий тамойиллари. Т. 1995й.

3. Косимов Г.М. Транспорт корхоналарида менежмент Т.Ўзбекистон, 2001 йил 448 бет.
4. Косимов Г. М. И др. Экономика Ўзбекистана на современном этапе. Ученное пособие Т. Мехнат 1992 г. 125 с.
5. Йўлдошев К., Муфтайдинов К. Иқтисодий билим асослари. Ўқитувчилар учун қўлланма (масъул муҳаррир: А. Сотволдиев) Т. Ўқитувчи 1997 й. 228 б.
6. Глухов В. В. Основы менеджмента. Учебно – справочное пособие. Санкт-Петербург: Специальная литература 1995-327с.
7. Косимов Г. М., Саматов Г. А. Оргонизация и управление в автотранспортных предприятиях учебник Т. 1991-80с.
8. Румянцева З. П. Менеджмент организации. Учебное пособие м. Инфра-м. 1996-432с.
9. Косимов Г. М. Автотранспорт корхоналарида иқтисодий механизми такомиллаштириш. Т. Ўзбекистон 1989 й.
10. Громов Н. Н., Персианов В. А., Управление на транспорте учебник для вўзов. М. Транспорт 1990-336с.
11. Вихий О. С., Наумов А. И. Менеджмент, человек, стратегия, организация, процесс. Учебник М. Изд-во МГУ 1995-416с.
12. Ўзбекистон Республикасининг автомобиль йўллар комплексини бозор иқтисодиёти шароитида ривожланиши. Республика, илмий-техникавий маколалар тўплами 16-18 сентябрь.
13. Улмасов А., Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси. Ноиқтисодий укув юртларига дарслик Т. Мехнат 1995-432 б.

11-Mavzu: Ijtimoiy rivojlanishni rejalashtirish shakllari.

REJA:

1. Jamiyatning taraqqiyot qonuni.
2. Ijtimoiy rejalashtirishning tashkil topishi.

1. Jamiyatning taraqqiyot qonuni.

Korxonalar jamoasining ijtimoiy rivojlanishini rejalashtirish shakllari holis va sub'ektiv asoslar bilan ta'minlanadi. Ulardan eng umumiy asosiy iqtisodiyot qonun va jamiyatning taraqqiyot qonuni. Iqtisodiy qonunlar – jamg'arish, qiymat, Mehnatga karab taksimlash, iste'molchilar xiyoyini kondirish, Mehnat unumdorligini o'stirish va boshqalar ishlab chiqarish munosabatlarining u yoki bu tomonlarini ifodalaydi. Jamiyatning taraqqiyot qonuni davlat, jamoa xususiy xo'jaliklarining iqtisodiy imkoniyatlarini oshiradi. SHunga mos ravishda jamiyatning iqtisodiyotiga talablari ortadi va uning barcha bo'g'inlarining o'zaro bog'likligi kuchayadi. Iqtisodiy sohadagi rivojlanish ijtimoiy xayotning boshqa sohalariga ham tarkaladi, odamlarning ijtimoiy, ma'naviy, ruxiy, axlokiy xiyoylari kondirilishi kerak. Buning ifodasi bo'lib rejalashtirishda texnik iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kabi masalalarni hisobga olgan majmui yo'l xizmat qiladi. Iqtisodiyot qonunlari bu iqtisodiy xodisalar va jarayonlar o'rtasidagi eng muhim, shartlangan aloqa va o'zaro bog'liklik ifodasi. Iqtisodiy qonun holis ya'ni kishilarning ongi va ifodasiga bog'lik emas. Kishilar, bu qonunlarni kashf etishlari, bilib olishlari, o'zlarining amaliy faoliyatlarida undan foydalanishlari mumkin, ammo uni bekor qila olmaydilar. Iqtisodiy qonun barcha ijtimoiy iqtisodiy formatsiyalarda amal qiladi, ammo fakat ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik asosida jamiyat iqtisodiy qonunlarining stixiyali amal qilishining oldini olish va undan butun jamiyat, jamoa va shaxsiy manfaatlar yo'lida ongli foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

Iqtisodiy qonunlar tizimi ishlab chiqarish munosabatlarining moxiyati namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy qonunlar ijtimoiy rivojlanishni har tomonlama kamol toptirish maqsadlariga bo'ysinishini ifodalaydi.

Bu qonunlardan har birining tizimdagi o'rnini ularning asosiy iqtisodiy qonunga aloqasi, unga bo'ysunishiga ko'ra holis taksimlanadi.

2. Ijtimoiy rejalashtirishning tashkil topishi.

Korxonaning barcha pogonalaridagi rejalashtirishda va boshqarishda- butun bir jamiyatdan to uning birinchi bo'g'inigacha bo'lgan rejalashtirishning hamma asosiy yo'nalishlarining yechiladigan muammolariga majmui yondashish bilan hal qilinishi lozim. SHular asosida korxonalarda ijtimoiy rivojlanishning rejalashtirilishini takomillashtirish muhim masala bo'lib koladi. Oqibatda korxonalarda iqtisodiy mustakillikka, majmun rejalashtirishni rivojlantirishga imkon yaratiladi. Bularning hammasi xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish va ijtimoiy faollikni keng Mehnatkashlar tabakasida (katlamida) oshishini ragbatlantiradi, ishlab chiqarish ishlarini boshqarishda katnashishiga sabab bo'ladi. Bozor munosabati sharoitida ilmiy-texnika taraqqiyoti keng miqiyosli harakterga ega bo'ladi. Avvalo ularning asoslari o'ta sezilarli farq qiladi. Ilmiy-texnika taraqqiyotining o'sish sur'ati ijtimoiy tuzumning harakteriga: kimning qo'lida-hammasi xalqdami yoki xususiy shaxslardami ishlab chiqarish vositalari. Ijtimoiy Oqibatlar ana shu ijtimoiy mulkchilikka va ijtimoiy rejalashtirishning asoslariga bog'lik. Ijtimoiy rejalashtirishning tashkil topishidagi asosiy omillardan yana biri korxonalar jamoasining ijtimoiy taraqqiyotini ilmiy usul asosida boshqarishdir. Ijtimoiy adolat, tenglik va erkinlikni ta'minlash, odamning rivojlanishiga halakit beruvchi barcha to'siqlarni bartaraf qilish, shaxs bilan jamoa, jamiyat manfaatlarini okilona baholash kabilar ijtimoiy rejalashtirishning muhim maqsadi. Rahbarlar, jamiyat tashkilotlari insoning Mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash to'g'risida doim gamxurlik qilgan joyda kishilar o'zlarining yaxshi ishlashlari bilan javob beradilar va aksincha, birinchi o'ringa fakat ish (maxsulot, xizmat ko'rsatish) birliklari quyilgan, Mehnatkash xaqidagi gamxurlik chekkaga surib quyilgan joyda, odatda, reja topshiriklari ham bajarilmaydi. Bunday korxonalarda jamoalar barqaror emas, hodimlar kunimsizligi katta, kishilar o'z Mehnatlaridan konikmaydilar. Tabiiyki, bunday sharoitlarda Mehnat unumdorligi keskin pasayadi. CHunki hodim, garchi u

yuksak malakaga ega bo'lsa ham, yangi ish joyida bir necha oy davomida avvalgi unumiga erisha olmaydi.

Kishilar to'g'risida gamxurlik qilish va ularning iqtisodiyotini rivojlanishiga kushadigan muayyan ulushi o'zviy dialektik birlikdir. Korxonalar jamoalarining ijtimoiy rivojlanishining rejalarini ishlab chiqishda katta kiyinchiliklardan biri shuki, har xil korxonalar mos keladigan tashkiliy shakillar yo'q desa bo'ladi (olim va mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan ko'pgina holis va noholis, aksariyat ijtimoiy jarayonlarning rejalashtirish sohalarini kengaytirish va chuqurlashtirishga qaratilgan). Ma'lumki ijtimoiy rejalashtirishning ob'ekti – bu har xil ijtimoiy guruhlarni tarkib toptiruvchi odamlar, ayni vaqtda shaxsdir, maqsadi – har tomonlama rivojlangan, ma'naviy barkamol shaxsni voyaga yetkazish uchun sharoit yaratishdir. Korxonalar jamoasining tuzilishini o'rganish ijtimoiy rejalashtirishga boshlangich ma'lumot beradi. Jamoaning markazida odam, har xil ijtimoiy guruhlar tarkibiga kiruvchi shaxs turadi. Jamoada ijtimoiy o'zgarish (siljish) shaxs yoki guruhning ijtimoiy maqsadini o'zgarishida namoyon bo'ladi. SHaxs yoki guruhning ijtimoiy makomini aniqlovchi ko'rsatkichlar ijtimoiy rejalashtirishning mazmunida o'z ifodasini topishi kerak. Avtokorxonalar jamoasining ijtimoiy rivojlanish rejasi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- korxonalar jamoasining ijtimoiy-demografik tuzilishining o'zgarishi:

- Mehnat sharoitini yaxshilash va korxonalar hodimlarining salomatligini muxofaza qilish:

- ijtimoiy-madaniy va turar joy-turmush sharoitini yaxshilash;

- shaxsiy tarbiyalash va Mehnatkashlarning ijtimoiy faolligini o'stirish;

- ish xaqi tulashtirishni oshirish va takomillashtirish.

Ushbu rejalarini ishlab chiqish oddiy emas, ijtimoiy rivojlanishning ommaviy o'sishi rejalashtirishning nazariyasini va ta'limotini tarakkiy etishini muhim masala qilib kuydi. Natijada bir qator tajribalar umumlashtiriladi va keng miqyosda qo'llanila boshlandi. Ammo Bular chegara bo'la olmaydi, chunki nazariya va amaliyot doimo rivojlanishda biri biriga ta'sir qiladi, g'oyalar, mafkuralar va ma'lumotlar almashinadi. Demak, ijtimoiy rejani ishlab chiqishda mutaxassislardan

doimo ijodiy bilim va Mehnat talab qilinadi. Ijtimoiy rejalashtirishning amaliy holati va o'sishiga yo'nalishi o'z navbatida ko'pgina muayyan ijtimoiy jarayonlarni chuqurroq tushinishga imkon beradi, Oqibatda uning ta'limoti va uslubi takomillashtiriladi. Fakat fan va ijtimoiy amaliyotning hamkorligi ijtimoiy rejalashtirishning rivojlanishiga muhim kadam bo'lib xizmat qiladi. Dolzarb muammolardan biri ijtimoiy rejalashtirishning maqsadlarini aniqlashdir. Ijtimoiy rejaning ishlab chiqish usuliga va amalga oshirilishi uchun jamoani keng va jadal jalb etilmay turib foydali ijtimoiy rejalashtirishga erishish mumkin emas. Korxonada rejalashtiriladigan va rejalashtirilmaydigan jarayonlarni ajratish va tahlil qilish ularning mexanizmlarini o'rganish va andozalashning tizimli yo'lini ta'minlaydi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Jamiyatning iqtisodiyot qonuni deganda nimalarni tushinasiz?
2. Jamiyatning taraqqiyot qonuni avtokorxonalarda qanday tahlil qilinadi?
3. Iqtisodiyot qonuni bilan taraqqiyot qonunini farqi nimada?
4. Ijtimoiy rejalashtirishning tashkil topishidagi asosiy omillari deganda nimalarni bilasiz?
5. Ijtimoiy rejalashtirishning ob'ekti nima?
6. Ijtimoiy izlanishlar qanday o'tkaziladi?
7. Ijtimoiy rejalashtirish qanday rejalardan iborat?
8. Korxonalarni ijtimoiy rejalashtirishdan maqsad.

Tayanch iboralari.

1. Jamiyatning iqtisodiyot qonuni.
2. Jamiyatning taraqqiyot qonuni.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тақдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Ўзбекистон 1997-326 бет.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон сиёсий ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Т. 1995й.
3. Косимов Г.М. Транспорт корхоналарида менежмент Т.Ўзбекистон, 2001 йил 448 бет.
4. Косимов Г. М. И др. Экономика Ўзбекистана на современном этапе. Ученое пособие Т. Мехнат 1992 г. 125 с.
5. Йўлдошев К., Муфтайдинов К. Иқтисодий билим асослари. Ўқитувчилар учун қўлланма (масъул муҳаррир: А. Сотволдиев) Т. Ўқитувчи 1997 й. 228 б.
6. Глухов В. В. Основы менеджмента. Учебно – справочное пособие. Санкт-Петербург: Специальная литература 1995-327с.
7. Косимов Г. М., Саматов Г. А. Организация и управление в автотранспортных предприятиях учебник Т. 1991-80с.

8. Румянцева З. П. Менеджмент организации. Учебное пособие м. Инфра-м. 1996-432с.
9. Косимов Г. М. Автотранспорт корхоналарида иқтисодий механизмни такомиллаштириш. Т. Ўзбекистон 1989 й.
10. Громов Н. Н., Персианов В. А., Управление на транспорте учебник для вўзов. М. Транспорт 1990-336с.
11. Вихий О. С., Наумов А. И. Менеджмент, человек, стратегия, организация, процесс. Учебник М. Изд-во МГУ 1995-416с.
12. Ўзбекистон Республикасининг автомобиль йўллар комплексини бозор иқтисодиёти шароитида ривожланиши. Республика, илмий-техникавий маколалар тўплами 16-18 сентябрь.
13. Улмасов А., Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси. Ноиқтисодий укув юртларига дарслик Т. Мехнат 1995-432 б.

12-Mavzu: Transport komplekslarini boshqarish asoslari va tamoyillari. Xudud miqiyosida texnik tizimlar boshqaruvini shakillantirishning asosiy tamoyillari.

Korxonalar xo'jalik yuritish usullari va ularning tamoyillari.

REJA:

1. Xo'jalik hisobining mohiyati va mazmuni.
2. Xo'jalik hisobini amalga oshirish tamoyillari.
3. Boshqarishning amalga oshirish mexanizmlari.
4. Korxonada xo'jalik hisobini tadbiq etish va undan foydalanish tartibi.
5. Mehnatga xaq tulashtirish jam'garmasini aniqlash usuli.
6. Ijara munosabati sharoitida xo'jalik hisobining rivojlanishi.
7. Korxonalar jamoasining ijara munosabatiga o'tkazish.

1.Xo'jalik hisobining mohiyati va mazmuni.

Korxonalar o'z faoliyatini xo'jalik hisobi va tijorat hisobi usullari yordamida amalga oshiradilar. Korxonalar ixtiyoriylik asosida ittifoqqa, xo'jalik uyushmalariga, kontsernlarga hamda faoliyatni muvofiklashtirish, ularning huquqlarini ximoya qilishni ta'minlash, tegishli davlat organlari va o'zga organlarda, shuningdek, xalqaro tashkilotlarda umumiy manfaatlarni ximoya qilish maqsadida tarmok, mintaka, xududli yoki o'ziga tamoyil asosida boshqa birlashmalarga kushilishlari mumkin.

Xo'jalik hisobi iqtisodiy kategoriya sifatida davlat bilan uning quyi xo'jalik bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlar tizimini tashkil etadi, bu tizim orqali Mehnat jamoalari manfaatlari bilan davlat manfaatlarining birligiga erishiladi. Xo'jalik hisobi yuqoridan beriladigan bo'yruklar, xo'jalikni yuritish, davlat mulkidan samarali foydalanish xaqidagi ko'rsatmalarini shaxsiy va umum manfaatlar bilan boglashning iqtisodiy usulidir. Xo'jalik yuritishning talablari, shakllari, tashkil toptirish, hisoblash tartibi, korxonalar huquqini kengaytirish, iqtisodiy me'yornomalar tizimi, xaq tulashtirish jam'garmasini aniqlash usuli, ijara munosabatlari, xo'jalik yuritish shakllarining rivojlanishlari hamda ijara, xissadorlik korxonalari, assotsiatsiyalar, shaxsiy Mehnat faoliyatlari respublikamizning tarakkiy etishiga poydevor bo'ladi. Har xil mulkchilik shakllari (davlat mulki; uning tasarrufidan chiqarish-ijara munosabatlari, xususiyashtirish, xissadorlik; jamoa mulkini-davlat mulkini korxonalar jamoasi sotib olishi, badal tulashtirish korxonalar kurish, aksiyalar chiqarib, ularni sotish yoki shu kabi boshqa yo'llar orqali paydo bo'ladi, kooperativ mulki; shaxsiy mulk, kushma mulk) uchun xo'jalik hisobi munosabatlarining shakllari bir xil emas. Xo'jalik hisobining taksimlash mezoniga karab ajratish shakllari tulashtirish bilan boglanib kolmaydi. Jumladan, soliklar, chegirmalar me'yori va turlari o'zgaradi. Ikkinchi tomondan, korxonalar mulklarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish xo'jalik yuritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tojorat hisobiga e'tiborni oshiradi. Davlat korxonalari o'z faoliyatlarini tojorat hisobi bo'yicha xususiy korxonalar esa korxonalar xujayinlikni (egallikni) rivojlantirish talablari asosida yurgizadi. Tulashtirish-xo'jalik yuritish yutuqlariga va bozorga mo'ljallangan hamda iqtisodiy tahlilni tushinib yetishini yaxshilash va xuddi shu yusunda raqobatlashishi kobiliyatiga yetishishdir. Xususiyashtirish-ishlab chiqarish vositalariga xususiy egalik qilishga, xususan avtomobilga TXK da esa xususiy raqobatli iqtisodni yaratishga, xizmat ko'rsatish vositalarini okilona ishlatishdagi sifatli texnik xizmat ko'rsatishga asoslangan. Tulashtirish-hodimlarni o'ziga xos foydalanish harajatlari, ijtimoiy xizmat harajatlari bo'yicha ta'minlashini kamaytirish; bozorni yaxshi o'zlashtirish va xizmat xaqini oshirish hisobiga daromadni oshirish tushiniladi.

Xususiylashtirish-mablag berish, ishchi kuchlarini bushatish, siyosiy nazoratni bushashtirish, menejmentning bo'lmashidir.

2.Xo'jalik hisobini amalga oshirish tamoyillari.

Korxonada xo'jalik hisobining mohiyati uchun asosiy tamoyillari orqali namoyon bo'ladi. Bu asosiy tamoyillar, bo'g'inlar, brigadalar, tseklar, butun bir korxonaning o'zlariga dalolatnoma bilan birlashtirilgan asosiy mablaglar va ajratilgan moddiy va pul vositalaridan tezkor-xo'jalik jihatidan mustakillik o'z-o'zini koplash va foydaliligini, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish rentabelligini ta'minlash; xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish jamoalarining o'z Mehnati natijalaridan moddiy manfaatdorligi va moddiy mas'uliyati, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish jamoalarining faoliyat natijalariga bog'likligi; so'tka, un kunlik, oy, chorak, yil va boshqa davrlardagi pirovard natijalari bo'yicha bo'linmalar faoliyatini baholash, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarishning hal kiluvchi muhim «tor» nuqtalariga iqqilamchi nazoratlar urnatish va bundan ishning rentabelligi ta'minlansa, nazorat qilishni amalga oshiruvchi mas'ul shaxslarga mukofot berish.

Xo'jalik hisobini amalga oshirganda har bir korxonada eng kam Mehnat va mablag sarflagan xolda xizmat ko'rsatishini yoki ishlab chiqarishni ta'minlashi, maxsulotni harid yoki savdo qilishidan tutgan mablag korxonada harajatlarini koplashi bilan birga, foyda ham berishga erishishi lozim. Xo'jalik hisobida faoliyat ko'rsatadigan korxonada xizmat ko'rsatish jarayonini amalga oshirish uchun asosiy va aylanma mablaglar bilan ta'minlanadi, kredit olish huquqiga ega bo'ladi. U davlat tomonidan ajratilgan mulkdan foydalanish, unga egalik qilish huquqini amalga oshiradi. Xo'jalik hisobi asosida ishlovchi korxonada mustakil muvozanatda bo'lib, xo'jalik faoliyati natijalarini hisobga olishning tugal tizimiga ega. Bankda uning hisob rakami bo'lib, belgilangan tartibda uning o'zi xom ashyo yetkazib ta'minlaydi. Xo'jalik yuritishning bunday sharoitida korxonalariga davlat buyurtmasi cheklangan bo'ladi. Amaliy faoliyatda xo'jalik yuritishdagi xo'jalik hisobi usulining barcha tamoyillaridan mohirona va majmun foydalanish ayniksa zarur.

3.Boshqarishning amalga oshirish mexanizmlari.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlat boshqaruvi va nodavlat boshqaruv usullarida bo'ladi. Ikkinchi guruh har xil uyushmalar va bozorlarda sotish, olish, foydalanish va baholash xaqida kelishuvlar bilan bog'lik, shuningdek mablag jamgarmasi, maxsulotlar, yarmarkalar, ulgurji savdo markazlari, chet el pullarida «kim oshdi» savdosi, axborotlar tizimi kabilar xaqida shugullanuvchi oliy instito'tlar bilan bog'lik. Buning uchun bozor tizimi katta imkoniyatlarga ega. Davlat boshqaruvi usulidagi ATK va avtomobillarga TXK korxonalari ta'minlovchi korxonalar va fukarolar, tashkilotlar orasda tuzilgan shartnomalar va avtomobil egalarining buyurtmalariga asoslanadi. Bozor mexanizmini tuldirish va o'zgartirishda davlat asosida kuch bo'lib koladi. Ijtimoiy xayotning har xil sohalariga ta'sir etib davlat har qanday jamiyat xayotida muhim vazifasini bajaradi. Davlat tasarrufidan chiqkan korxonalarining soni ko'payib boradi. Rejalashtirishni yangicha ishlab chiqish tartibi va shu usullar tavsifining tarkibiy kismiga quyidagilar kiradi: o'zok muddatga bashorat qilish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanishini rejalashtirish iqtisodiyot taraqqiyotining asosiy muammolarini fikrlash tizimini aniqlash va ishlab chiqish. SHunday qilib, samarali, yuqori Mehnat unumiga erishish yo'li cheklanmagan Mehnat qilish va Mehnat xaqi olishga imkoniyatlar yaratishdan iborat, ish xaqi uchun olingan pul hisobiga inson o'zi uchun zarur deb bilgan barcha maxsulotlar va xizmatlarga ega bo'lishi mumkin. SHuni bilish kerakki, u kim bo'lmasin, o'kituvchimi yoki talaba, rahbarimi yoki oddiy ishchi – u har kadamda boshqarish bilan tuknashadi. Misol uchun: «avtomobilga o'tirdi va xaydab ketdi» (tirik bo'lmagan tabiatni boshqarish), «kitobni olib ber, uglim» (odamni boshqarish). Demak boshqarish jarayonlarini biz har yerda kuzatamiz-tirik organizmlarda ham, inson yaratgan avtomobillarda ham, biz yashab turgan jamiyat ham, faoliyat ko'rsatayotgan jamoalarda ham. Odatda uchta asosiy boshqarish sohalariga: tirik bo'lmagan (bu yerda inson ongiga nisbatan) tabiatlar, jamiyatlar ajratiladi. Korxonahodimlari odamlar orkali ta'sir etib, mijozlar va yo'lovchilar tashish va aholining avtomobillarga TXK va harid xizmatini bajarish uchun boshqarish qonuni, iqtisod qonuni, boshqarish vazifalari, boshqarish tamoyillari, boshqarish usullari kabi mexanizmlardan foydalanadilar.

Quyidagi boshqarish qonunlari ma'lum: boshqarishda jamiyat, alohida Mehnat jamoalari va har bir ishchi manfaatini boshqarishda to'g'ri va okilona moslashtiradigan boshqarishning tizim birligi qonuni; ishlab chiqarishning mulkchilik shakliga mos boshqarishning ijtimoiy qonuni; boshqarishning su'ekt va ob'ektlarini o'zaro bog'liklik qonuni; boshqarishning sub'ekti va ob'ekti orasidagi to'g'ri va teskari bog'liklik qonuni; ishlab chiqarishning ijtimoiy, o'zluksiz va samarali boshqarish qonuni; boshqarish vazifalarining o'zgarish qonuni; boshqarishning vazifalarini asosiy lashtirish qonuni; boshqarishning pogonalar sonini saqlash qonuni; nazorat qilishning tarkalganlik qonuni; boshqarishning ta'sir etish qonunlarining birlik qonuni. Boshqarish tizimi va boshqarish ob'ekti nimalar qilishi kerakligini ifodalovchi ishlar turi-bu boshqarishning vazifasidir. Boshqarish doirasida Mehnatni taksimlash Oqibatida vazifalar ajratiladi, ular quyidagilar: tashkil etish, rejalashtirish, hisobga olish, tahlil qilish, nazorat qilish, bashorat qilish, moyillik, yechim qabul qilish, Mehnat resurslarini samarali boshqarish, unumdorlikni boshqarish. Korxonada faoliyatini boshqarishda qo'llaniladigan mexanizmlardan biri boshqarishning tamoyillari, ular quyidagilar: ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, siyosiy.

Boshqarish usullari: ma'muriy-huquqiy usullar, iqtisodiy usullar, ijtimoiy-ruxiy usullar, mafkuraviy usullar, tashkiliy usullar.

SHunday qilib korxonani boshqarish fakatgina boshqarishning qonunlari, usullari, vazifalari tamoyillari xaqida bilimlar talab qilibgina kolmasdan, samarali ishlab chiqarishga olib keluvchi muayyan xo'jalik holatlarini hisobga olgan xolda bir vaqtda ularning har xil kombinatsiyalarida qo'llash lozim.

4. Korxonada xo'jalik hisobini tadbiiq etish va undan foydalanish tartibi.

Mehnat jamoalari xizmat ko'rsatish faoliyatining xususiyatini hisobga olgan xolda xo'jalik hisobining u yoki bu iqtisodiy andozasini tanlaydilar, ularning har biri o'ziga xos xo'jalik hisobi daromadini vujudga keltirish va taksimlash usullarini belgilaydilar. Xo'jalik hisobining birinchi andozasida ATK ning foydasini belgilangan me'yor bo'yicha taksimlanadi. Undan davlat byudjetiga daromad soligi va ish bilan ta'minlash jamgarmasiga ajratma o'tkaziladi. Sungra xosil bo'lgan korxonaning xo'jalik hisobidagi foydasidan yuqori muassasalar uchun kelishilgan

shart asosida pul mablagi ajratiladi. SHundan keyin korxonaning ixtiyorida kolgan foyda, shu korxonaning nizomiga asosan, quyidagi jamgarmalarga taksimlanadi:

- moddiy ragbatlantirish;
- jamoaning ijtimoiy rivojlanishi;
- ishlab chiqarish, fan va tenika taraqqiyoti.

Keyingi ikki jamgarmadan esa besh foiz hisobida ATK ning zaxirasidagi jamgarmasi xosil qilinadi. Xo'jalik hisobining bu andozasida ish xaqi va moddiy ragbatlantirish mablaglari alohida vujudga keltirilmaydi, aksincha «Mehnatga xaq tulashtirish yagona jamgarmasi» bunyod etiladi. Xo'jalik hisobining 1 andozasida iqtisodiy ragbatlantirish jamgarmasining miqdorining o'zgarishi olingan foydaning o'zgarishiga bevosita bog'lik bo'ladi. Ammo jamoaga tulanadigan ish xaqiga uning xo'jalik hisobi faoliyatining natijasi ta'sir etmaydi, chunki ish xaqi va moddiy ragbatlantirish jamgarmalari alohida bunyod etiladi. Masalan, agar jamoa ko'p yoki oz foyda kursa ham bu asosiy ish xaqiga ta'sir ko'rsatmaydi, u har qanday holatda o'zgarmay kolaveradi. SHuni takidlash kerakki korxonaning ishchi va xizmatchilariga tulanadigan maosh me'yordagi ish xaqi jamgarmasidan hamda korxonaga ko'rgan foydani me'yori bo'yicha taksimlangan moddiy ragbatlantirish mablagidan qo'shimcha mukofot ko'rinishida xosil bo'ladi. SHunday qilib ATK ning jamoasi 1 andozani tanlab ish xaqi darajasining kam o'zgarishiga ega bo'ladi. Xo'jalik hisobining 2 andozasida ish xaqi va moddiy ragbatlantirish mablaglari birgalikda kushilib «Mehnatga xaq tulashtirish yagona jamgarmasini» xosil qiladi. Agar birinchi xolda ragbatlantirish jamgarmasining ulchami fakat olinadigan foydaga bog'lik bo'lgan bo'lsa, ikkinchisida xo'jalik hisobi daromadining miqdori ragbatlantirish va ish xaqi jamgarmasi ulchamlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi, ya'ni daromad qancha yuqori bo'lsa, ular shuncha ko'p bo'ladi. Mehnatga xaq tulashtirish yagona jamgarmasini vujudga keltirish qator afzalliklarga ega. Avvalo u ishlab chiqarish jamgarmalaridan samarali foydalanish bilan hodimlar oladigan pul ulchami orasidagi bog'liklikni o'ta aniq ifodalaydi. Agar xo'jalik hisobining 1 andozasi me'yorga muvofiq foydani taksimlashga asoslangan bo'lsa, moddiy ne'matlarni tejash yoki bexuda sarflash fakat iqtisodiy ragbatlantirish mablagining

ulchamiga ta'sir etsa, ikkinchi andoza barcha Mehnatga xaq tulash jamgarmasiga o'ta ta'sirchidir. Ikkinchi andoza ne'matlarni jadal tejashga qaratilgan, barcha jamoaning Mehnat samaradorligini oshirishga moddiy kizikishni kuchaytiradi.

5.Mehnatga xaq tulash jam'garmasini aniqlash usuli.

Mehnatga yalpi daromaddan xaq tulashni qo'llash mamlakatning ko'pgina xo'jaliklarida ijobiy natijalar bermokda. Yalpi daromadning ko'rsatkichi Mehnat me'yorini va uning pulli bahosi bilan o'ta bog'lik. Mehnat me'yorini pulli baholash savollarini karab chiqishda avvalo umumiy, jonli va zarur Mehnat me'yorini aniqlashda manfaatdorlik paydo bo'ladi.

Xo'jalik hisobining 2 andozasida jamoa oladigan daromadni quyidagicha taksimlaydi:

-tashish va boshqa xizmat ko'rsatishdan tushgan pul ($V = D_{\beta}$)

-qo'shimcha daromad soligini ayrib tashlagandagi korxonada daromadi.

$D = B - 0,17(V - M3)$, sum

V-tashish va boshqa xizmat, ishlardan tushgan pul, sum;

0,17-qo'shimcha daromadga solik koeffitsenti.

M3-moddiy harajatlar, sum korxonaning hisobidagi daromadi.

$D_p = D - M3 - O_{cd} - O_s - O_f - z$ sum

O_{sd}-avtomobil yo'llari kurilishi va undan foydalanish uchun 2% tashish daromadidan ajratmalar miqdori, sum

O_s-ijtimoiy sugo'rta ajratmasi, sum

O_{f-z}-ish bilan ta'minlash jamgarmasiga ajratma, sum.

-korxonaning xo'jalik hisobidagi daromadi

$D_x = D_r - N_b$, sum

N_b-davlat byudjetiga daromad soliklari.

-korxonada nizomiga ko'ra taksimlanadigan xo'jalik hisobidagi daromad.

Mehnatga xaq tulashning yagona jamgarmasi quyidagicha topiladi:

$E_{fot} = D_x - F_{rp}$, NT-FSR-FR sum

FRP, NT-ishlab chiqarish, fan va texnika taraqqiyotining jamgarmasi, sum

FSR-ijtimoiy taraqqiyot jamgarmasi, sum

FR-korxonaning zaxira jamgarmasi, sum


Mehnatga xaq tulashning yagona jamgarmasi xaqiqiy ish xaqi va moddiy ragbatlantirish jamgarmaliridan tashkil topgan bo'lib, oy yoki choraklar davomida ish natijalariga karab korxonaning barcha hodimlariga bo'lim va bo'linmalari orkali tulanadi.


6. Ijara munosabati sharoitida xo'jalik hisobining rivojlanishi.

Ko'pgina avtokorxonalar ijara munosabatiga o'tib ishlamokda. Kelajakda tarmokning korxonalari va tashkilotlari har xil mulkchilik shaklida xo'jalik yuritishga o'tadilar. Xo'jalik yuritishning asosiy shakli avtokorxonalarining jamoalari asosiy vositalarni tula yoki kisman sotib olish huquqi bilan ijara munosabatiga o'tib ishlaydilar. Kichiq korxonalarni davlat tasarrufidan chiqib xususiy mulkchilikka o'tkazilmokda. Kelajakda korxonalar, tsexlar, korxonaning boshqa bo'linmalari, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari, yer va boshqa tabiiy ne'matlar ijaraga keng kulamda beriladi, chunki ijara munosabati xo'jalik hisobidan kat'iy farqga ega emas. SHunday ekan, bozor munosabatiga o'tish davrida xo'jalik yuritish mexanizmining ommaviy tarkibiy kismidir. Kelajakda ijarachilik, yakka Mehnat faoliyati ko'rsatish, kichiq korxonalar, kichiq xususiy avtokorxonalar va shirkatlar o'ta rivojlanishiga ega bo'ladilar. Bunday istiqbolli xo'jalik yuritish shakllari yuk mijozlari va yo'lovchilarni avtomobil transporti xizmatiga bo'lgan talablarning o'zgarishiga moslashgan xolda joylashishi va rivojlanishi mumkin. Kichiq korxonalar, yakka Mehnat faoliyati ko'rsatish, kichiq xususiy korxonalarining sezilarli ustunligi kurilish muddatini va o'zlashtirilishini qisqartirilishidan iborat, ijara munosabatida xo'jalik hisobini o'ta aniqlik bilan va tejamlik joriy qilishidadir, mahalliy va milliy talablarni kondirishga tezkor kirisha olishidadir, Mehnat resurslaridan samaralirok foydalanish va hodimlarning anchagina kismi boshlangich tayyorgarlikni o'tishida o'ziga xos xizmat ko'rsatish maydoni hamdir. Yakka Mehnat faoliyati Pol'sha, Vengriya, Germaniya, AQSH, V'etnam, Xitoy, Bolgariya va boshqa bir qator mamlakatlarda keng tarkalgan. O'zbekistonda esa shaxsiy Mehnat faoliyati (shmf) tarkib topish va rivojlanish bosqichida. SHaxsiy kichiq korxonalar chegaralangan

javobgarlik bilan jamiyat misolida tarkib topishi mumkin, bunda har kim o'z mulkining xissasi bilan ishtirok etadi. Kichiq korxonani tuman, shahar xokimligi ruyxatdan o'tkazgach, hisobli rakam olishi uchun xujjatlarni tayyorlash kerak va nixoyat faoliyat ko'rsatish mumkin. Xaydovchilarning shaxsiy Mehnat faoliyatida tijorat hisobi qo'llanilishi kengayadi. Unda har bir avtomobil xaydovchisi uchun taalukli bo'lib, uning Mehnatini o'ziga yarasha ish xaqi bilan ta'minlashga qaratilgan (21-chizma). SHaxsiy daromaddan shaxsiy harajatlar, ustama harajatlar, turli tulovlar, soliklar chegirib tashlanadi kolgani ish xaqiga beriladi.

Avtomobil transporti ishining narxi hamma xaydovchilar uchun birdek, lekin ish xaqining ko'payishi xaydovchining maxoratiga bog'lik bo'lib koladi asosan xaydovchi orkali boshqariladi. Ijara munosabatiga o'tgan avtokorxonaning moliyaviy mablagi tashish va boshqa xizmat, ishlardan, karzdan, kimmatbaho kogozni sotishdan va boshqa sarflangan moliyaviy vositalardan tushgan pul hisobiga vujudga keladi. Ijara munosabatidagi avtokorxonaga Mehnatga xaq tulashning yagona jamgarmasini taksimlash tula huquqli o'z ixtiyorida koldiriladi. Bunda butun avtokorxonaga faoliyatining pirovard natijasida bajarilgan ishlarning murakkabligi va har bir tuzilish bo'linmalarning katnashish darajasiga karab Mehnatga xaq tulash tizimi va shakllarini, ish kunining tartibi xaq tulash tizimi va shakllarini, ish kunining tartibi va o'zunligini, ishning smenaliligini, dam olish kunlari va ta'tillar berish tartibini avtokorxonaga jamoasi mustakil hal qiladi.





21-chizma. SHaxsiy Mehnat faoliyatida ishlovchi-xaydovchining tijorat hisobi uchun iqtisodiy andozasi.

Avtokorxonaning xususiyatlariga karab avtokolonnnalar, brigadalar, ta'mirlash ustaxonalari, alohida xaydovchilar, chilangarlar va boshqa ijara munosabatlariga o'tishlari mumkin. Ijara munosabatiga o'tib ishlaganlarida, ular faoliyatini boshqarish tizimida o'zgarish paydo bo'ladi. Eng asosiysi-o'zini-o'zi boshqaradi. Masalan; avtomobilni ishga tayyorlashda ta'mirlovchi yoki chilangarni malakasi konikarli bo'lmasa yoki unga ish xaqi tulashni istamasa, barcha TXK va JT ishlarini xaydovchilarning o'zi bajaradi. Xuddi shuningdek, extiyot kisimning kerakli detalini oladi, keraksizini olmaydi. Ikkinchi bir tomondan xaydovchi o'z-o'zini majbur etib, ma'lum bir me'yordagi daromadni topshiradi, aks xolda, harajati daromaddan sezilarli ortib ketsa oylikni kam oladi, sababini izlash jarayonida yaxshi ishlaydiganlar safiga o'ta boshlaydi, o'z-o'zini boshqarish kuchayadi. Yana bir xususiyati shundaki, shaxsiy xo'jalik hisobida ikki-uch yil ishlansa, korxonaning boshqaruv apparatlarida hodimlarni qisqartirish imkoni yaratiladi. SHaxsiy xo'jalik hisobining tajribalarini jamoa orasida targib qilish xizmat ko'rsatish kasb malakasiga bo'lgan kizikish kuchayadi.

7. Korxonaga jamoasining ijara munosabatiga o'tkazish.

Korxonaga jamoasini ijaraga munosabatiga o'tkazishning taxminiy tarkibi quyidagicha:

-korxonaning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil etiladi;

-ijaraga o'tkazish imkoniyatlari baholanadi;

-mulklarni ijaraga berish xaqida shartnoma tuzish;

-ijara jamoasining daromadini bunyod etish va taksimlash andozasini bunyod etish va taksimlash andozasini tanlash;

-korxonadagi avtomobilda tashishning rejali harajatini hisoblash;

-ijara jamoasining nizomini tasdiqlash;

-korxonaning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati, ilmiy-texnik va ijtimoiy faoliyati va uning boshqa korxonalar bilan o'zaro munosabati xaqidagi nizomni tasdiqlash;

-ijara jamoasi tomonidan kimmatbaho kogoszlarni chiqarish tartibi xaqidagi nizomni tasdiqlash;

-davlat mulkini sotib olish tartibini tasdiqlash;

-ijara jamoasining Mehnatga xaq tulasini yagona jamgarmasini bunyod etilishi va foydalanishi xaqidagi nizomni tasdiqlash;

-ijara sharoitida Mehnatga xissa kushish boshqaruv ma'muriyati va bo'limlarini baholaydigan ko'rsatkichlarini hisoblash;

Ijara munosabatiga o'tgan korxonaning moliyaviy vositalari tashish va boshqa xizmat, ishlardan, karzdan, kimmatbaho kogosni sotishdan va boshqa sarflangan moliyaviy vositalardan tushgan pul hisobiga vujudga keladi. Ijaradagi korxonaning tula ixtiyorida kolgan foydaning vujudga kelishi quyidagi formulada keltirilgan:

$P=V-O-M3-N-An-Cn-Of-z$, sum

V-tashish va boshqa xizmat, ishlardan tushgan pul, sum

O-avtomobil yo'l kurilishi va kayta tuzilishiga 2% chegirish

M3-moddiy harajatlari (yonilgi, material, amartizatsion chegirma va boshqalar);

N-soliklar (ulpon)

An-ijara xaqi;

Cn-sugo'rta tulovlari;

Of-z-ish bilan ta'minlash jamgarmasiga ajratma

Kolgan foyda «P» ijaradagi korxonaning tula ixtiyoriga o'tadi va shunga karab foydadan foydalanishning asosiy yo'nalishlari mustakil aniqlanadi. Ijara munosabatidagi avtokorxonada Mehnatga xaq tulashning yagona jamgarmasini taksimlash tula huquqli o'z ixtiyorida koldiriladi. Bunda butun korxonada faoliyatining pirovard natijasida bajarilgan ishlarning murakkabligi va har bir tuzilish bo'linmalarining katnashish darajasiga karab Mehnatga xaq tulash tizimi va shakillarini, ish kunining tartibi va o'zunligini, ishning smenaligini, dam olish kunlari va ta'tillar berish tartibini korxonada jamoasi mustakil hal qiladi. Barcha ijarachi korxonalariga bitta jiddiy xo'jalik yuritish sharti quyiladi. Maxsulot, shu jumladan transport maxsuloti, ijarachilar tashkil etgan bo'lishiga karamasdan, vaxolanki u xususiy bo'lishiga karamasdan shu maxsulotni ijarachilar davlat korxonalarini uchun mo'ljallangan ulgurji yoki shartlashgan baho (tarif) tartibda harid etadilar. SHu tartibda ijarachilar tashkiloti barcha moddiy texnik mablaglarni sotib olishlari mumkin. Ijaradagi korxonada o'z faoliyatining natijalarini hisobga oladi, hisobchilik va statistik hisobotlarni davlat shirkatlari uchun belgilangan tartibda olib boradi. Ijarachi ijara mulkini tula yoki kisman sotib olishi mumkin. Sotib olish sharoiti, tartibi va muddati ijara shartnomasida aniqlangan bo'ladi. Sotib olish ijarachi tomonidan ijaraga beruvchiga ijara xaqini tulash yo'li bilan amalga oshiriladi. Sotib olish uchun ijara korxonasida bo'lgan har qanday vosita jamgarma bo'lishi mumkin. Ijara mulkini ijarachi korxonada sotib olgandan keyin Mehnat jamoasining yechimiga binoan u jamoa korxonasiga, shirkat aksionerlik jamiyatiga yoki boshqa ko'rinishdagi jamoa mulkchiligiga asoslangan korxonaga o'tishi mumkin.

Ichki xo'jalikda ijara munosabati.

Ichki xo'jalikda ijara munosabati davlat korxonasi va uning bo'linmalari Mehnatkash guruhlar yoki alohida Mehnatkashlar orasida bo'lishi mumkin. Tula xo'jalik hisobidagi korxonadan ichki xo'jalik hisobining tafovo'ti ichki bo'linmalar faoliyatini samarali tashkil etishda xo'jalik hisobining ba'zi bir talablari va unsurlarining foydalanilishi bilan farq qiladi. Korxonaning bo'linmalari yuridik shaxs

huquqiga ega bo'lmaydi, ya'ni mustakil hisobchilik muvozanatiga ega emas, ularga kamrok ko'rsatkichlar beriladi. Ichki xo'jalik hisobida faoliyat ko'rsatayotgan bo'linmalar jamoa kudratiga asoslanib xo'jalik yuritadilar, mulklarni karzga olish elementlaridan foydalanadilar. Ijara pudratidagi bo'linmalar korxonaning buyurtmasi bo'yicha tashish va boshqa ishlar bajarishlari shart. Korxonaning xususiyatlariga karab avtokolonmalar, brigadalar, ta'mirlash ustaxonalari, alohida xaydovchilar ishchilar va boshqalar ijara munosabatlariga o'tishlari mumkin. Ijara munosabatiga o'tuvchi bo'linmalar uchun ijara bo'linmalar jamoasi bilan korxonaga ma'muriyati o'rtasida yozma ravishda tuzilgan shartnoma asosiy xujjat bo'lib xizmat qiladi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Xo'jalik hisobining mohiyati nima?
2. Iqtisodiy usul bilan xo'jalik hisobi birmi?
3. Xo'jalik yuritishning poydevori bo'lib nimalar kirishi mumkin?
4. Xo'jalik hisobi bilan xo'jalik mexanizmining farqi nimada?
5. Tijorat hisobi nima?
6. Xo'jalik hisobida faoliyat ko'rsatayotgan korxonaga davlat buyurtmasiga qanday munosabatda bo'ladi?
7. Xo'jalik hisobida faoliyat ko'rsatayotgan korxonaga davlat buyurtmasiga qanday mungosabatda bo'ladi?
8. Korxonalarni davlat va nodavlat boshqaruvi usullaridagi farqlari nimada?
9. Korxonada boshqarish qonuni, iqtisod qonuni boshqarish vazifalari, boshqarish tamoyillari, boshqarish usullarining farqi nimada?
10. Xo'jalik hisobining andozalarida qanday farq bor?
11. Mehnatga xaq tulashtirish jamgarmasi qanday aniqlanadi?
12. Xo'jalik hisobining ikkinchi andozasida daromad qanday taksimlanadi?
13. Ijara munosabatida xo'jalik hisobining mohiyati va istiqboli nimada?
14. Ijara munosabatida tijorat hisobini qo'llash doirasi qanday?
15. Ijara munosabatiga o'tib ishlanganida boshqarish tizimida qanday o'zgarish bo'ladi?
16. Ijara munosabatida o'z-o'zini boshqarish nima?
17. Korxonaga jamoasini ijara munosabatiga o'tkazish tartibi nimalardan iborat?
18. Ijarachi korxonaning xo'jalik yuritish sharti nimadan iborat?

Tayanch iboralari.

1. Xo'jalik hisobi
2. Tijorat hisobi
3. Ijara
4. Mehnatga xaq tulashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тақдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Ўзбекистон 1997-326 бет.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон сиёсий ижтимоий ва иқтисодий истиқболнинг асосий тамойиллари. Т. 1995й.
3. Косимов Г.М. Транспорт корхоналарида менежмент Т.Ўзбекистон, 2001 йил 448 бет.
4. Косимов Г. М. И др. Экономика Ўзбекистана на современном этапе. Ученное пособие Т. Мехнат 1992 г. 125 с.
5. Йўлдошев К., Муфтайдинов К. Иқтисодий билим асослари. Ўқитувчилар учун қўлланма (масъул муҳаррир: А. Сотволдиев) Т. Ўқитувчи 1997 й. 228 б.
6. Глухов В. В. Основы менеджмента. Учебно – справочное пособие. Санкт-Петербург: Специальная литература 1995-327с.
7. Косимов Г. М., Саматов Г. А. Организация и управление в автотранспортных предприятиях учебник Т. 1991-80с.
8. Румянцева З. П. Менеджмент организации. Учебное пособие м. Инфра-м. 1996-432с.
9. Косимов Г. М. Автотранспорт корхоналарида иқтисодий механизмни такомиллаштириш. Т. Ўзбекистон 1989 й.
10. Громов Н. Н., Персианов В. А., Управление на транспорте учебник для вузов. М. Транспорт 1990-336с.
11. Вихий О. С., Наумов А. И. Менеджмент, человек, стратегия, организация, процесс. Учебник М. Изд-во МГУ 1995-416с.
12. Ўзбекистон Республикасининг автомобиль йўллар комплексини бозор иқтисодиёти шароитида ривожланиши. Республика, илмий-техникавий маколалар тўплами 16-18 сентябрь.
13. Улмасов А., Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси. Ноиқтисодий укув юртлирига дарслик Т. Мехнат 1995-432 б.

13-Мавзу: Худудий yordamchi xizmatlarni tashkil qilish. Tezkor boshqarish tizimining tashkiliy tarkibi va vazifasi. Korxonada ishlab chiqarish jarayonini tezkor boshqarish.

REJA:

1. Boshqarish ishlarining bajarilishi tartibi.
2. Texnika xizmati ko'rsatish jarayonini tezkor boshqarish.
3. Texnika xizmati ko'rsatish jarayonini nazorat qilish.

1. Boshqarish ishlarining bajarilishi tartibi.

Korxonadagi ishlarni tashkil etish va hisobga olish uchun ishlatiladigan xujjatlar birlamchi va jamlangan guruhlariga bo'linadi.

Birlamchi xujjatlar xo'jalik operatsiyalarining takomillashtirishda tuziladi, masalan, buyurtmachi avtomobalni avtomobillarga TXK korxonasiga topshirayotganda, extiyot kisimlar olayotganda va shunga o'xshashlar. Ishlab chiqarish jarayonini boshqarish uchun tavsiya etilgan xujjatlarning shakli, ularning tuldirlilish tartibini kurib chiqamiz. Buyurtma yechish uchun TXK va JT ni o'tkazishga talabnoma asos bo'ladi. U esa usta-qabul kiluvchi va ishlab chiqarishni tayyorlovchi ustalarda bo'ladi. Talabnoma uch nusxada qabul kiluvchi va buyurtmachi tomonidan tuldirliladi, bittasi ishlab chiqarishning buyurtma- naryadiga kushib quyiladi va keyinchalik buxgalteriyaga yuboriladi. Buyurtma-naryad kat'iy hisobot blankasidir, tasvirchi (usta qabul kiluvchi)da bo'lib hisobda turadi, mashinkada, kopirka (korakogoz) orkali turt nusxada bosiladi. (6-jadval).

6-jadval.

Buyurtma – naryadni tuldirlilish tirtibi.

Operatsiya	Kim tuldirladi	SHaklning tomoni	Tuldirliladigan rekvizitlar
Avtomobil-larni qabul qilishda buyurtma-naryadni tuldirlilish	Tasvirchi (usta-qabul kiluvchi, ishlab chiqarishni tayorlash ustasi	Yuz tomoni (yu)	I. sh, o. i, manzili va telefoni (buyurtmachining), avtomobil egasining ma'lumotlari; avtomobilning rekvizitlari; marka, andoza, kuzovning, dvigatelning nomerlari, rasmiylashtirish kuni, rejada bajarish kuni, kishlok, shahar; tulov kodi. Agar buyurtmachi extiyot kismlar va olib kelgan bo'lsa materiallar, u xolda tegishli grafalar;«Buyurtma rasmiylashtiriladi» grafada davom etuvchi nomerlar va imzolar.
	Buyurtmachi	Yu, O (Orka tomoni	«Buyurtmaning xajmi va boshlangich bahosi bilan roziman, korxonaning xizmat ko'rsatish qoidalari bilan tanishdim» grafasida imzo.
	Gaznachi	Yu, O	Buyurtmaning boshlangich bahosi; kvitantsiya bo'yicha buyurtmani rasmiylashtirish-da olingan pul miqdori; gaznachining imzosi; gaznaning shtampi.
	Usta – qabul Yu,O kiluvchi	Yu, O	«Buyurtmachidan qabul kil-dim» grafasida imzo
	Ishlab		Buyurtmachining I,sh,O. i . tegishli

	chiqarish ustasi	Yu, O	grafada; rejadagi ishni boshlash va tugatish grafasida «kunlar».
Avtomobil-ni ishlab chiqarishga qabul qilish topshirikni berish.	Ijrochi (brigadir)	Yu, O	«Ishlab chiqarishga qabul qilindi» grafasida imzo.
Extiyot kismalar va materiallarni olinishi	Ishlab chiqarish ustasi, ombor mudiri.	Yu, O Yu, O	«Oldim» grafasida imzo (1-nusxa) «Junatdim» grafasida imzo (2-nusxa) nomini ko'rsatib.
Ishni bajarish, ish xaqini hisoblash	Ijrochi (brigadir) Ishlab chiqarish ustasi. Mehnat bo'yicha muhandis	Yu, O Yu, O Yu, O	Tegishli grafaga imzo. Ishni bajarilishini tasdiqlovchi imzo. Tegishli grafa va «Hisob-kitob o'tkazdim» grafasiga imzo.
Avtomobil-ni egasiga topshirish, oxirgi hisob-kitob va rasmiy-lashtirish	Gaznachi Texnik nazorat bo'limining ustasi	Yu, O Yu, O	Buyurtmaning oxirgi qiymati, miqdori kvitantsiya bo'yicha sunggi hisob-kitobdan olingan pul miqdori; muddat, imzo; gaznaxona shtampi TNB ning shtampi, imzo.

Buyurtma-naryadning davomi (orka tomoni), agar buyurtma-naryadda ishlar va moddiy qiymatlarni sanab o'tish uchun joy yetarli bo'lmasa yoki qo'shimcha ishlarni bajarishga to'g'ri kelsa, ishlatiladi. Buyurtma-kvitantsiya buyurtma-naryad asosida rasmiylashtiriladi, u esa qabul-kiluvchi-usta ixtiyorida bo'ladi, uch nusxada tuldirladi, 1-si gaznada koladi, 2-si ishlab chiqarishga o'zatiladi, 3-si esa buyurtmachiga, beriladi. Buyurtmalarni hisobga oluvchi oynoma TXK va JT ga qabul qilingan transport vositalarini hisobga olish uchun qo'llaniladi. Buyurtma-naryadlar oynomada ortib borish nomerlari bo'yicha olinadi va unga davom ettiriladi. Buyurtma-kvitantsiyalar bo'lak oynomada ruyxatga olinadi va tasvirchida (usta-qabul kiluvchi) bo'ladi. Buyurtmalarni hisobga olish oynomada bir nusxada yozib beriladi.

U nomerlangan bo'lib, muxrlangan va avtomobillarga TXK korxonasi rahbari tomonidan imzolangan bo'ladi. Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi qabul qilish ustasi va ishlab chiqarishni tayyorlash ustasi ixtiyorida bo'ladi. Ikki nusxada tuldiriladi, 1-si buyurtma-naryadga tiqiladi, 2-si esa buyurtmachida bo'ladi. Buyurtma-naryadlar va qabul qilish-topshirish dalolatnomalari asosida avtomobillarga TXK korxonasi kismalari kundalik va oylik ish rejalari, avtomobillarni tiklovchi ta'mirlash reja-jadvali tuziladi va buyurtma naryadning harakat oynomasida tegishli yozuvlar bajariladi. Avtomobillarga TXK korxonasi tezkor hisoboti avtomobillarga TXK korxonasi dispetcheri tomonidan kismalari va ishlab chiqarish bo'linmalarining ustalarini hisobot-talabnomalari asosida tuldiriladi. Lozim bo'lsa tugallanmagan ishlab chiqarishga dalolatnoma tuziladi. Dalolatnoma uch nusxada xay'at tomonidan tuldiriladi, 1-si buxgalteriyaga yuboriladi, 2-si ishlab chiqarish ustasiga, 3-si esa –reja iqtisod bo'limiga; buyurtma-naryad bo'yicha bajarilgan ishlar xajmini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Texnika xizmati ko'rsatish jarayonini tezkor boshqarish.

Avtomobillarga TXK korxonalarida ishlab chiqarish jarayonini boshqarishni tashkil etishda xizmatga bo'lgan talab kondirilishi, mablag va boyliklardan foydalanishda avtomobilga TXK va JT da kam vaqt sarflash va yuqori sifatga erishish lozim. Avtomobillarga TXK korxonasida ishlab chiqarish jarayonini tezkor boshqarish ish bo'yicha mijozlar bilan bo'linmalarining rahbarlari amalga oshiradilar. Avtomobillarga TXK shaxobchalarida kuvvati 6 tagacha ish joyi bo'lsa, ishlab chiqarishni tezkor boshqarishni direktor (katta usta) amalga oshiradi. Mijozlar bilan ish bo'yicha bo'linmaning rahbariga ishlab chiqarishni boshqarishda band bo'lgan barcha bo'linmalar: mijozlar bilan ish bo'yicha guruh, ishlab-chiqarish-dispetcherli bo'lim, tsex rahbarlari, ishlab chiqarish kismalari, ustalari, brigadirlar bo'ysunadilar. (7-jadval).

Avtomobillarga TXK korxonasida ishlab chiqarish jarayonini boshqarish apparatining tuzilishi.

Hodimlarning toifasi	Avtomobillarga TXK korxonasi ish joylari bilan						
	51 va ortiq	36-50	20-35	16-20	11-15	6-10	6-dan kam

1. Mijozlar bilan ishlay-digan bo'linma-ning boshligi (menejer)							
2.Mijozlar bilan ishlaydi-gan kism;							
Kism boshligi (menejer)							
Katta usta							
Muhandis- texnolog							
Ishlab chiqarish-ni tayorlash ustagi							
Tasvirchi (operator)							
Kirimni qabul qilish bo'yicha gaznachi							
3.Ishlab chiqarishning dispetcherlik bo'limii.							
Bo'lim boshligi							
Katta dispetcher							
4. TSex boshligi							
Kism boshligi							
Katta usta							
Usta							
Usta (nazoratchi)							

Muhandis-texnolog (usta-qabul kiluvchi) mijozlar bilan ishlashda mas'ul shaxsdir. U texnika xizmati ko'rsatishga va ta'mirlashga qabul qilish va avtomobilni ishlab chiqarishga topshirilmaganligi (agarda avtomobillarga TXK korxonasida TNB bo'lmasa), avtomobilni buyurtmachiga berilmagani uchun javobgardir. Agarda avtomobillarga TXK korxonasida TNB bo'lmasa avtomobilni buyurtmachiga berilmagani uchun javobgardir. Agarda avtomobillrga TXK korxonasida TNB bo'lmasa avtomobilni buyurtmachiga berishni muhandis-texnolog uyushtiradi. Mijozlar bilan olib boriladigan ishlar bo'yicha shugullanadigan ishlab chiqarish bo'linmalari hodimlari reklamalar mijozlar bilan o'zaro bog'liklik oldindan yozib olish, avtomobillarni qabul qilish, ishlab chiqarish bo'linmalarini ish bilan band etish, mijozlarga xizmat ko'rsatish zalidagi ishlarning holati va uni tashkil etish, saqlash

kameralari, avtomobillarga TXK korxonasiga kelgan xorijiy mijozlarga mo'ljallangan xonalar, saqlash uchun yordamchi joylar va tayyor avtomobillarni topshirish kabilarni tashkil etishga javob beradilar. Ishlab chiqarish jarayonini boshqarish tizimida TXK va JT kisimlaridagi ishlarni, kuzovli va buyash ishlari, kiska muddatda ta'mirlash bo'limi ishlarini okilona tashkil etish ishlab chiqarish jarayonini boshqarish tizimining muhim elementidir. Ushbu elementlar orasidagi rejali topshiriklar har biriga va uning ijrochilariga tegishli ifodada yetkazilsa, muayyan topshiriklarni bajarilish muddati aniqlansa hamda ushbu topshiriklar rejadagi moddiy-texnik mablaglar (boylıklar) bilan ta'minlansa, demak, tezkor rejalashtirishning vazifalari bajarilgan bo'ladi.

3. Texnika xizmati ko'rsatish jarayonini nazorat qilish.

Nazorat bu jarayon bo'lib, uning yordamida ishlab chiqarish bo'limi va bo'linmalari rahbarlari tomonidan aniqlanadi. Nazorat boshqarishning vazifasidir. Uning mohiyati xavfli holat paydo bo'lishi mumkin bo'lgan Oqibatlarni oldindan aniqlash va yechimlarni topish uchun zarur va yana faoliyatini muvaffaqiyatli ragbatlantirish uchun ham qo'llanilishi mumkin. SHu borada texnika nazorati avtomobillarga TXK va JT jarayonlarining tarkibiy kismidir. Texnika nazorati bu avtomobillarni TXK shaxobchasida avtomobilni qabul qilishdan boshlab buyurtmachiga uni topshirguncha TXK va JT bo'yicha lozim bo'lgan ishlarning xajmi bajarilgandan keyin-uning barcha bosqichlarida o'tkaziladigan nazoratli operatsiyalarning jamini ifodalaydi. Xozirgi vaqtda avtomobillarga TXK korxonalarida sifatli nazorat qilish ishlab chiqarish ishlari bajarilganidan sung amalga oshirilmokda, ya'ni faol bo'lmagan nazorat shakli qo'llaniladi, buyurtmachiga topshirilayotganda avtomobillar va agregatlarda nuksonlar bo'lishiga yo'l kuymaslik asosiy maqsaddir. Bunda nazorat operatsiyalarining bajarishda shaxsning o'zigagina xos bo'lgan (sub'ektiv) va holis (ob'ektiv) nazorat usullaridan foydalaniladi. Texnika nazorati texnologik jarayondagi o'rniga karab kirish, operatsiyali va qabul qilishli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Kirish nazoratining asosiy vazifasi nuksonlarni, bajarilishi lozim bo'lgan ishlar ruyxatini tuzishda va ularning bajarilishining texnologik jihatdan okilona

ketma-ketligini topishdan iborat. Kirish nazorati avtomobillarni qabul qilish joylarida tashkil etiladi. Nazorat operatsiyalari usta-nazoratchi (qabul kiluvchi) tomonidan bajariladi.

Operatsiyali nazoratning asosiy masalalari dastlabki operatsiyalar (ishlar)ning bajarilishi sifatini tekshirishdan va baholashdan va avtomobillar (agregatlar)ni navbatdagi ishlar (operatsiyalar)ni bajarish uchun tuzatish imkonini aniqlashdan iborat. Nazorat nuksonining paydo bo'lishining oldini olish maqsadida o'tkaziladi. Ushbu nazoratning turi quyidagi ishlar sifatini tekshirishni nazarda to'tiladi: tunukachi-payvandlash ishlari va buyash oldidan bajariladigan tayyorlov ishlari; dvigatel' blokiga tirsakli valni urnatishdan oldin uni shlifovka qilish; orka ko'priki, amortizator, gaz taksimlash mexanizmi va boshqalarni ta'mirlashda. Operatsiya nazorat avtomobillarini texnika xizmati ko'rsatish va joriy ta'mirlash korxonalarining ishlab chiqarish kisimlari va tsexlarida tashkil etiladi. Katta va yirik avtomobillarga TXK korxonalarida uni texnik nazorat bo'limi (TNB) ustasi bajaradi.

Qabul qilish nazoratining asosiy masalasi bajarilgan ishlarning sifatini va xajmini aniqlashdir. Ishlab chiqarish kismlarida qabul qilish nazorati bir kismda bajarilgan ishlar sifatini aniqlash uchun xizmat qiladi. Nazorat ishlab chiqarish kismlarida va avtomobilni egasiga topshirish joylarida tashkil etiladi. SHu bilan birga nazorat jarayonida tekshiriladi: amalda bajarilgan ishlar buyurtma-naryadda kayd qilinganlariga mos kelishi; avtomobilning harakat xavfsizligini ta'minlovchi tugunlar, agregatlar va tizimlarning holati; amalda bajarilgan ishlarga to'g'ri xaq tulanishi va har xil ish turiga kafolat muddati. TNB avtomobillarga TXK korxonasi rahbariga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunadi.

TNB ning bajariladigan ish sifatlari, avtomobillarga TXK va JT da texnologik tartibga rioya qilish bo'yicha ko'rsatmalar avtomobillarga TXK korxonasining barcha hodimlari uchun majburiydir va so'zsiz bajarilishi lozim. Ishlarni sifatsiz bajarilishini hisobga olibgina kolmasdan majmui baholay oladigan, avtomobillarga TXK korxonasida xizmatning sifatini boshqarish va ragbatlantirish uchun xizmat sifatini majmui boshqarish tizimi nazoratining yuqori ilg'or shaklidir. Xizmat sifatini boshqarish ishlab chiqarishni boshqarish tizimining eng muhim tarkibiy kismidir.

Xizmat yoki maxsulot sifati-ishlab chiqarish sharoiti (texnik, texnologik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy sharoit)ga bog'lik bo'lgan murakkab tizimdirki, unga xilma xil boshqariluvchi ta'sir ko'rsatiladi, bu ta'sir esa xizmat (maxsulot) sifatini majmui boshqarish tizimida o'z aksini topadi. Sifatni iqtisodiy tomondan boshqarish tizimi umumdavlat darajasida, soha (tarmok) darajasida va korxonada darajasida tashkil etiladi. Umumdavlat darajasidagi sifatni boshqaruv ishining eng muhim vazifalari quyidagilardan iborat: sifat hisobga olingan xolda narx navoni belgilash; sifatni yaxshilash borasidagi eng yirik tadbirlarni tarmoklararo muvofiklashtirish, standartlash; sifat ustida umumdavlat nazorati va nazoratini uyushtirish; moddiy va ma'naviy ragbatlantirish tizimlarini ishlab chiqish; hodimlar tayyorlash va ular malakasini oshirish. Xizmat (maxsulot) sifatini tarmok (soha) darajasida boshqarish quyidagilarni o'z ichiga oladi; tarmok (soha) standartlarni ishlab chiqish, joriy etish va ularga rioya qilish; sifat ko'rsatkichlarini hisobga olib borish, rejalashtirish, tahlil qilish, avtomobillarga TXK va JT ishlarni harid qilish va ular sifatini tekshirish bo'yicha nazoratchining xizmat sifatini oshirish tartiblarini bajarish sohasidagi faoliyatini nazorat qilish. Avtomobillarga TXK korxonasida sifat ishiga quyidagilar kiradi;

- standart talablarga javob qilish uchun sharoit yaratish;

- sifat ko'rsatkichlarini hisob-kitob va tahlil qilish hamda korxonada miqiyosida rejalashtirish;

- hodimlarni xizmat (maxsulot) sifatini oshirganligi uchun moddiy va ma'naviy ragbatlantirish;

- nazoratning muayyan usullarini qo'llab, xizmat (maxsulot) sifatini darajasini texnologik jihatdan tartibga solib turish;

- ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash;

- moddiy-texnik ta'minlash, sifatini ta'minlash;

- xizmat sifatini nazorat qilish;

- xizmat va bajaruvchilar Mehnatining sifatini baholash;

- hodimlar tayyorlashni tashkil etish;

- tizimni ma'lumotli ta'minlash.

Avtomabillarga TXK korxonasi ko'rsatiladigan xizmat sifatini aniqlash;

-avtomabillarga TXK va T bo'yicha bajarilgan ish sifati;

-buyurtmachilarga xizmat ko'rsatish madaniyati va uni tashkil etish darajasi.

TXK va T bo'yicha ish sifatining darajasini asosiy miqdor ko'rsatkichi me'yoriy-texnik xujjatlar talabi bilan bajarilgan va TNB ning birinchi bor ko'rinishidanok topshirilgan ish Q_1 ni hisobot davrida bajarilgan umumiy ish hajmidagi Q takkoslash ulushidir K_{kay} , ya'ni

$$K_{kay} = Q_1 : Q$$

Q_1 va Q larning qiymatini TXK va JT sifatini nazorat qilish taloni va TXK va T sifati kaydnomalaridan aniqlanadi. (4 va 5-shakllar).

TXK va JT sifatini nazorat qilish taloni.

Kism (brigada)	Ko'rinishi- Danok qabul qilingan		Kayta ishlagandan keyin kaytgan avtomobil	Nukson va uni aniqlanishi (kaytish sababi)	Ishning qiymati, sum	Nuksonning kodi		
	1-	2-3- ...n				Kuri- nishi	Ahami- yati	Sababi

Avtomobil 1-ko'rinishidanok qabul qilingan

«__»__200... y

Avtomobil kayta ishlangandan keyin qabul qilingan avtomobil

«__»__200...y

5-jadval

TXK va sifati kaydnomasi__200...y uchun

Kism	Nazorat qilingan avtomobillar soni	Sifat	Ishning qiymati, sum	Sifat
------	---------------------------------------	-------	----------------------	-------

(brigada)	Jami	1-ko'rinishdanok	Kayta ishlanganidan keyin	darajasi	Jami	1-ko'rinishdanok	Kayta ishlanganidan keyin	darajasi
-----------	------	------------------	---------------------------	----------	------	------------------	---------------------------	----------

Buyurtmachilarga berib yuborilgan barcha avtomobillar _____
 SHu jumladan 1-ko'rinishdanok _____
 Kayta ishlanganidan keyin _____
 Avtomobillarga TXK korxonasi _____
 Bo'yicha sifat darajasi _____

Q_1 va Q ning qiymatini hisoblashda bor bo'yicha (natural) ulchami (avtomobillar soni), xuddi shuningdek pul qiymatida (extiyot kism va materiallarning qiymatisiz) qabul qilish mumkin. TXK va JT bo'yicha ish sifatini ko'rsatkichi K ni avtomobillarga TXK korxonasi bo'yicha va alohida kismalar, brigadalar, ijrochilar bo'yicha amalda bajarilgan ishlarning sifat darajasini baholashda ishlatiladi. TXK va T ning sifatini baholashda qo'shimcha ko'rsatkich bo'lib buyurtmachilarning iste'molchilik bahosi xizmat qiladi va buyurtmachilarning ma'qo'llash bahosining koeffitsenti bilan ifodalanadi.

$$K_{kach} = (C_1^0 + C_2^0) : (C_1^0 + C_2^0 + C_3^0)$$

Bunda C_1^0, C_2^0, C_3^0 -hisobot davrida buyurtmachilarning baholarini miqdori tegishli yaxshi (4), konikarli (3), va konikarsiz (2). Avtomobillarga TXK korxonasida buyurtmachilarga xizmat ko'rsatish madaniyati va sifati buyurtmachilarga madaniyatli xizmat ko'rsatishni buyurtmachilar ma'qo'llagan bahoning takkoslangan ulushi va buyurtmalarning muxlatida bajarilishiga rioya qilinishini buyurtmachilar tomonidan ma'qo'llagan bahoning takkoslash salmogi bilan baholanadi. Bajarilgan ishlarning sifati avtomobillarni kismdan kismga o'zratishda va uni buyurtmachiga topshirish oldidan nazorat qilinadi. Avtomobilni buyurtmachiga berishdan oldin yakuniy nazorat TNB ustasi yoki TNB vazifasini bajarmok uchun ajratilgan boshqa vazifadagi shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Nazorat qilishda tekshiriladi: buyurtma-naryadda talab qilingan va ko'rsatilgan ishlarning bajarilishining mos kelishi va sifati; almashtirilgan tugunlar va buyumlar; qabul qilishdagi dalolatnoma

bilan avtomobilning majmuiligining mos kelishi; avtomobilni nazorat qilishda talab qilingan Mehnat madaniyatiga va tozaligiga. Nazariy avtomobillarga TXK va T ning texnologik jarayonlariga binoan amalga oshiriladi. Nazorat natijalari TXK va T sifatini nazorat qilish taloniga (4-shakl) kuchiriladi, u esa usta-qabul kiluvchi yoki buyurtma stolining texnigi tomonidan bir vaqtda buyurtma-naryad bilan birga yozib beriladi va u bilan birga avtomobillarga TXK korxonasi ishlab chiqarish kismiga avtomobil bilan birga bir vaqtda yuboriladi. Alohida kismalar (brigadalar) va butun avtomobillarga TXK korxonasi ishlar sifati bo'yicha axvolni tezkor tahlil etish uchun hamda ishlardagi nuksonlarni bartaraf etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar qo'llashi uchun TXK va JT sifatini nazorat qilish taloni asosida TNB ustasi tomonidan TXK va JT sifati kaydnomasi va nuksonlar kaydnoma (6-shakl)larni tuldirdi, uni avtomobillarga TXK korxonasi bosh muhandisiga o'zatiladi. Nuksonlar kaydnomasini tuldirishda tasnifdan foydalaniladi (8-jadval).

6-shakl.

Nuksonlar kaydnomasi
« _____ » _____ 200...yil uchun.

Kism (brigada) ijrochi	Nuksonlar miqdori			
	Jami	Turlari bo'yicha	Ahamiyati bo'yicha	Sabablari bo'yicha
		kod	kod	Kod

Hammasi

TNB ustasi _____
(imzosi)

Nuksonlarning tasniflari.

8-jadval

kod	Nuksonning turi (nomi)	kod	Nuksonning ahamiyati (nomi)	kod	Nuksonning sabablari (nomi)
11	Ishning sifatsiz bajarilishi	21	Harakat xavfsizligiga ta'sir etuvchi nukson (harakat xavfsizligiga ta'sir etuvchi avtomobilning tugunlar va buyumlarida aniqlangan nuksonlar ushbu	31	Ijrochining sovukkonlik bilan munosabatda bo'lishi.

			shifirda belgilanadi)		
12	Ish xajmining bajarilmaganligi	22	Ko'rinadigan nukson va buyurtmachining noroziligini keltirib chiqarishi mumkin (buyashdagi, tekislashdagi, bajarishdagi madaniyatni pasligi va boshqalar)	32	Ijrochining malakasining pastligi yoki notexnologik vositalar va usullarning qo'llanilishi.
13	Tula yigilmagan-lik	23	Boshqa nuksonlar (shpaklyovkaning kam yoki ko'p kavati nostandart materiallarning ishlatilishi, ba'zi bir ishlar-ning bajarilmas-ligi va shunga o'xshash)	33	Ish sifatini ta'minlay olmaydigan uskunalar yoki asboblarning qo'llanilishi
				34	Me'yorlangan-texnik xujjat-larning talablariga mos kelmasligi
				35	Talablarga javob bermaydigan (nokonduktsiya) extiyot kismalar va materiallarni tsexga berilishi.
				36	Uskunalar, asboblalar, me'yorlangan-texnik xujjatlar, extiyot kism va materiallarning yo'qligi.

TXK va JT sifati va nuksonlarning har kunlik kadnomalari asosida (5 va 6 shakllar) kismalar (brigadalar) va avtomobillarga TXK korxonasiidagi ishlarning sifat darajasi va nuksonlarning to'rini, ahamiyati va sabablari bo'yicha ularning miqdorini taksimlanishi oy davomidagisi aniqlanadi. Avtomobillarga TXK korxonasi hodimlarining Mehnat sifatini baholash Mehnatda erishilgan sifat darajasini aniqlash uchun: buyurtmachilarning ishlari sifatini va xizmat ko'rsatish madaniyatini

yaxshilash maqsadida Mehnat sifati natijalarini tahlil etish; har bir hodim erishgan natijalar uchun ma'naviy va moddiy ragbatlantirishni holis bajarish uchun mo'ljallangan. Ishlab chiqarishdagi ishchi Mehnati sifatining ko'rsatkichi Mehnat sifatiga kiruvchi barcha tuzilmalar yigindisini ifodlaydi. Mehnat sifati Mehnatning xajmi va sifatiga, xaq tulashtirishning tarifi va ragbatlantirish tizimiga asoslangan bo'lib, ish xaqida o'z ifodasini topadi. Yuqori sifatli mehnat uchun ko'p xaq tulanadi, chunki muayyan ish vaqtida sifatsizroq Mehnatga nisbatan sifatli Mehnat ko'prok qiymat yaratadi. Barcha ishlar murakkabligiga karab tarif turida razryadlarga bo'linadi. Avtomobillarga TXK korxonasi ishining sifat ko'rsatkichlari-korxonada faoliyatini sifat jihatidan tavsiflovchi jami ko'rsatkichlar. Korxonada ishining sifatiga baho berishda ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi, u o'z ichiga umumiy va xususiy, qiymat va natura (bor bo'yicha), asosiy va qo'shimcha ko'rsatkichlarni oladi. Ana shu ko'rsatkichlarga karab korxonada ishining sifati darajasini aniqlash hamda TXK va JT sifatini oshirish borasida muayyan yo'llarni belgilash mumkin, kismalar (brigadalar), ijrochilarning shu Mehnat natijasiga kushgan muayyan xissasiga yarasha moddiy va ma'naviy ragbatlantirishni rejalashtirish lozim. Hisobot davridagi Mehnat sifatining koeffitsienti- K_1

$$K_1 = 100 + SK_n - SK_c,$$

Bunda: 100-dastlabki Mehnat sifatining koeffitsienti;

SK_n -ragbatlantirishning yigindi koeffitsienti;

SK_c -pasaytirishning yigindi koeffitsienti.

Ragbatlantirishning yigindi koeffitsienti

$$SK_n = M^1 K_n^1 + M^2 K_n^2 + M^3 K_n^3$$

Bunda: M^1, M^2, M^3 - hisobot davrida i ko'rinishdagi ragbatlantirish holatlarining miqdori;

K_n^1, K_n^2, K_n^3 -har bir holat uchun ragbatlantirish koeffitsienti (9-jadval),

Pasaytirish yigindi koeffitsienti:

$$SK_c = N^1 K_c^1 + N^2 K_c^2 + \dots + N^5 K_c^5$$

Bunda: $N^1, N^2, N^3 \dots N^5$ -hisobot davrida j talablarini bajarilmagan holatlarining miqdori;

$J=1,2,\dots,S, K_c^1, K_c^2, \dots, K_c^5$ -har bir holat uchun pasaytirish koeffitsenti.

(9-jadval).

Avtomobillarga TXK korxonasi ishlab chiqarish ishchilarining Mehnat sifati koeffitsenti hisoblash uchun ragbatlantirish va pasaytirish koeffitsentining me'yorlangan qiymati.

Ishchilarning sifati ko'rsatkichlari	Koeffitsentlar-ning shartli belgilari.	Har bir holat uchun koeffitsentlar-ning qiymati, %
Ragbatlantirish koeffitsenti ishlab chiqarish topshiriklarini muxlatidan avval va sifatli bajarishi		20
Ish sifati va buyurtmachilarga xizmat ko'rsatish madaniyatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llashda katnashish.		15
Ratsionalizatorlik takliflari berish va qo'llash, avtomobillarga TXK korxonasining kismi, brigada xiyotida faol katnashish.		10
Pasaytirish koeffitsenti		
TXK va JT da quyilgan nukson tufayli buyurtmachining imkoniyati yoki reklomatsiyasi muxokamaga sabab bo'lsa.		25
Ma'muryat farmoyishi bajarilmasa, ichki Mehnat tartib qoidasi buzilsa.		20
Texnologik tartib buzilsa		15
Ish joyining konikarsiz holati		15
Texnika xavfsizligi qoidasi buzilsa.		10

Har bir ishlab chiqaruvchi ishchi bo'yicha Mehnat sifatining ko'rsatkichlari sifati taloniga asoslanib hisobga olinadi va aniqlanadi, uni esa har oyning 1-kunida kechiqmasdan har bir ishlab chiqaruvchi ishchiga yozib bariladi. Sifat talonini yozib berish va qabul qilish avtomobillarga TXK korxonasi buxgalteriyasi ularni oynomaga hisobga olib ruyxatdan o'tkazgach bajaradi. Oy oxirida sifat taloniga asosan TNB ustasi Mehnat sifati koeffitsentini hisoblash kadnomasining umumiy ma'lumoti har

bir ishlab chiqarish ishchisiga tuzadi va uni ishdagi sifat ko'rsatkichlariga karab mukofot hisoblash uchun buxgalteriyaga yuboriladi. Ishlab chiqarishdagi ishchilarni moddiy ragbatlantirish Mehnatning miqdorli va sifatli natijalariga karab mukofotlashdan iborat. Sifat uchun ham, miqdor ko'rsatkich uchun ham fakat xizmatning harid xajmi bo'yicha rejadagi topshirigi bajarilsagina ragbatlantirish amalga oshiriladi. Umumiy mukofot ulchami tegishli ko'rsatkichlari bilan jamoa shartnomasida tasdiqlangan, o'rtacha maoshdan ma'lum kismi belgilanadi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Avtomobillarga TXK korxonalarida buyurtma-naryadni tuldirish tartibi qanday izoxlanadi?
2. Avtomobillarga TXK korxonasida ishlab chiqarish jarayonini boshqarish apparati qanday bo'lishi kerak?
3. Texnika xizmati ko'rsatish jarayonini nazorat qilish usullariga nimalar kiradi?
4. Texnik nazorat bilan texnik nazorat bo'limining farqi nimada?
5. Texnik nazoratning ko'rinishlari nimalardan iborat?
6. Tamirlashda bo'lgan avtomobillarni harakat xavfsizligini ta'minlovchi kismiga qanday e'tibor beriladi?
7. Texnika xizmati ko'rsatishning sifatini qanday aniqlash mumkin?
8. Xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilish taloni sifat kaydnomasidan nima bilan farq qiladi?
9. TXK nuksonlar kadnomasining maqsadi va mazmuni nimada?
10. TXK va nuksonlar tasnifiga nimalar kiradi?
11. TXK va Mehnat sifati qanday hisoblanadi?

Tayanch iboralari.

1. Buyurtma-naryad.
2. Texnik nazorat.
3. Texnik nazorat bo'limi.
4. Texnik xizmat ko'rsatishni sifati.
5. Texnik nukson.
6. Mehnat sifati.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тақдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Ўзбекистон 1997-326 бет.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон сиёсий ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Т. 1995й.
3. Косимов Г.М. Транспорт корхоналарида менежмент Т.Ўзбекистон, 2001 йил 448 бет.
4. Косимов Г. М. И др. Экономика Ўзбекистана на современном этапе. Ученное пособие Т. Мехнат 1992 г. 125 с.

5. Йўлдошев К., Муфтайдинов К. Иқтисодий билим асослари. Ўқитувчилар учун қўлланма (масъул муҳаррир: А. Сотволдиев) Т. Ўқитувчи 1997 й. 228 б.
6. Глухов В. В. Основы менеджмента. Учебно – справочное пособие. Санкт-Петербург: Специальная литература 1995-327с.
7. Косимов Г. М., Саматов Г. А. Организация и управление в автотранспортных предприятиях учебник Т. 1991-80с.
8. Румянцева З. П. Менеджмент организации. Учебное пособие м. Инфра-м. 1996-432с.
9. Косимов Г. М. Автотранспорт корхоналарида иқтисодий механизмни такомиллаштириш. Т. Ўзбекистон 1989 й.
10. Громов Н. Н., Персианов В. А., Управление на транспорте учебник для вўзов. М. Транспорт 1990-336с.
11. Вихий О. С., Наумов А. И. Менеджмент, человек, стратегия, организация, процесс. Учебник М. Изд-во МГУ 1995-416с.
12. Ўзбекистон Республикасининг автомобиль йўллар комплексини бозор иқтисодиёти шароитида ривожланиши. Республика, илмий-техникавий маколалар тўплами 16-18 сентябрь.
13. Улмасов А., Шарифхужаев М. Иқтисодиёт назарияси. Ноиқтисодий укув юртлирига дарслик Т. Мехнат 1995-432 б.